

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

SHABDULLAYEVA LAZOKATXON ORIFBEKOVNA
AL-BUXORIY ASARLARI VOSITASIDA
TALABALARDA MILLIY IFTIXOR
TUYG‘ULARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI.

Monografiya

Andijon-2025

Tuzuvchi:

ShabdullayevaLazokatxon Orifbekovna– Andijon davlat tibbiyot instituti *O‘zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).*

Mas‘ul muharrir:

N. J.Abdullayeva – Andijon davlat pedagogika instituti, *Pedagogikaa fanlari doktori (DSc), Professor*

Taqrizchilar:

N.D.Axmedova – Andijon davlat tibbiyot instituti *O‘zbek tili va adabiyoti, tillar kafedrası kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.*

A.N.Muxtarova. – Andijon davlat pedagogika instituti *psixologiya kafedrası v.b professori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.*

L.O.Shabdullayeva

Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg‘ularini rivojlantirish metodikasi: Monografiya/ Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna.: – Andijon: «JAHONA NASHR» nashriyoti, 2025 –141 b.

Mazkur monografiyada Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'ularini rivojlantirish metodikasining namoyon bo'lishi tahlil qilingan.

Kitob Pedagogika OTM professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tadqiqotchilar hamda O'zbekistonda pedagogika oliygohi talabalar ommasiga mo'ljallangan.

Monografiya Andijon davlat tibbiyot instituti Ilmiy kengashining 2025-yil 15-apreldagi 6i-78/m 2-son qarori bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I BOB	TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI.	
§ 1.1.	Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida	7
§ 1.2.	Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlari	23
§ 1.3.	Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda Imom Al-Buxoriy asarlarining didaktik imkoniyatlari	38
	Birinchi bob bo'yicha xulosa	50
II BOB	AL-BUXORIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALAR MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI	
§ 2.1.	Imom al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish modeli	53
§ 2.2.	“Al-Jome‘ as-sahih” asari asosida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mazmuni va uning tarkibiy komponentlari	67
§ 2.3.	Imom al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish metodikalari	84
	Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	96
III BOB	AL-BUXORIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALAR MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANISH METODIKALARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.	

§ 3.1.	Imom al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuygʻusini rivojlanganlik mezonlari, ularni baholash koʻrsatkichlari va darajalari	98
§ 3.2.	Tajriba-sinov ishlarining natijalari va statistik tahlili.	111
	Uchinchi bob boʻyicha xulosa	125
	XULOSA	126
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	129

KIRISH

Jahon ilmiy jamoatchiligi nafaqat islom, balki jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan, diniy va dunyoviy fanlarni birdek o'rganib, ularni jamiyat hayotiga tatbiq eta olgan Movarounnahr olimlarining ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganishga katta qiziqish bildirmoqda. Bu borada islom ta'limoti asoslaridan hisoblangan hadislarni jamlash va ular orasidan ishonchlilarini ajratib bergan Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Dorimiy kabi muhaddis ajdodlar hayoti hamda asarlarini o'rganish, Imom Buxoriyni nafaqat muhaddis, balki mufassir sifatida ham faoliyatini tadbiq etish zaruriyatga aylanmoqda. Ta'lim muassasalarida sharq mutafakkirlarining hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirish, ularda sharqona ma'naviyat va tarbiyani samarali tashkil etishda "Qur'oni Karim"dan keyin Hadisi shariflarni keltirishimiz muhim ahamiyatga ega. Globallashuv jarayonlarining jadallik bilan o'sib borishi, internet tarmog'ining keng yoyilishi xalqlararo yaqinlikni, o'zaro madaniyat almashinuvini tezlashtirmoqda. Bu esa yoshlarni milliy iftixor tuyg'usi bilan kamol topishlari, ularda milliy urf-odatlar, an'analar va qadriyatlarga ijobiy munosabatlarini rivojlantirish pedagogika fani oldidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Dunyoning qator ilmiy markazlarida tarixiy manbalarda, ma'naviy-ma'rifiy asarlar asosida islom tarixi va manbalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, sahih hadislar to'plamini tadqiq etish bugungi axborotlashgan jamiyatda kishilar ongi uchun olib borilayotgan keskin kurash jarayonida Qur'ondan to'g'ridan to'g'ri hukm olish, oyatlarni tafsir qilishda mavjud qonun-qoidalarni inkor etish kabi noto'g'ri yondashuvlarga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etadi. Islom olamida tan olingan eng ishonchli hadislar to'plami muallifi Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari va undagi "Tafsir kitobi" fasli, faslda keltirilgan hadislarni o'rganish, oyatlarni sharhlashda muhaddisning yondashuv va uslublarini tahlil qilish nafaqat islom ta'limotida, jumladan jahon miqyosida olimlarning e'tiborini tortib kelayotgan dolzarb masalalardan biridir.

Respublikamizda ajdodlarning qadimiy tarixi va boy madaniyatini qayta tiklash, buyuk allomalar ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish, yosh avlodni milliy an'analar va iftixor tuyg'ularini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Ularga ehtirom ko'rsatish, ulardan har jihatdan saboq olishga qaratilgan oqilona siyosat olib borilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarimizdan maqsad – islomga e'tiqodimizni alloma bobokalonlarimizga hurmatimizni ilm bilan bildirish. Ajdodlarimizga munosib bo'lish biz uchun juda katta burch". Imom Buxoriy kabi islom olamida yuksak e'tirofga sazovor allomalar hayot yo'li va ilmiy merosini chuqur tadqiq etish hamda asarlarini keng jamoatchilikka targ'ib qilish muhim masalalardan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 1997-yil 29-aprelda Vazirlar Mahkamasining "Imom Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida"gi Qarori, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-noyabrdagi "Hadis ilmi maktabi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 896-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

§1.1. Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, hamma davrlarda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat, ma’naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, usullari va qonun-qoidalarini izlaganlar. “Islom ta’limoti,” Qur’oni Karim” va Hadislarda, shuningdek, tasavvuf ilmida ilgari surilgan zohiriy va botiniy ilmlarning mazmun-mohiyatini, insonning ma’naviy barkamollik sifatlarini to‘g‘ri anglash ta’lim-tarbiyaning metodologik asoslarini to‘g‘ri tanlashga yordam beradi” [34].

Milliy o‘zlikni shakllantiradigan uchlik : o‘tmish, bugun va kelajak hamma davrlarda ham zamonning ziyolilari, xalqning kelajagi uchun qayg‘uradigan fidoyilarning e’tiborida bo‘lib kelgan. Bizning kunlarda bu haqiqatni yanada teran anglash, uni butun xalq ommasi tushunchasiga yetkazishga davlat darajasida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyevning bu boradagi fikrlari g‘oyat qimmatlidir: “Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, bu borada, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratishimiz kerak. Shu maqsadda, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida “O‘zbekiston tarixi” kanalini tashkil etib, ilmiy jamoatchilik, ijodkor ziyolilarimiz bilan birgalikda uning dasturlarini puxta shakllantirish kerak” [7]. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, milliy g‘urur va iftixor uchun asos, albatta, tarixdir, o‘tmishdir, chunki millat yashab turgan bugun o‘zining ishlarini baholashni kelajakka qoldiradi, uning imtihonidan o‘tgandagina iftixor uchun imtiyoz oladi, o‘shanda ham u tarixga aylanib bo‘lgan hisoblanadi. Kutilayotgan kelajak esa o‘tmish va bugunsiz mavjud bo‘lmagan mavhumiyatdir. Demak, faqat tarix, o‘tmishgina

millat ruhini ko'taradigan, uni ulkan ishlarga undashga qodir, o'ziga ishonchni sobit qiladigan omildir.

Islom dini necha-necha asrlar mobaynida odamlarni, jami bashariyatni ulug' maqsadlar yo'lida birlashtirishga, hamjihat bo'lishga, tinchlik-totuvlikni mustahkamlashga, axloqiy va ma'rifiy kamolotga, vatanparvarlikka, ezgulik va saxovatga, bag'rikenglik va mehr-oqibatlilik, ezgulik maqsadlari yo'lida qo'lni qo'lga berishga, o'zaro nizolar, qonli to'qnashuvlarga, milliy, irqiy, diniy kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka, umumiy uyimiz, kurrayi zaminda, do'st-birodarlar, ahil-hamkor bo'lib yashashga, umuminsoniy madaniyat, ma'naviyatdan bahramand bo'lishga da'vat etib kelmoqda.

Ilm, hikmat jamiyatdagi ma'naviyat manbayi. Shuning uchun ilm o'rganib uni tarqatish avj olsa fitnalar, haraj (qotillikning) oldi olinadi. Hadislarda ulamolar ilm o'rganib, ilm tarqatishga kirishsinlar, bilmaganlarga o'rgatsinlar. Zero, ilm sir tutilsa, halokat boshlanadi, deb aytilgan. Shu bois, birga ilm faqat birovlar mulki emas, u butun mo'minlarning ma'naviy mulkidir. Ilmni sir tutish, uni tarqatmaslik jamiyatni halokatga olib keladi. Hadislarning o'zidek ilm, hikmat ham umumbashariyat mulki bo'lmog'i lozim.

Hadis ilmining yorqin namoyandasi, sharq mutafakkirlaridan Imom al-Buxoriyning hayoti va ijod yo'lini o'rganish, uning boy merosining bugungi kundagi yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi o'rni, allomaning yuksak bilimga egaligini tatqiq etish asosida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini aniqlash tadqiqot ishida belgilab olingan vazifalardan sanaladi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zarurati shundan iboratki, talabalarni axloqiy negizlarini buzulishiga olib keladigan xatti-harakatlardan, diniy ekstremizm va terrorizm, fundamentalizm, separatizm, shafqatsizlik va zo'ravonlik kabi g'oyalardan himoyalaydi. Shu bilan birgalikda, talabalarni vatanparvarlik, fuqorolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni yot g'oya va turli oqimlarga qarshi tura oladigan hayotga bo'lgan qat'iy ishonch qarashlarga ega qilib voyaga yetkazishda katta o'rin egallaydi.

Tadqiqot doirasida muammoni kompleks o'rganish maqsadida milliy g'urur va milliy iftixor tushunchalarining mazmun mohiyati va ularning o'zaro farqini aniqlash, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda milliy g'urning ahamiyatini yoritib berish maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqib, quyida har ikkala tushunchaning o'zaro farqlari va mustahkam aloqadorligini tahlil etamiz.

“Milliy g'urur – har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat. Bu tuyg'u o'z ona zamini, ajdodlar tomonidan qoldirilgan moddiy-ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-e'tibori bilan faxrlanish hissiyotidir. Milliy g'urur har bir insonda o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini o'zlashtirish, urf-odatlarini, an'analarni, qadriyatlarini, tarixini mukammal bilish va uni o'zga millatlar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi hamda unda o'z millatiga mehr-muhabbatini oshirib boradi” [82. 12-b].

Milliy iftixor – milliy g'urur tuyg'usiga egalikning yuqori bosqichi bo'lib, u millatning yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Milliy iftixor tuyg'usiga egalik, shuningdek, millatning kishilik taraqqiyoti tarixida tutgan o'rnini, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hissasini, qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini munosib baholay olish, millat istiqboliga bo'lgan ishonchga egalikni ham ifodalaydi [39. 98-b].

Bu tuyg'u talabalarda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo'lmaslik;
- xalqi, millatining taqdiri uchun jonkuyar bo'lish;
- o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini asrab-avaylash;
- xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish to'g'risida qayg'urish;
- xalqi, millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Bundan kelib chiqadiki, insonning o'z tug'ilib o'sgan zamini, ajdodlari, tili, madaniyati, an'ana, urf-odatlariga sadoqatida namoyon bo'luvchi iftixor

tuygʻusining shakllanishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Millat milliy davlatlar shakllanishi shart-sharoitida milliy iftixor tuygʻusi butun jamiyat ijtimoiy ongining muhim xususiyatini ifodalaydi. Har bir inson milliy iftixor toʻgʻrisida oʻziga xos tasavvurga ega, chunki har qanday jamiyatda mazkur tasavvurlarni tarkib toptirish yosh avlod, ijtimoiy tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. “Buyuk mutafakkirimiz Imom al-Buroxiyning maʼnaviy merosida, yozuvchi va shoirlarimiz asarlarida ham burch, qadr-qimmat, milliy gʻurur, milliy iftixor singari yuksak hissiyotlar bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy his-tuygʻular chuqur aks etgan. Albatta, milliy iftixor boʻlajak oʻqituvchilarning Vatan tarixini bilishi, mamlakatining jahon tamadduni rivojiga qoʻshgan hissasidan boxabarligi ham muhimdir” [51. 64-b].

Milliy iftixor tuygʻusini rivojlantirish texnologiyalarini tarbiya jarayoniga tatbiq etish, boʻlajak oʻqituvchilarni tayyorlashda ularda milliy iftixor tuygʻusini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, boʻlajak oʻqituvchilarda milliy iftixor tuygʻusi keng jamoatchilik oʻrtasida oʻzaro munosabatlarda ijtimoiy hayot sohalari orqali, undan samarali foydalangan holda, targʻibot vositalaridan unumli foydalanishga erishish taʼlim tarbiyani toʻgʻri tashkil etishga koʻmaklashadi. Milliy iftixor tuygʻusini rivojlantirish texnologiyalarini bilish, oʻrganish orqali, undan taʼlim va tarbiya sohalarida toʻgʻri foydalanish zamonning talablariga javob berish uning eng muhim maqsadlaridan biridir.

Abdurauf Abdurahmon oʻgʻli Fitrat ham oʻz Vatanini sevadi, u bilan faxrlanadi, uni har narsadan muqaddas tutadi va yoshlarni Vatanni sevishga, ardoqlashga, Vatan uchun jon fido qilishga chorlaydi:

“Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmi kerakdir?

Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?

Temur bila Chingiz qoni toshdi tomirimizdan,

Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?

Yov suqgʻali kelgach qilichini yuragingga,

Tush oldiga, ol koʻksumi – qalqonmi kerakdir” [105].

Bu misralar vatanparvarlikning yuksak namunasi bo'lib, yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda alohida qimmatga ega.

Fitratning fikricha, "Har bir inson hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi uchun u sog'lom fikrli va pok axloqli bo'lmog'i kerak. Har millat o'z kelajagini o'ylar ekan, yoshlarga e'tiborini qaratmog'i, ularni muntazam jismoniy, aqliy, ruhiy tomonidan chiniqtirmog'i lozim" [24. 256-b].

Munavvarqori Abdurashidxonov bola tarbiyasida vatanparvarlik va mehr-muhabbatlilik, sadoqatlilik, halollik, odamiylik kabi sifatlarni o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan. Muallif bola tarbiyasida Vatanga sadoqatlilikni muhim tarbiyaviy jihatlardan biri sifatida talqin etib, hurlik, tinch zamonni qadrlashga chorlaydi. Har bir yurt farzandiga Vatan oldidagi burchini sidqidildan ado etishi, tinchlikning bebaho ne'mat ekanligini tushuntirish, ularda o'zlikni anglash, milliy qadr-qimmatimiz bo'lgan tarixiy meroslardan samarali foydalanish nazarda tutiladi.

Milliy iftixor ma'lum millatga tegishlilik jahon rivojiga qo'shgan xizmatidan g'ururlanish, o'z yurtiga sadoqatini amaliy faoliyatlarda ko'rsatish hisoblanadi. Milliy iftixor tuyg'usi zahirida quyidagi tarkibiy komponentlar aks etadi:

- xalq tarixidan xabardorlik, millatning o'tmishi, tarixiga bo'lgan hurmat ko'rsatish hissi;
- millatga xos bo'lgan ijtimoiy ruhiyat, uning ijobiy ko'rinishlari va milliy turmush tarzining o'ziga xosligidan xabardorlik;
- milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash va yanada boyitish to'g'risida g'amxo'rlik qilish ehtiyoji;
- tarixiy o'zgarishlar davrida ham millatning axloqiy qarashlari, e'tiqodida sodiq qolish tuyg'usi;
- milliy madaniyatni jahon sivilizatsiyasining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishda o'zining mas'uliyatini his etishi;
- ota-bobolarimiz tomonidan qoldirilgan boy ma'naviy merosiga hurmat ko'rsatish hamda kelajak avlodga asrab-avaylab yetkazib berishi;

- Vatan taraqqiyoti uchun munosib o'z hissasini qo'shishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi.

E. Yusupov o'zining "Inson kamolotining ma'naviy asoslari" nomli asarida ma'naviyat, inson ma'naviyati, uning shakllanish bosqichlari, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda alohida o'rin tutuvchi omillar, ma'naviyatga erishishning ijtimoiy-axloqiy ahamiyati, shuningdek, shaxsning psixologik xususiyatlariga tayangan holda uning ma'naviyatini shakllantirish shartlari haqida so'z yuritadi. Ishning e'tiborli jihati vatanparvarlikning ma'naviyati yuksak insonga xos bo'lgan fazilat ekanligiga alohida urg'u beradi. Shuningdek, vatanparvarlik tushunchasi sharhlanadi. Muallifning fikricha, "Vatanparvarlik-buyuk fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro'-e'tibori ham shu millat kishilaridagi vatanparvarlik tuyg'usining shakllanganlik darajasi bilan bogliqdir" [104].

Bugungi kunda ma'naviy tahdidlarning ortib borishi, milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalari bilan shug'ullanuvchi zamonaviy mutaxassislarga talab kundan kunga ortib bormoqda. Bugungi axborot asrida ta'lim-tarbiya tizimlarida muhim islohotlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillik tufayli ta'lim-tarbiya jarayonlariga yangicha qarashlar shakllanib, o'qish jarayonlariga yangicha zamonaviy va innovatsion uslublar kirib kelmoqda.

Bularga:

Birinchidan, axborotlar hajmining ko'payib borishi, ulardan foydalanish uchun vaqtning cheklanganligi hamda ularni saralash va tizimlashtirishning birmuncha murakkabligi yangicha yondashuvlarni taqozo etadi;

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiyada yangi texnologiyalarning uzluksiz joriy etilishi o'quvchilarning an'anaviy o'qitish uslublarining yangilanishi va tabiiy ravishda, yangicha pedagogik texnologiyalarni qo'llanishi talabalarda o'quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantiradi. Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish metodikalarining regulativ ta'siri amaliy nuqtayi nazardan quyidagi holatlarni hisobga olgan:

1. Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish metodikalaridan samarali foydalanishga undaydi;
2. Dunyo fanlari erishayotgan yutuqlardan amaliy faoliyatda foydalanishga safarbar qiladi; yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish orqali uning salohiyatini oshirish yo'llarini ko'rsatib beradi;
3. Ta'lim tizimida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish faoliyatini takomillashtirish, uning rivojlantirish bosqichlarini belgilab berish;
4. Milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish orqali uni ommalashtirish va fuqarolar ongiga bosqichma-bosqich singdirib borish;
5. Aholi keng qatlami orasida milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muntazam olib borishdan iboratdir.

Sharqshunos olim A.O. Makovelskiy "Avesto" asarini o'rganar ekan, unda o'tmishdan saboq olish, ajdodlar o'gitiga quloq solish, erishilgan g'alaba va yutuqlardan o'rganishga da'vat borligiga diqqat qaratadi [73]. Bu yosh avlodni tarbiyalashda yashab ijod qilgan ota-bobolarimizning hayot yo'li, ular tomonidan yozib qoldirilgan qo'lyozmalar, ularning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlaridan talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishdga e'tibor qaratilganligini ko'rishimiz mumkin.

Sharq madaniyati asrlar davomida dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib kelgan. Shu boisdan, milliy ma'naviyatni rivojlantirish, o'zlikni anglash, madaniy meros va tarixiy o'tmishga yoshlarda chuqur hurmat, uni o'rganishga intilishlar tuyg'usi kuchayishi muhim ahamiyatga egadir. Biz yoshlar mustaqillik tufayli yaratilgan keng imkoniyatlar va sharoitlardan o'z vaqtida samarali foydalanishimiz zarurdir. Zimmamizdagi mas'uliyatni qay darajada anglashimiz esa milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish haqidagi tushunchamizga, milliy g'ururimizga bog'liq. Ta'lim muassasalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish borasidagi ta'lim-tarbiyani tashkil etish, madaniy me'roslarimizni asrash, tarixiy o'tmishga chuqur hurmat, talabalarda uni o'rganishga intilish tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga doir bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, amerikalik tadqiqotchilar G. Almond va S. Verbalarning fikricha, "Milliy iftixor madaniyatning asosiy tarkibiy komponentlaridan biri sanaladi" [33. 297-b]. Binobarin, har bir millatning o'z madaniyati bo'lganidek, xalqlarning o'z madaniyatidan, tarixiy shakllanishidan va milliy qadriyatlaridan faxrlanish tuyg'usi tarkib topadi. Bu esa ularda milliy iftixor tuyg'usining shakllanishiga asos yaratadi.

Respublikamizda ham xalqimizning o'z tariximizni, ota-bobolarimizni, qadriyatlarimizni, urf-odat va an'analarimizdan xabardorligini oshirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, 1996-yil "Imom Buxoriy ta'rifi" nomli risola chop etildi. Amalga oshirilgan bunday ishlar alloma ilmiy merosini o'rganish va asarlarini yoshlarga tanishtirishda muhim ahamiyatga egadir. [15].

1997-yil 29-aprelda Vazirlar Mahkamasining "Imom Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo'yicha 1225 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori [7] qabul qilingan. Uning asosida Imom Buxoriy ilmiy merosini o'rganish va xotirasini abadiylashtirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, 1998-yil 23-oktyabrda Samarqandda Imom Buxoriy yubiley tantanalari bo'lib o'tdi. Buyuk muhaddis qabri joylashgan Payariq tumanidagi Xartang qishlog'ida ulkan yodgorlik majmuasi ochildi. Imom Buxoriy ilmiy merosini chuqur o'rganish va yoshlarga keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi tuzildi [8]. "Qur'oni karim va "Al-Jome' as-sahih" ning o'zbekcha nashrlarini tayyorlash, islom ilmlari rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk allomalar ilmiy merosini tadqiq etish, diniy-falsafiy mavzularda anjumanlar o'tkazish va ular yordamida yosh avlodni milliy an'analarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash jamg'armaning asosiy vazifalari etib belgilandi" [112].

2000-yildan ushbu jamg'arma tomonidan "Imom Buxoriy saboqlari" nomli ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-adabiy jurnal nashr etila boshladi. Shuningdek, shu

davrga qadar Imom Buxoriyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan kitob-albom tayyorlandi, ikki qismli hujjatli film, "Hadis ilmining sultoni" nomli 4 qismli kino qissa tasvirga olindi. Shu bilan birgalikda, Buxoriy ilmiy merosini ilmiy asosda chuqur o'rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib etish maqsadida 2008-yil 23-mayda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Imom Buxoriy xalqaro markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi [9]. Uning asosida din ishlari bo'yicha qo'mitaning Samarqand viloyatidagi Imom Buxoriy hadis ilmi markazi hamda Imom Buxoriy respublika ilmiy-ma'rifiy markazi negizida Imom Buxoriy xalqaro markazi tashkil etildi. Asosiy vazifalari etib islom dini, Qur'oni karim va Hadis ilmining asl mohiyatini, hadisshunoslik maktabining ilmiy-ma'naviy asoslarini, yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy singari buyuk hadisshunos allomalar merosini o'rganish, keng targ'ib qilish kabilar Imom Buxoriy xalqaro markazining vazifasi etib belgilandi.

Keyingi yillarda esa bu boradagi ishlar jadal davom ettirildi. Xususan, "Al-Jome' as-sahih" islom olamida eng sahih hadis to'plamlari sifatida e'tirof etilgan to'qqiz mo'tabar kitobdan iborat "Oltin silsila" turkumining dastlabki nashri bo'ldi. 2016-yildan Imom Buxoriy ilmiy merosini o'rganish ishlari yangi bosqichlarga ko'tarildi. 2017-yil 27-martda Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi [10]. Uning ijrosini ta'minlash bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan tegishli hujjat qabul qilinib, unda markaz faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizomlar tasdiqlandi. Markaz maqomi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan tenglashtirildi. Bu esa markazning keyingi faoliyatidagi samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi.

Markazda nafaqat Imom Buxoriy ilmiy meroslarini tadqiq etish, balki boshqa buyuk allomalarimiz ijodiy faoliyatini ham o'rganish yo'lga qo'yilgan. 2017-2023 yillar davomida buyuk ajdodlarimiz qalamiga mansub 13-14 noyob asarlar o'zbek tillariga tarjima qilinib, nashr etildi. Mahalliy va xorijiy qo'lyozma

fondlarida saqlanayotgan Imom Buxoriy qalamiga mansub 2838 ta asarning reyestri tuzildi. Bundan tashqari, Turkiya, Yaponiya va Germaniya kutubxona fondlarida saqlanayotgan 620 ga yaqin qo'lyozma asarlarning annotatsiyalari tayyorlandi.

Imom Buxoriy ilmiy merosi mamlakatimizdagi boshqa ilmiy tadqiqot muassasalarida ham keng o'rganib kelinmoqda. Xususan, "Hidoyat" jurnali O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi A. Inoyatovning "Imom Buxoriy va tafsir ilmi" nomli ilmiy ishida buyuk muhaddis hayoti va ijodiga oid yangi ilmiy ma'lumotlarni e'lon qildi. 2021-yil "Imom Buxoriy saboqlari" jurnalida nashr qilingan "Siyaru a'lomun nubalo" asarida Imom Buxoriy siyrati" nomli maqolada tafsir, siyarul nabiy, zuhd va riqoq kabi tushunchalarning mohiyati ochib beriladi" [28. 76-80-b].

Islom ma'rifati rivojiga ko'plab o'z hissasini qo'shgan buyuk alloma va mutafakkirlar hayoti va ilmiy merosini o'rganish va targ'ib qilishda katta yutuqqa erishgan olim va tadqiqotchilarni, yoshlarni rag'batlantirish ishlari yo'lga qo'yildi. Xususan, shu maqsadda 2022-yil avgust oyida O'zbekiston Respublikasining "Imom Buxoriy" ordenini ta'sis etish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi [11]. Bu kelajak yoshlarning yanada shijoat bilan tarixiy va buyuk allomalarni, hayoti va ijodlarini o'rganishga turtki bo'ldi. Zero, yoshlar tarbiyasida mutafakkirlarning qarashlari, olimlarning fikrlarini o'rganar ekanmiz, beixtiyor millatimizga xos bo'lgan axloqiy, tarbiyaviy fazilatlar ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Shuningdek, ilk tarbiya, samimiy munosabat, go'zal muomala oiladan ota-onalarimizning namunasi timsolida shakllanadi.

Sharqning buyuk mutafakkirlari, buyuk siymolar millatimizning iftixorlari ekanligini yoshlarimiz bilishlari zarur. Imom Buxoriyning asarlarida insonni ulug'lash, adolat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, mardlik, saxiylik, kamtarlik, rostgo'ylik, do'stlik, olijanoblik, muruvvatlilik, odob-axloq, ilm-ma'rifat g'oyalari ilgari surilgandir. Mutafakkir insonning insonga bo'lgan samimiy muhabbatini ta'riflab quyidagicha bayon etadi: "Muhabbat har qanday qimmat narsaning bahosidir va u har qanday yuqori narsaning shotisidir. Muhabbat

xor-xashaklarga bardosh berilmasa va uning loyqa suvlarini ichmasa, unda yaxshilik bo'lmaydi. Muhabbat qanday yaxshi shafedir va uning egasiga qalb qanday yaxshi yordamchidir". Buxoriy yoshlarni navqironlik davrining har daqiqasini qadriga yetishga, halol mehnat qilib, farovonlik, baxt-saodatga erishishga chaqiradi.

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'ngi yillarda yurtimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda.

Millatimizga azal-azaldan xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish, yosh avlodni milliy iftixor tuyg'usini qadriyatlarimizga mos ravishda tarbiyalash, ularning ongida kichik maktab yoshidan boshlab hadis ilmi saboqlari asosida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni vatanparvarlik kabi tushunchalarni singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o'zlarining Yangi yil munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigida "Inson qadrini ulug'lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi" [106], deb ta'kidlagan edilar.

Yurtimiz buyuk allomasi Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad", "At-ta'rix as-sag'iy", "At-ta'rix al-avso't", "At-ta'rixal-kabir", "Kitob al-ilal", "Barr ul-volidayn", "Asomi us-sahoba", "Kitob al-kuna" va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin. Imom Buxoriyning eng muhim asari bu "Al-jome' as-sahih" dir. Bu asar "Sahiyh al-Buxoriy" nomi bilan ham mashhurdir. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, "Imom Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay joylab kelganlar. Imom Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob tayyorlaganlar" [65. 68-b].

Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga ja'mi 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iboratdir.

Imom al-Buxoriy hayoti va ijodini o'rganish, uning boy ma'naviy merosi asosida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda pedagogika tarixi fanining oldidagi muhim vazifalardan biri sanaladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda allomaning hadirlaridan o'quv metodik material sifatida foydalanish asosida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish metodikasiga asos solinadi. Tadqiqot ishida, hadislarning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati, ularning mazmun-mohiyati, bugungi zamonaviy ta'lim sharoitida qo'llashning pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Jumladan, alloma tomonidan yozilgan asarlarning xususiyatidan kelib chiqib, talabalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonlariga muvofiqlashtirilgan didaktik materiallar tayyorlash hamda ularning qo'llanish sohalarini asoslashga doir ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Hadislarni talabalarga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki turli texnologiyalar vositasida yetkazib berish, ularning hadis mazmunini tezroq anglab yetishlari va qo'llashga doir usullarni ishlab chiqishlariga yordam berganligi kuzatildi.

Umumiy pedagogika yo'nalishida bajariladigan ilmiy tadqiqotlarda ilmiy

izlanish ob'yekti sifatida qabul qilinayotgan shaxs hayoti va faoliyatini o'rganish zarur shartlardan biri hisoblanadi. Shu bois, tadqiqot jarayonida Imom al-Buxoriyning hayot yo'li va faoliyatini o'rganishga e'tibor qaratildi. Muayyan izchillik va tizimlilikni ta'minlash maqsadida bu borada amalga oshirilgan faoliyatni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1) Imom al-Buxoriyning hayoti bilan tanishish, hayot yo'lini muayyan bosqichlarga bo'lish orqali turli bosqichlarda sodir etilgan asosiy hodisa va voqelikni ajratib ko'rsatish;

2) nazariy tahlil asosida imom Al-Buxoriy faoliyatining muhim yo'nalishlari, ularning o'ziga xos jihatlari, qo'lga kiritilgan yutuqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash.

Imom al-Buxoriy hayoti bilan tanishish va hayot yo'lini muayyan bosqichlarga ajratishda pedagogik-psixologik manbalarda yoritilgan yosh davrlarini belgilash borasidagi fikrlar tahlil qilindi. Nazariy tahlil natijalari A.V. Mudrik tomonidan belgilangan yosh davri inson hayotining barcha bosqichlarini to'la qamrab olganligini ko'rsatdi.

A.V. Mudrik ijtimoiylashuv nuqtayi nazaridan inson hayotini quyidagi yosh davrlari bo'yicha ajratish taklifini ilgari suradi:

1. Bolalik davri: 1) chaqaloqlik (tug'ilgandan 1 yoshgacha); 2) ilk bolalik (1-3 yosh); maktab yoshigacha bo'lgan bolalik (3-6 yosh); 3) kichik maktab yoshi (6-10 yosh).

2. O'smirlik davri: kichik o'smirlik yoshi (10-12 yosh); katta o'smirlik yoshi (12-14 yosh).

3. Yoshlik davri: ilk o'spirinlik yoshi (15-17 yosh); o'spirinlik yoshi (18-23 yosh); yoshlik (23-30 yosh).

4. Yetuklik yoshi: ilk yetuklik yoshi (30-40 yosh); yetuklik yoshi (40-55 yosh); qarilik yoshi (55-65 yosh).

5. Keksalik yoshi: keksalik (65-70 yosh); nuroniylik yoshi (70 yoshdan yuqori) [30].

Muhammad Ismoil al-Buxoriy hayot yo'lini yaqindan o'rgangan holda

unda quyidagi asosiy bosqichlar koʻzga tashlanishiga ishonch hosil qilindi (1.1.1-jadval):

1.1.1-jadval

Muhammad Ismoil al-Buxoriy hayot yoʻli davrlari va bosqichlari

Bosqichlar	Yosh davrlari	Imom al-Buxoriyning har bir yosh davrlarida amalga oshirgan taʼlimiy-tarbiyaviy ishlari
1	2	3
1-bosqich	Bolalaik davri	Hijriy yuz toʻqson toʻrtinchi sananing oʻn uchinchi shavvolida (Milodiy 810-yilning 20-iyuliga toʻgʻri keladi) Buxoroi sharifning taniqli ulamolaridan Abul Hasan Ismoil ibn Ibrohim xonadonida tavallud topgan.
2-bosqich	Oʻsmirlik davri	Otasidan erta ajragan Muhammadni olti yoshga toʻlganida onasi uni mahalladagi vazir Ahmad ibn Hasan Utbiy qurdirgan masjid qoshidagi madrasaga oʻqishga berdi. Ikki yilda Muhammad tengdoshlarining havasini, gʻayirligi va hasadini qoʻzgʻab, ularni ancha ortda qoldirib ketdi. Madrasada oʻqitiladigan hamma darslarni deyarli oʻzlashtirib boʻlgan edi. Ammo u tahsildan qoniqmaydi, unga kundalik dars majlislari kifoya qilmaydi. Muhammad ibn Salomning majlisidan chiqib, Yahyo ibn Yahyo Tamimiyning huzuriga hadis yozgani joʻnab qoladi. Boʻsh qoldi deguncha kitoblar olamiga shoʻngʻiydi, ulardan hadislarni koʻchirib oladi, uzluksiz hadis yodlaydi. Isnodlarini oʻrganadi. Hadis roviylari tarixidan xabardor boʻlishga tirishadi. Besh yil ichida bolakay qatnamagan birorta ilm halqasi shaharda qolmadi hisob. Yosh Muhammad ilmiy faoliyatini juda barvaqt boshladi.
3-bosqich	Yoshlik (oʻspirinlik) davri	Hijriy ikki yuz oʻninchi yilda oʻn olti yoshida onasi Fotima va akasi Ahmad bilan haj safariga otlandi. Haj safaridagi ibodatlarini amalga oshirganlaridan soʻng onasi va akasi Buxoroga qaytib ketdilar. Muhammad Makkaning chekka bir mavzeʼda Abdulloh ibn Yazid Muqriydan taʼlim ola boshladi. Juda koʻplab ustozlardan taʼlim oldi. Oʻn sakkiz yoshida sahobalar va tobeʼinlar hayoti, ularning soʻzlari haqida kitob yozdi. “Tarixi kabir” deb nomlangan bu kitobni Rasululloh sollallohu alayhi vasallam masjidlari ravzasida yozganlar.
4-bosqich	Yetuklik davri	Imom al-Buxoriy hadis tadqiqi uchun butun umrini bagʻishladi. Gulning shirasini izlab, har kuni nechalab chaqirim yoʻlni uchib oʻtadigan hormas-tolmas asarlari kabi Buxoriy ham hadis axtarib, qancha oʻlkalarga sayohat qildi. Qanchalab ustozlarning huzuriga oshiqib, ularning ilm majlisiga talpindi. Bitta hadisni yozib olish uchun Xurosondan Hijozga yoki Madinadan Basraga safar qildi. Nima topsa, tahoratli holda darrov qogʻozga tushirib, avaylab olib qoʻyar edi. Shu davr

		mobaynida biror hadis “chashma” siga ko`zi tushsa, undan “sipqormay” qolmadi. Olti yuz ming hadisni yod olgan bo`lsa, ulardan faqat sahihlarini ajratib olib, kitoblariga kiritdi. G`ayri sahihlaridan, ozgina “illati” bor hadislardan voz kechdi. G`ayri sahihlarini ham yod olganining sababi shuki, o`z kitoblarida ulardan saqlanish va boshqalarni ham bu hadislarlardan ogohlantirish edi.
5-bosqich	Keksalik davri	Imom al-Buxoriy ilmiy merosi hadisshunoslik ilmini rivojlanishiga sabab bo`ldi.

Ibn Abu Hotim Varroq yaxshi biladiki, zamonasida hech bir muhaddis Imom Buxoriychalik ko`p ustoz ko`rmadi. U kishichalik ko`p ustozdan hadis tinglamadi. Ismoil al-Buxoriyning ustozlarining yashash manzillaridan kelib chiqib, geografik keng miqyosda hadis ilmini o`rganganligi, hadislarini sahih ekanligini bir necha marotaba tekshirib aoslaganligini quyidagi jadvalda keltirilgan ma`lumotlardan ham ko`rish mumkin (1.1.2-jadval):

1.1.2-jadval

Ismoil al-Buxoriy hadis ilmi bo'yicha tahsil olgan ustozlari

№		Ustozlarining ism shariflari
1.	Bolalikda	- Muhammad ibn Salom Boykandiy; - Muhammad ibn Yusuf Buxoriy; - Shayx Abdumalik Doxiliy; - Abdulloh ibn Muhammad Musnadiy; - Horun ibn Ash`as
2.	Makkada	- Abu Bakr Abdulloh ibn Zubayr Humaydiy; - Abul Valid Ahmad ibn Muhammad Azraqiy; - Abdulloh ibn Yazid Muqriy; - Ismoil ibn Solim Soig`
3.	Madinada	- Abdulaziz ibn Abdulloh Uvaysiy; - Mutarrif ibn Abdulloh; - Ibrohim ibn Hamza; - Ibrohim ibn Munzir Hizomiy; - Yahyo ibn Qaza`a;
4.	Basrada	- Abu Osim Nabil; - Savfon ibn Iso; - Badal ibn Muhabbar; - Haram ibn Hafs.

5.	Kufada	- Abu Nu`aym Fazl ibn Dukayn;</li> <li>- Tolq ibn G`anom; - Ahmad ibn Ya`qub; - Ubaydulloh ibn Muso;
6.	Bag`dod da	- Ahmad ibn Hanbal; - Surayj ibn Nu`mon;</li> <li>- Muhammad ibn Sobiq;</li> <li>- Muhammad ibn Iso Tabbo`;
7.	Shomda	- Muhammad ibn Yusuf Firyobiy; - Abu Nasr Ishoq ibn Ibrohim; - Hayot ibn Shurayh; - Odam ibn Abu Ilyos; - Hakam ibn Nofe`;
8.	Misrda	- Ahmad ibn Shabib; - Usmon ibn Solih; - Asbag` ibn Faraj;</li> <li>- Sa`id ibn Abu Maryam
9.	Balxda	- Makkiy ibn Ibrohim; - Yahyo ibn Bishr Zohid; - Muhammad ibn Abon; - Qutayba ibn Sa`id;</li> <li>- Hasan ibn Shujo`;
10.	Marvda	- Ali ibn Hasan ibn Shaqiq; - Muhammad ibn Muqotil; - Abdon ibn Usmon;
11	Naysoburd a	- Ishoq ibn Ibrohim Hanzaliy; - Muhammad ibn Yahyo Zuhliy; - Yahyo ibn Yahyo Tamimiy; - Ahmad ibn Hafs; - Bishr ibn Hakam;
12.	Rayda	- Ibrohim ibn Muso
13.	Hirotda	- Ahmad ibn Abdulloh Hanafiy

Keltirilgan tahlillardan shuni aytish mumkinki, Imom al-Buxoriy ilm yo'lida makon tanlamasligi, ustozlaridan puxta o'zlashtirganligi, hadislarning sahih va nosahihga ajratishda bir necha manbalarga murojaat qilganligi olimning naqadar ilm yo'lidagi mashaqqatlarini ko'rsatib beradi. Bu esa bugungi kunda yoshlarning, jumladan, bo'lajak o'qituvchilarning ilm o'rganishga bo'lgan munosabatini

o'zgartirishga, ularda bilim olishga nisbatan yuzaki qaramaslikni o'rgatishga ham xizmat qilishini ta'kidlash lozim.

Imom al-Buxoriy asarlarida keltirilgan hadislarining pedagogik, psixologik va metodik imkoniyatlaridan samarali foydalanish asosida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqishda tadqiqot ishida mutafakkirning keng merosidan foydalanildi.

Shunday qilib, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish bugungi axborotlashgan jamiyat oldidagi muhim masalalardan biri bo'lib, bu masalalarni ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish bilan birgalikda, milliy o'zligimizni aks ettiruvchi qadriyatlarimiz, milliy ta'lim usullarimiz, milliy tarbiya metodlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada Imom al-Buxoriyning boy merosi, allomaning hadis ilmi borasidagi ishlarini tatqiq etish orqali ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilishning didaktik imkoniyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Mutaffakkir merosini zamonaviy o'qitish shakllari va usullari asosida talabalar ongiga singdirish, ularda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini tadbqiq etish muhim ahamiyatga ega.

§1.2. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va metodik xususiyatlari

Bugungi kunda yosh avlod shu jumladan, "talabalarda milliy iftixor tuyg'usini, vatanga bo'lgan muhabbatini va shu Vatanda tug'ulib o'sayotganidan faxrlanish tuyg'usi qanchalik kuchli bo'lsa, Vatanimiz mustaqilligi shunchalar barqaror va mustahkam bo'ladi. Hozirgi vaqtda yurt tinchligini saqlash istiqbol sari ishonch bilan borishda yosh avlodning ma'naviy ruhini milliylik bilan shakllantirish asosiy yo'nalishlardan biridir" [84. 21-b].

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy

maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Bu borada, tadqiqotchi olim D. Ro'ziyeva o'z ilmiy izlanishlarida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni asoslab, quyidagicha ta'kidlaydi:

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda quyidagi omillar ustuvor o'rin tutadi:

I. Sub'yektiv omillar:

- jamiyatda sog'lom muhitning qaror topganligi, shaxsning o'zligini anglashiga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rin tutishi;

- kishilik munosabatlarining yangicha mazmun kasb etishi;

- milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ularni boyitish yo'lida muayyan harakatlarning tashkil etilishi;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish;

- ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, demokratik g'oyalarning aks etilishi;

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishiga erishish;

- shaxs ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish;

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga e'tiborning qaratilganligi;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda talabalarining istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish; talabalarda milliy iftixorni anglash ehtiyojining yuzaga kelganligi;

- talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zgalarga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning kuchlariga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarining ko'rilganligi;

- oliy ta'lim muassasalarining talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning mukammal tizimi (mazmuni, shakl, metod va vositalari) ning yaratilganligi; - oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish andozasining yaratilganligi va hokazolar.

II. Ob'yektiv omillar:

- oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi;

- shaxsda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi g'oyalar singdirilgan o'quv manbalari (o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar) ning yaratilganligi;

- oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie va kompyuter) xizmatidan foydalanishning yo'lga qo'yilganligi va boshqalar [83].

Muammoga oid manbalarni o'rganish, shaxsda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayoni quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi degan xulosaga kelish imkonini berdi:

1.2.1-jadval

1.	Milliy mansublik	- shaxsning muayyan millat vakili ekanligini ifodalovchi holat, maqom. Mazkur tushuncha shaxsning nasabini ham ifodalashga xizmat qiladi. Zero, ota-ona yoki sulolaning qanday millat vakili ekanligi farzandlarda ana shu millatga xos xususiyatlarning namoyon bo'lishini kafolatlaydi. Milliy mansublikni belgilashda onaning maqomi muhim ahamiyatga ega. Qadimdan o'g'il bolalarning farzandlari ma'lum urug' yoki sulolaning davomchilari, qizning farzandlari esa begona urug' yoki sulolaning nasli sifatida baholanib kelingan. Shu sababli o'g'il uylantirishga jiddiy e'tibor qaratilgan va kelinlikka ana shu sulolaga munosib qiz tanlangan. Zamonaviy sharoitda ham dunyoga kelgan chaqaloq uning onasi mansub bo'lgan millat vakili maqomini oladi [26. 156-b].
2.	Milliy tuyg'u, ruhiyat (milliy psixologiya)	- sub'yektning ob'yektga bo'lgan muhim munosabati, mazkur munosabat mazmunida aks etuvchi xususiyat bo'lib, u ijtimoiy munosabatlar, shaxsning atrof-muhitga ta'sirida namoyon bo'ladi. Milliy tuyg'uga ega shaxs o'zini millat vakili ekanligini his eta olishi, u kechiradigan turmush tarzi

		millatdoshlariniki bilan uyg'un bo'la olishi lozim [27. 18-b].
3.	Milliy xarakter	- millat vakillari ruhiyatida aks etuvchi barqaror psixik xususiyatlar birligi bo'lib, u ham ijtimoiy borliqqa munosabatda aks etadi. Millat vakillarining turmush tarzi, ijtimoiy maqsadlari, hayotiy faoliyatlari hamda ruhiy kechinmalarining yaxlitligi milliy xarakterga xos yetakchi psixik xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi.
4.	Milliy ong	- muayyan millatga mansub kishilar tomonidan milliy qadriyatlarga tayangan holda ijtimoiy munosabatlar hamda hayotiy faoliyatlarni samarali tashkil etishga nisbatan ongli yondashuv darajasi sanaladi. Falsafiy manbalarda "milliy ong" tushunchasiga shunday ta'rif beriladi: "millatning yagona tili, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlari va ma'naviyatining pastdan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanib borishining muhim mezonini hisoblanadi. O'z navbatida milliy ongning rivojlanib borishi har bir millatning o'z-o'zini anglash darajasiga qaratiladi" [69. 94-b].
5.	Milliy o'z-o'zini anglash	- har bir millat (elat)ning o'zini real mavjud sub'yekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchisi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikni tushunib yetishlaridir. Milliy o'z-o'zini anglash millatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni va uning umumiy taraqqiyotiga ta'sirining munosib baholanishiga xizmat qiladi.
6.	Milliy g'urur	- har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyati. Bu tuyg'u o'z ona zamini, ajdodlar tomonidan qoldirilgan moddiy-ma'naviy merosdan, o'z millatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalaridan o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, oru-e'tibori bilan faxrlanish hissiyotidir. Milliy g'urur har bir insonda o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini o'zlashtirish, urf-odatlarini, an'analar, qadriyatlari, tarixini mukammal bilish va uni o'zga millatlar bilan qiyoslash natijasida shakllanadi hamda unda o'z millatiga mehr-muhabbatini oshirib boradi". Milliy g'ururga egalik millat vakili sifatida o'zi mansub bo'lgan millat tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida qo'lga kiritilgan yutuqlardan, millatning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan faxrlanishnigina ifodalab qolmay, balki milliy taraqqiyot, millat taqdiri va istiqboli uchun kurashish, bu borada chuqur mas'ullikni xis etish hamdir.
7.	Milliy iftixor	- milliy g'urur tuyg'usiga egalikning yuqori bosqichi bo'lib, u millatning "yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda xis qilishidir". Milliy iftixor tuyg'usiga egalik, shuningdek, millatning kishilik taraqqiyoti tarixida tutgan o'rni, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan munosib hissasini, qadr-qimmatini, oru-e'tiborini munosib baholay olish, millat istiqboliga bo'lgan ishonchga egalikni ham ifodalaydi.

Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning mantiqiy ketma-ketligi

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda ijtimoiy muhit va uning mazmuni o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero, talabalarning umumiy shakllanishiga ta'sir etgani kabi ularda milliy iftixor tuyg'usining qaror topishida ijtimoiy ta'sirlar yetakchi o'rin tutadi.

A. Ibrohimov, X. Sultonov va N. Jo'rayevlarning fikrlariga ko'ra "shaxs g'ururi – bu faxr", "milliy g'urur – bu iftixor" bo'lib, ular garchi bir-birlariga yaqin ma'nolarni anglatmada, bir vaqtning o'zida bir-biridan ma'lum darajada farqlanuvchi tushunchalar ekanligi ta'kidlanadi. Bu o'rinda quyidagi fikrni ilgari suradilar: "Milliy iftixor millat o'zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o'rin oladi". "Milliy iftixor tuyg'usi – o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniy va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi – o'zligini anglash va o'zgalarni tushunishga da'vat etuvchi qudratli kuch" [70. 30-b].

Ko'rinib turibdiki, mualliflar bu o'rinda g'urur tushunchasini shaxsga, iftixor tushunchasini millatga xos tuyg'u sifatida e'tirof etadilar. Aynan mana shu holat ular o'rtasidagi farqni ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi. Har ikki tushunchaga berilgan ta'rifdan g'urur tushunchasi individuallik, iftixor tushunchasi esa ijtimoiylik xususiyatiga ega bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Bu tuyg'u shaxsda quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq bo'lmaslik;
- xalqi, millatining taqdiri uchun jonkuyar bo'lish;
- o'z millatining moddiy-ma'naviy merosini asrab-avaylash;
- xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish to'g'risida qayg'urish;
- xalqi, millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Milliy g'urur, milliy iftixor o'zi mansub bo'lgan millat, xalqning ravnaqi, taraqqiyoti uchun kurashishnigina emas, shu bilan birga o'zga millatga mansub kishilarga hurmat-ehtirom ko'rsatishni taqozo qiladi. Bunday tuyg'uga ega ma'naviy yetuk kishi milliylikni millatchilikdan, haqiqiy milliy g'ururni millatparastlikdan farqlay oladi, boshqa millat vakillarining izzat nafs va g'ururini kamsitmaydi. Shuningdek, milliy g'urur va iftixor tuyg'usiga ega insonda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi shakllanadi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usining rivojlanishiga asos bo'luvchi omil – bu, milliy o'z-o'zini anglashdir. Milliy o'z-o'zini anglash, millatning rivojlanish va taraqqiyot tarixini yaxshi bilish, taraqqiyotning turli bosqichlarida erishilgan yutuqlar va muvafaqiyatlar asosini to'g'ri talqin eta olish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglay olish, ijobiy milliy xususiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lish, salbiy xislatlar (masalan, mustaqil fikrga ega bo'lmaslik, ota-ona yoki yaqinlarga tobe bo'lib yashash, o'ta andishalilik, qat'iyatning yetishmasligi) ni ko'ra olish, milliy madaniyatning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini yetarli darajada baholash, Vatan taqdiri uchun befarq bo'lmaslik, uning istiqbol va istiqboli uchun kurashish demakdir.

Shuningdek, mamlakatimiz ta'lim tizimining maqsad va mohiyatidan kelib chiqib shuni e'tirof etish mumkinki, o'quvchilar ongiga mustaqillik g'oyasini mustahkamlash, xalq va millat bilan fahrlanish, milliy iftixor tuyg'ularini singdirishda “pedagog-talaba”, “tarbiyachi-tarbiyalanuvchi” munosabatlarida mamlakatda ozod va obod Vatanni, erkin va farovon hayotni barpo etish bevosita ta'lim oluvchilarga bog'liq hisoblanadi. Eng asosiysi, buni amalga oshirish uchun esa ta'lim jarayonida ularning kishilik jamiyatida taraqqiyoti va ravnaqini ta'minlash, shuningdek, ular tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o'zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi, ya'ni Imom al-Buxoriyning boy ma'naviy merosini o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj hamda qiziqishni qaror toptirishga e'tibor qaratish lozim. Bu yo'lda o'qituvchining talabalarga yetkazadigan ma'lumotlari mazmuni va uni didaktik nuqtayi nazardan qanday berilishi ham muhim hisoblanib pedagogikada asoslangan.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiluvchi imom al-Buxoriyning boy me'rosidan foydalanishning shakllari:

- kitoblarda bayon etilgan bo'lishi;
- matnga oid maxsus ko'rgazmali qurollar bo'lishi mumkin.

Ikkala holatda ham yozma nashr shakli nazarda tutilib, chunki bu holatda ko'pchilikka manfaatli ma'lumotlar qo'ldan qo'lga o'tadi, o'z auditoriyasini kengaytirishi qulay bo'ladi; o'z ta'sirini kuchaytirish uchun kitobiy matnlar yoki milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi ko'rgazmali qurollar qayta-qayta o'qilishi bilan birga yod olinishi mumkin.

Imom al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda ta'lim jarayonida bilimlarni egallashning yangi konsepsiyasi — zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining turli xil ko'rinishlarini qo'llash juda yaxshi samara berib kelmoqda. Bunda ta'limning yangi metodlardan foydalanishda talabalarning intellektual, erkin fiklashni rivojlantirish, o'z fikrini asoslab berishga intilishi, o'zgalar fikrini tinglay olishi, muammolar yechimini topishga harakat qilishi, tarixiy yodgorliklarni asrab avaylash, ijodiy va axloqiy taraqqiyoti jarayonlariga samarali ta'sir etadi.

O'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim metodlaridan foydalanganda, avvalo, bu metodlardan foydalanishning o'rni, ularning samaradorligini bilishlari muhimdir. Buning uchun har bir malakali pedagog hayotiy tajribaga ega bo'lgan, yetarli bilimlar bilan qurollangan, o'quvchilarga nisbatan muammolarning yechimini oldindan hal eta oladigan va ularni ta'lim oluvchilarga yetkazish malakasiga ega bo'lishi lozim. Shu bilan birgalikda innovatsion texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyatlar yaratib beradi.

Bugungi kunga kelib, bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirishga va o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil baholashga qodir va zarur qarorlar qabul qila oluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta'lim

muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari – interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning nazariy va amaliy ahamiyati beqiyosdir. Ta'lim jarayonida allomalarning qoldirib ketgan me'roslaridan foydalangan holda, yoshlarga bilim berish eng yaxshi samarali usullardan biri bo'la oladi deb ishonch bilan ayta olamiz.

Yurtimizda yashab ijod etgan buyuk alloma va mutafakkirlarning bebaho ilmiy-ma'naviy merosini tadqiq qilish, ular qoldirgan asarlarni ilmiy-izohli tarjima qilib, ommalashtirish hamda xorijiy davlatlardagi kutubxonalar, arxiv fondlarida saqlanayotgan qo'lyozmalarning elektron nusxalarini to'plab, yoshlarimizga yetkazish dolzarb masalalarga aylangan edi. Albatta, bunday meroslarimiz hozirgi davrda va bundan oldingi davrlarda ham anchagina bo'lgan. Chunki O'zbekiston "Buyuklar yurti" deya ta'riflanadi. Ayniqsa, din borasida ham dunyoviy bilimlar borasida ham ma'naviy-madaniy, tarixiy-ilmiy meroslarimiz anchagina.

Imom al-Buxoriy asarlariga to'xtaladigan bo'lsak, Imom al-Buxoriyni umuman tanimaydigan, hatto ismlarini ham eshitmagan odamda Imom al-Buxoriy haqida qandaydir tushuncha hosil bo'ladi. Imom al-Buxoriyning ko'plab hadislarini, rivoyatlari pedagogika sohalarida katta ahamiyatga egadir. Chunki, o'qituvchilar bolaning ta'limini ham, tarbiyasini ham birdek olib boruvchi shaxslardir. Shu sababli, pedagoglar bolani tarbiyalashda Imom al-Buxoriyning rivoyatlariga va hadislariga murojaat qiladilar. Bolaning ma'naviyatini yuksaltirishda va komil inson qilib tarbiyalashda Buxoriy ta'limotlaridan foydalanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 14-15- aprel kunlari Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi chog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi qoshida xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini qurish taklifini bildirib, shunday degan edi: "Buyuk mutafakkir bobomiz, barcha muhaddislar peshvosi Imom Buxoriy mangu qo'nim topgan ushbu maskanda o'ziga xos ma'naviy-ruhiy muhit mavjud. Majmuaga ziyoratga kelgan odam bu markazga ham kirib, o'ziga katta ozuqa olsin, bobolarimiz hikmatlaridan o'rganib ketsin.

Shunda ularning qalbida ulug‘ ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usi rivoj topadi, ayni paytda shunday buyuk zotlarning avlodi mas’uliyatini his etadi” [106].

Demak, hadislar mazmunan har bir mo‘minning ishonchini, e’tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan birga insonni ma’naviy kamolotga da’vat etadi. Shunday ekan, hadislar komil insonni shakllantirishda, me’roslarni ardoqlashda, milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda muhim manba bo‘lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Oliy ta’lim muassasasida yoshlarning ruhiyatiga xos sifatlarni atroflicha o‘rganish, tizimlashtirish va muayyan xulosalar chiqarish taqozo etiladi. Ma’rifiy ishlarda xalq tarbiyashunosligi tajribalarini g‘oyat sinchkovlik bilan o‘rganib, umumlashtirish lozim bo‘ladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchining tabiiy moyillariga, imkoniyatlariga tayangandagina maqsadga erishadi. Inson tabiatidagi kamolotga, takomillashuvga, rivojlanishga bo‘lgan moyilliklar oqar suvga o‘xshash xususiyatga egadir. Suvga oqishni o‘rgatish shart emas, uni boshqarish, oldining to‘silib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Xuddi shuningdek, inson fe‘l-atvoriga ezgu insoniy fazilatlar ham tashqaridan keltirilmaydi, kamolotga moyillik, avvalo, inson tabiatining o‘zida mavjud bo‘lishi kerak.

Asrlar davomida xalqning ma’naviy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlarda ilgari surilgan ilg‘or g‘oyalarni o‘z ongida yaxlit shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oila, xalq va jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan shaxs ma’naviy madaniyatli hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy ma’naviyat va qadriyatlardan to‘la bahramand bo‘lmagan, ona tilini yaxshi bilmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli ravishda hissa qo‘shmagan inson ma’naviy qashshoqdir. Ma’naviy qashshoqlik esa xalqni, millatni, umuman jamiyatni tanazzulga olib boradi. Ma’naviy madaniyat manbalarini o‘rganish, ularda ilgari surilgan g‘oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyat har bir a’zosining Vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Ma'naviy qadriyatlarning talabalar ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi ustuvorligi shundaki, ma'naviy qadriyatlar insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tafakkuri, orzu-istagi, e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi. Talaba-o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirish metodologiyasi ma'naviy ong va tafakkurni, milliy mustaqillikni amalga oshirish va rivojlantirish jarayonini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, hayot jarayonida adolat, insonparvarlik, o'z-o'zini anglashni va jahon ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini, umuminsoniy, milliy, madaniy, ma'naviy qadriyatlarni uyg'un holda o'zlashtirish mahoratini shakllantirishga xizmat qilmog'i darkor.

Yangicha yondashuv asosida talabalarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda asosiy yo'nalish beruvchi metodologiya asosida ish olib borilsa, berilayotgan ta'lim-tarbiya o'z samarasini beradi. Bunda quyidagi pedagogik-tashkiliy shart-sharoitlarga e'tibor berish kerak:

- har bir talabaning xatti-harakatida, xulq-atvorida umuminsoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirish, talabani mustaqil fikrlashga o'rgatgan holda ularga milliy, umumbashar yo'llanma berish, talabaning madaniy qadriyatlar orqali jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishini ta'minlashda to'g'ri ko'rsatma berish;

- yoshlar o'zligini chuqur anglashini, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishini, milliy tafakkurning kengayishi va takomilini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishiga erishish;

- mamlakat aholisini istiqlool g'oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va olijanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga mo'ljallangan targ'ibot-tashviqot ishlarining strategiyasini belgilash, shuningdek, harakat uslublari ustida ishlash va amalga oshirish;

- barcha ta'lim-tarbiya muassasalari, aholi turar joylari va ishlab chiqarish sohalarida ma'naviy-ruhiy muhitning ahvolini, ommaning kayfiyatini, intilish va muddaolarini hisobga olgan holda ijobiy an'ana va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, mavjud muammolarni, ularning ijtimoiy-siyosiy muhitga ta'sirini tahlil qilish va bartaraf etish choralari hayotga tatbiq etish;

- ma'rifiy targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg'unligi, muntazamliligi, haqqoniylikka asoslanishini ta'minlash, ya'ni ma'ruza, suhbat, bahs-munozara, seminar va konferensiyalar o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etish yo'li bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlarning, qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar va qonunlarning mohiyatini keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazish va kundalik faoliyat dasturiga aylantirishga rahbarlik qilish;

- o'zbek xalqining ulug' mutafakkirlari qutlug' merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham muntazam va to'laqonli bahramand bo'lishiga, ularning mana shunday ma'naviyat muhitida kamol topishiga sharoit yaratish;

- milliy mafkuraning asosiy maqsadlarini xalqqa, yoshlarga sodda, haqqoniy va tushunarli tarzda yetkazish uchun el-yurt orasida obro'- e'tibor qozongan, yuksak saviyali, ko'pni ko'rgan, jonkuyar, otashin, eng muhimi haqqoniy so'zi, yorqin fikri bilan yoshlar qalbi va ongiga yo'l topa oladigan fidoyi insonlarni safarbar etish;

- o'zbek xalqining boy tarixi, ilmiy-falsafiy, madaniy va axloqiy merosiga milliy o'zligini tanish orqali yuksaltirish yo'lini bosib o'tgan peshqadam davlatlarning tajribasiga tayangan holda milliy istiqlol g'oyalarini ommaning ongi va qalbiga teran singdirish. Mustaqillik mafkurasini umummillat mafkurasiga, g'oyaviy, ruhiy va ma'naviy kuch-qudrat manbayiga aylantirish;

- yosh avlodning dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli muhabbatini shakllantirish, faol fuqarolik va fidoyi vatanparvarlik tuyg'usini kamol toptirish;

- mamlakat ozodligini himoya etish, bosqinchilarga qarshi kurashdagi buyuk ajdodlarning ibрати, o‘tmish saboqlari, mustaqillik davrida erishilgan zafarlar tahlili asosida jamiyatning har bir a‘zosi qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini uyg‘otish va tarbiyalash;
- har bir xonadonda kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat e‘tibor ustuvor bo‘lgan sog‘lom ma‘naviy muhitni yaratilish;
- jahon fani, madaniyati, jamiyatda ilg‘or andozalarga intilishlarini rag‘batlantirish orqali milliy fan va madaniyatning zamonaviy taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarilishiga yordam berish;
- xorijiy mamlakatlarning hayotida ro‘y berayotgan hodisalarning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, fuqarolarning loqayd tomoshabindan faol mushohada va teran idrok etuvchi zamon va makon farzandiga aylantirishga imkon yaratish;
- jamiyatda diniy va aqidaparastlikning barcha ko‘rinishlariga, yurtning tinchligi, osoyishtaligiga rahna soladigan, vatandoshlarimizning iymon-e‘tiqodi va ishonchiga putur yetkazadigan har qanday g‘oyalar, nazariyalar va tushunchalarga nisbatan ayovsiz kurashuvchanlik ruhi va ma‘naviy muhitni yaratish;
- jamiyatda yashayotgan barcha millatlarning o‘ziga xos jihatlari va mushtarak maqsadlarini hisobga olgan holda millatlararo o‘zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash;
- fikrlar xilma-xilligi zaminida paydo bo‘lgan ilg‘or ijtimoiy fikrlar, tashabbuslarni ommalashtirish;
- xalqning tarixiy an‘analari, xususiyatlari, milliy ong va turmush tarzining hayotiy tamoyillariga asoslangan holda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, jamoatchilikning ta‘sir kuchini jamiyat axloqiy-ma‘naviy hayotining mezoniga aylantirish;
- ma‘naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish, millatimizning o‘z-o‘zini anglashiga erishish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda ularni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- ta'lim tizimini isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish borasida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, imon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;

- milliy-ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- ekologik tarbiyani ijtimoiy-siyosiy ma'naviy tarbiyaning uzviy va uyg'un qismi darajasiga ko'tarish.

Talabalarda Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish va uni mustahkamlashga asoslangan metodik imkoniyatlar mavjud. Ushbu sohada olib borgan tadqiqotlarimizda bunday metodik imkoniyatlarni quyidagi ketma-ketlik asosida tayyorlash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi:

- oilada farzandlardagi ma'naviy sifatlarni tarbiyalash;

- oliy ta'lim muassasalarida talabalar ma'naviy sifatlari elementlarini tarkib toptirish;

- ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi interfaol – qiziqarli mashg'ulotlar mazmuniga milliy g'oya tuyg'usiga oid materiallarni integratsiyalash;

- ta'lim-tarbiya jarayonidagi dars mazmunini ma'naviyatga oid ma'lumotlar bilan boyitish;

- talabalarni milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga oid jarayonlarda mustaqil fikrlashga o'rgatish;

- o'quv adabiyotlari mazmuniga qo'yilgan ma'naviy-axloqiy talablarni qaytadan ko'rib chiqish;

- talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda donishmandlar hikmatlaridan foydalanish;

- talabalar ma'naviyatini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy asarlaridan foydalanish;

- an'anaviy ta'lim mazmuniga, milliy g'oyaga, oid bilimlarni integratsiyalash va shu kabilar.

Bildirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, milliy g'urur va milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish o'rtasidagi aloqadorlikni quyidagicha tasniflash mumkin (1.2.1-jadvalga qarang):

1.2.2-jadval

Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy g'ururning tarkib topishi va milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning o'zaro aloqadorli

Milliy g'ururning tarkib topishining psixologik-pedagogik yo'nalishlari	Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning metodik xususiyatlari
Qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish motivi	Jamiyatda sog'lom muhitning qaror topganligi, shaxsning o'zligini anglashga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rin tutishi
E'tiqodning ong bilan bog'liqliligi	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish
Tarbiyaning milliy g'ururga nisbatan talabalarimizni odatlantirish bo'yicha zamonaviy mashqlar ishlab chiqish	Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishiga erishish
Milliy g'ururni psixologik qonuniyatlari bo'yicha metodik qo'llanmalar yaratish va mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar va ota-onalarga yetkazish	Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-marifiy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi zamonaviy ilmfan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi
Milliy g'ururni tarkib toptirishning tayanch kompetensiyalarini talabalarda rivojlantirishning pedagogik talablarini ishlab chiqish	Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari-gazeta, jurnal, radio, televideniya va kompyuter) xizmatidan foydalanishni yo'lga qo'yilganligi.
Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsaepsiyasida ko'rsatilgan vazifalar bo'yicha barcha davlat va nodavlar tashkilotlari orasidagi amaliy hamkorlikni yo'lga qo'yish.	Talabalarda milliy iftixorni anglash ehtiyojining yuzaga kelganligi.

Shunga ko'ra, hozirgi kunda pedagogika fanlarini sohasida har tomonlama kamol topgan, o'zida yuksak ahloqiy fazilatlarni mujassamlashtirgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalangan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli tanlab, puxta o'zlashtirgan, jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga, turmushga moslashgan, sog'lom turmush tarzi va mehnat ko'nikmalari shakllangan, jamiyat, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi, xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi.

Shuningdek, Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda pedagogik, psixologik va metodik omillarning yetakchiligini ham inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Bu omillar yuqorida keltirilgan kompleks jihatlarni o'zida jamlagan holda ifoda etishi bilan ham xarakterlanadi. Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy hayot yo'li, asalari, pedagogik qarashlaridan foydalanish va tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi (1.2.2-jadvalga qarang).

1.2.3-jadval

Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish omillari

Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish omillari		
Pedagogik:	Psixologik:	Metodik:
oliy ta'lim muassasalarining talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning mukammal tizimi (mazmuni, shakl, metod va vositalari)ning yaratilganligi	shaxs ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish	oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishiga erishish
milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ularni boyitish yo'lida muayyan harakatlarning tashkil etilishi	talabalarda milliy iftixorni anglash ehtiyojining yuzaga kelganligi	ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda talabalarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish
milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga	talabalar jamoasida sog'lom muhitning qaror	talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda

erishish	topganligi, talabaning o'zligini anglashiga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rin tutishi	dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zgalarga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning kuchlariga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanishning metodik shart-sharoitlari
milliy ruhda tarbiyalash metodi hamda vositalari	o'zaro munosabatlarda insonparvarlik, demokratik g'oyalarining aks etilishi	shaxsda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi g'oyalar singdirilgan o'quv manbalari (o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar)ning yaratilganligi;
Talabaning xatti-harakatlarida milliy qiyofani kasb ettirish	talabalarda milliy iftixorni anglash ehtiyojining yuzaga kelganligi	milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish metodikasni modernizatsiyalash
milliy tarbiya jarayoni	milliy o'zlikni anglashga nisbatan ehtiyojni paydo qilinganligi	o'qitishning milliy yo'nalganligini ta'minlash

Shunday qilib, Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish bir qator milliy-ma'naviy, ijtimoiy, psixologik, shuningdek, pedagogik va metodik xususiyatlarga egaligi hamda o'qituvchidan ushbu jarayonni o'zaro mustahkam aloqadorligini ta'minlagan holda, ijodkorlik bilan tashkil etishni talab etadi.

§ 1.3. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda Imom Al-Buxoriy asarlarining didaktik imkoniyatlari

Sharq-u G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro,

Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir" [12]. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonida belgilangan (7 ta ustivor yo'nalish), "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida, "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish" maqsadga muvofiqligi, dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari va ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar bilan hamkorlikda, buyuk ajdodlarimizning boy -ilmiy –ma'naviy merosini keng o'rganish hamda targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir.

Jumladan, qomusiy olim, hadis ilmining namoyondasi bo'lmish Imom al-Buxoriy o'zining serqirra asarlarida ta'lim-tarbiyaga alohida ahamiyat qaratadi. U o'zining asarlarida barkamol shaxs, uni tarbiyalashning zarur chora-tadbirlari, bolalarga ta'lim berish va ularni tarbiyalash jarayonlariga oid o'zining pedagogik qarashlarini ifodalaydi. Manbalarda keltirilishicha, imom al-Buxoriy o'z ijodiy faoliyati davrida yigirmadan ortiq asarlar yaratgan. Allomaning mana shu asarlari xususida qisqacha to'xtalamiz (1.3.1-jadvalga qarang):

1.3.1-jadval.

Imom al-Buxoriy asarlari va ularning talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari

№	Imom al-Buxoriy asarlari	Asar tavsifi	Ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari
1	Al-Jomi as-Sahih (ishonchli to'plam)	Imom al-Buxoriyning shoh asari'' Al-Jome assahih ''gabag''ishlanib, arab tilida juda ko'p shar'hlr va hoshiyalar yozilgan bo'lib, ular hajm va ahamiyati jihatidan xilma-xildir. Qator manbalarda (masalan Hoji Xalifaning ''Kashf uz-zunun'', al-Qastaloniyning ''Muqaddima'', Umar Rizo	Imom Buxoriygacha o'tgan muhaddislar hadis kitoblariga barcha eshitgan hadislarini kiritar

	Kahholaning “Mu’jam al-muallifiyn” kabilar) keltirilishicha, ularning soni yuzga yaqindir. Mana shu sharhlar va ularning mualliflari haqida muxtasar ma’lumotlar keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. 1. “Sharh Ibn al-Munayyir” ning muallifi Imom Nosiruddin Ali ibn Muhammad ibn al-Munayyir al-Iskandaroniy (1296-yil vafot etgan) bo’lib, uning qalamiga mansub bu ulkan sharh o’n katta jilddan iborat. Shuningdek, imom Nosiruddin “Sahih al-Buxoriy”ga bag’ishlangan Ibn Battolning sharhiga tegishli hoshiyalar ham yozgan. 2. “Sharh Sahih al-Buxoriy”ning muallifi shomlik olim Qutbiddin Abdulkarim ibn Abdunnur ibn Muniyr al-Halabiy al-Hanafiydir (vafoti 1344 yil). O’n jilddan iborat bo’lgan bu sharh “Sahih”ning yarimigacha yetgan. Muallif imom al-Buxoriy asariga mukammal bir sharh yozishni niyat qilgan ko’rinadi, lekin, afsuski, bu sharh oxirigacha yetmay qolgan. 3. “Al-Kavokib ad-Diroriy” nomli sharhning muallifi alloma Shamsuddin Muhammad ibn Yusuf ibn Ali al-Kirmoniy (vafoti 1384 yil). Ilm ahllari uchun g’oyatda foydali bo’lgan bu sharhda muallif “Sahih al-Buxoriy”ning shu xildagi boshqa asarlardan ustunligi haqida ishonchli va yorqin dalillar keltirgan. Al-Kirmoniyning bu asari “Sahih”ga yozilgan sharhlarning eng muhimlaridan hisoblanadi. Muallif ushbu asarini 1373-yilda Makkai mukarramada yozib tugatgan. Mashhur olim Ibn Hajar al-Asqaloniyning fikricha, al-Kirmoniyning bu sharhi qator xato-kamchiliklardan ham xoli emas. Bu asar Qohirada chop etilgan bo’lib, uning qator qo’lyozmalari Qustantaniyaning kutubxonalarida saqlanadi. 4. “At-Talviyh” nomli sharh imom al-Hofiz al-Mug’ultoiy ibn Qilich at-Turkiy Alouddin al-Misriy al-Xanafiyning (vafoti 1361 yil) qalamiga mansub. Hajm jihatidan katta bo’lgan bu asar ham “Sahih”ga yozilgan muhim sharhlardan hisoblanadi. 5. Shayx al-Islom Abul-Fazl Ahmad ibn Ali ibn Hajar al-Asqaloniyning (vafoti 1448 yil) “Fath al-boriy li sharhi Sahih al-Buxoriy” nomli sharhi imom al-Buxoriyning	kiritar edi. U barcha to’plagan va yodlagan hadislaridan ishonarlilarni tanlab alohida kitob qilgan. Ushbu to’plamda tarbiya, odob-ahloq, o’zaro do’stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona, va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof-tavfiqni targ’ib qilish bilan bir qatorda razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg’onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nisbatan nafrat tuyg’ulari ham oz ifodasini topgan. Shuning uchun mazkur hadislar top’lami jamiyatimiz kishilarini, xususan, yosh avlodni ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashdek umumiy ishimizga muhim manba bo’lib xizmat qiladi.
--	--	---

		asariga bitilgan eng mo'tabar sharhdir.	
2	Al-Adab al-mufrad (Adab durdonalari)	Imom al-Buxoriyning odob-axloq xususidagi eng sahih hadislarini o'zida mujassam etgan ushbu asari katta tarbiyaviy ahamiyatga molik benazir to'plamdir. Uning arabcha nashri ikki marta bosilib, 1990-yilda esa, olim Sh. Boboxonov tomonidan asarning o'zbekcha tarjimasi ham nashr etilgan. Imom al-Buxoriyning bu asarida 1322 hadis va xabarlar 644 bobda ja'mlangan bo'lib, u Hindiston, Turkiya va Misrda bir necha marta chop etilgan. Asarning bir qancha qo'lyozma nusxalari ham saqlangan. Hindistonlik olim as-Sayiyd Fazlulloh al-Jiloni bu asarning tanqidiy nashrini sharhi bilan birgalikda "Fazlullohisamad fi tavziyihil-Adab al-Mufrad" nomi bilan chop etgan.	Imom Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad" asari musulmon kishi xulqlanishi kerak bo'lgan barcha odob-axloqlar jamlanmasidan iborat kitobdir. Shunday ekan, har bir yosh avlod ushbu kitobni nafaqat mutolaa qilishi, balki, uni o'zlashtirib, hayotiga tadbiiq qilishi kerak bo'ladi.
3	Kitob al-kuna (Kunyalar haqida kitob)	Azaldan muhaddislar o'rtasida roviylarni qator hollarda asl ismlari bilan emas kunyalari bilan atash odat bo'lgan. Bu hol o'z navbatida roviylarni bir-biri bilan almashtirib yuborilishiga, oxir-oqibatda xatoga olib kelgan. Shu boisdan roviylarning kunyalariga bag'ishlangan imom al-Buxoriyning ushbu asari bu sohada katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu asar Hindistonda 1940-yilda chop etilgan.	
4	Kitob al-Favoid (Foydali ashyolar haqida kitob)	Imom al-Buxoriyning ushbu ta'lifi imom at-Termiziyni "Al-Jomi" nomli asarining "Kitob al-manoqib" qismida zikr etilgan. Olim Muhammad Jamoluddin al-Qosimiy ad-Dimashqiy "Hayot al-Buxoriy" nomli tasnifida imom al-Buxoriyning ushbu asarini "Kitob al-Faroid" deb xato keltirgan. Asar illatli hadislariga bag'ishlangan bo'lsa kerak. Uning qo'lyozmalari haqida aniq ma'lumot yo'q.	
5	Juz' raf' al-yaddayn (Ikki qo'lni ko'tarish haqida)	Ushbu asarda namozda ikki qo'lni ko'tarishga oid hadislar ja'mlangan bo'lib qo'lni ko'tarmaslikka oid rivoyatlar bilan bahs yuritiladi. Asardagi hadislarini imom al-Buxoriydan Buxoro shahrida ta'lim olgan, uning oxirgi shogirdlaridan biri hisoblangan Mahmud ibn Ishoq al-Xaza'iy rivoyat qiladi.	
6	At-Tarix al-Kabir (Katta tarix)-Ushbu "at-Tarix"	Asarni Imom al-Buxoriy o'n sakkiz yoshida Madinai-munavvaradagi al-Masjid an-Nabaviy ("Payg'ambar masjidi")da yaratgan. Ushbu asar yozib tugatilgach	Imom Buxoriy o'zining yozishicha, u 18 yoshida At-Tarix

		imom Ishoq ibn Rohvayh katta xursandchilik bilan amir Abdulloh ibn Tohir al-Xurosoniyga uni taqdim qilaturib: “Senga harqanday kishini sehlrab qo’yadigan bir asarni ko’rsataymi?”, -deb xitob qilgan. Imom al-Buxoriyning ushbu asari Turkiyada to’qqiz jildda nashr qilingan. Asar qo’lyozmasining ba’zi qismlari Haydarobod kutubxonasida saqlanadi, u “kof” harfidan boshlanib, kitobning oxirigacha yetadi. Agar 1361-1362 hijriy (1941-1942 melodiy) yillarda sakkiz qism to’rt jildda chop etilgan. “At-tarix al-kabir” kitobi sahobalar, tobe’iynlarning izdoshlari (atbo’)dan rivoyat qilgan hadislarni to’la-to’kis o’zida qamrab olgan bo’lib, ularning ismlari alifbo tartibda joylashtirilgan. Agarki, mushtarak ismlar uchrab qolsa alifbo harflarining tartibi ular otalarining ismlariga qarab tartib berilgan.	al-Kabir asarini Madinada-Muhammad (s.a.v) payg’ambarning maqbarasida yashab turib yozgan. Imom Buxoriy “Tarixiy shaxslarning har biri haqida menda ma’lumot bor. Lekin kitobimning hajmi kattalashib ketmasin deb muxtasar yozdim”,-degan edi. Demak, bu kitob ko’plab sahobalar va tobe’inlar haqida qimmatli ma’lumotlar beradi.
7	At-Tarix al-avsat (O’rta tarix)	Bu kitobni Imom al-Buxoriydan Abdulloh ibn Abdusallom al-Haffof va Zanjaviyh ibn Ahmad al-Lubod rivoyat qilganlar. Ushbu asarning bir qo’lyozma nusxasi Hindistonning Haydarobod shahrida saqlanishi zikr qilinadi.	
8	At-Tarix as-sag’ir (Kichik tarix)	Imom al-Buxoriyning bu asari ham hadis tarixiga oid qimmatli asardir. Imom al-Buxoriy bu asarida mashhur sahobalar, tobe’iynlar va tobe’iynlarning izdoshlarini zikr qilgan bo’lib, ularning vafot etgan yillari, naslu nasablarini, ularning o’zaro muloqotlarini bayon qiladi, ko’p hollarda noqis (jarh) va isloh qilinganlarini ham qayd etadi. Muallif o’z asariga yilma-yil tartib berib, agar bir sanani tugatsa, u sanada vafot etgan mashhur shaxslarni, sodir bo’lgan boshqa muhim ishlarni zikr etib, undan so’ng keyingi sanani boshlaydi. Bu asar Hindistonda va Qohirada nashr etilgan.	Imom Buxoriyning “At-Tarix as-sag’ir” asari “At-Tarixul-kabir” kitobining bevosita davomi bo’lib, hadis ilmiga oid muhim manba sanaladi. Unda uch minnga yaqin roviyning nasabi va tarjimai holi haqidagi ma’lumotlar jamlangan. Asar hadislarning sanadlari bilan, ishonchli roviylardan keltirilgani,

			roviylar haqidagi malumotlarni ham berilgani hamda roviylar tartibi va sanalari va qaysi yilda vafot etganiga ko'ra tartib bilan bayon etilgani bilan boshqa asarlarda ajralib turadi.
9	“al-Jomi al-kabir” (Katta tarix)	Asar xususida ba'zi manbalarda zikr qilinsa-da, bu asar haqida batafsil ma'lumotga ega emasmiz, asarning ayrim qo'lyozma nusxasi saqlanganligi haqida ba'zi taxminlar bor. “Kashf az-zunun” asarida ham shu tarzda ma'lumot bilan chegaralangan.	IX asr islom olimi Muhammad ibn Ismoil Buxoriyning ilmi rijol yo'nalishidagi kitobi.
10	Xalqu af'olil ibod (Olloh bandalari ishlarining yaratilishi)	Sahobalar va tobe'iyinlar „Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarga tayanib soxta guruhlariga raddi javob qilishi hadisshunoslik tarixida mavjud edi. Ushbu kitobning maqsadi ham shu yo'nalishda. Imom al-Buxoriydan bu asarni Yusuf ibn Rayhon ibn Abdussamad al-Firabiy rivoyat qilgan. Imom al-Buxoriyning bu asari 1958-yilda Makkai Mukarramada va 1886-yilda Hindistonda nashr etilgan.	Bu kitobni imom Buxoriy rahimahulloh nima sababdan yozganliklari, asosan aqida masalasidir. O'n ikki bobdan iborat ushbu asar noto'g'ri e'tiqoddagi oqimva firqalarning g'oyalariga qarshi raddiya sifatida keltirilgan dalillarni qamrab olganligi ilan alohida kasb etadi. yoritib berilgan.
11	Kitob az-zuafo as-sag'ir (Zaif roviylar haqida kichik kitob)	Bu asar “Kitob az-zuafo” nomi bilan ham zikr qilinadi. Muallif bu asarida zaif roviylarning ismlarini alifbo harflari tartibida keltirgan. Aksar hollarda zaiflikning sabablari roviyning ustozlari zikri bilan birga bayon qilinadi. O'ta diqqat e'tibor bilan bu kitobda roviylarning nuqsonlari va qusurlari ko'rsatilib, ular rivoyatning zaiflik negizlarini aniqlashga imom al-Buxoriy katta xotiyotkorlik va zo'r mas'uliyat bilan ish tutgan. Allomaning bu	“Kitobuz zuafo as-sag'ir” (“Zaif roviylar haqida kichik kitob”) asari darajasi zaif deb topilgan roviylarni aniqlash, ummatni bunday hadislardan hukm olishdan asrash

		asari 1885-yilda Hindistonda chop etilgan.	maqsadida yozilgan ilk kitobdir. Unda 418 ta roviy haqida ma'lumot berilgan. Asar alfavit tartibida yozilgan bo'lib, unda roviylar haqida qisqa va aniq ma'lumotlar keltirilgan. Kitob hadis ilmi bilan shug'ullanadigan tor doiradagi mutaxassislariga mo'ljallangan.
12	“al-Musnad al-kabir” (Katta musnad)	Asar yozilgan bo'lsa-da, uning bizgacha yetib kelgani haqida aniq ma'lumot yo'q. Lekin uning bir qo'lyozma nusxasi ikkinchi jahon urushidan oldin Olmaniyada saqlanganligi haqida taxmin qilinadi.	
13	“At-Tafsir al-kabir” (Katta tafsir)	Asari haqida allomaning shogirdlaridan biri al-Firabiy zikr qilgan. Nemis sharqshunosi Karl Brokelmanning yozishicha, bu asarning bir qo'lyozma nusxasi Jazoirda, yana bir nusxasi Parijda saqlanar ekan.	
14	“Kitob al-Hiba” (Xayr-ehson haqida kitob)	Imom al-Buxoriyning bu kitobi haqida allomaning shaxsiy kotibi Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq: “Imom al-Buxoriy xayr ehson haqida bir kitob ta'lif etdilar, unga besh yuzga yaqin hadis kirgan”, -deb yozgan. Lekin, afsuski bu asarning biron-bir qo'lyozma nusxasi bizgacha yetib kelganligi ma'lum emas.	
15	“Asomiy as-sahoba” (Sahobalarning ismlari)	Imom al-Buxoriydan avval biron muallif ushbu (“Asomiy as-sahoba”) mavzusida kitob yozgani ma'lum emas. Imom al-Buxoriydan keyin esa Ibn Munda, Ibn Abdulbir, Ibn al-Asir, al-Hofiz ibn Hajar al-Asqaloni va ulardan boshqa qator mualliflar sahobalarning ismlari, ularning siyratlari va ular solnomalari haqida asarlar yaratgan. Kezi kelganda aytish kerakki, bu juda muhim mavzu bo'lib, uning ilmiy ahamiyati kattadir. Ushbu asarning bir qo'lyozma nusxasi Ikkinchi jahon urushidan oldin Olmoniyada saqlanganligi haqida ma'lumotlar bor.	
16	“Kitob ul-vuhdon”	Alloma ushbu “Kitob al-vuhdon” asarida	

	(Yagonalar haqida kitob)	faqat bir hadis rivoyat qilgan sahobalarni zikr qiladi. Imom al-Buxoriy bu sohada ham birinchilardan bo'lib asar yaratgan. Undan keyin imom an-Naso'iy ham (ayni shu tarzda) "Kitob al-vuhdon" nomli asar yaratgan, shuningdek al-Buxoriyga taqlid qilib imom Muslim ham "Kitob al-vuhdon" nomli asar yozgan. Imom al-Buxoriyning bu asari ham bizgacha yetib kelganligi hozircha ma'lum emas.	
17	"Kitob al-Mabsut" (Mufasssal kitob)	Asar haqida olim al-Xaliliy "al-Irshod" nomli asarida zikr qilgan. Asarni Imom al-Buxoriydan Muhiyb ibn Salim rivoyat qilgan bo'lib, uning mavzui haqida aniq yozilmagan. Lekin faraz qilish mumkinki, Imom al-Buxoriy ushbu asarida hadislarini chuqur tadqiq etish natijasida fiqhiy masalalarni batafsil bayon qilgan bo'lsa kerak. Asarning qo'lyozma nusxasi Ikkinchi jahon urushidan avval Olmoniyada bo'lganligi zikr qilinadi.	
18	Kitob al-Ilal (Illatli hadislar haqida kitob)	Illatli hadislarini bilish g'oyatda nozik va muhim bo'lib, ushbu ilmni idrok etish uchun muallif keng ko'lamda ma'lumotga ega bo'lishi va g'oyatda iqtidorli bo'lishi talab qilingan. Ehtimol, Imom al-Buxoriyning "Kitob al-ilal" nomli asari ushbu mavzuga bag'ishlangan dastlabki asarlardan biri bo'lishi mumkin.	
19	Birr al-volidayn (Ota onaga mehr-muhabbat)	Manbalarda ta'kidlanishicha, bu asarni imom al-Buxoriydan Muhammad ibn Dallaviyx rivoyat qilgan. Asarning nomidan ham uning mazmun-mohiyati ma'lum bo'lgan bilan allomaning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan hisoblanadi.	Bu asar o'z ichiga 76 ta xadisni jamlagan. Ushbu asar oilalarda, jamiyatda, ota-onalar orasida va ota-onalar va farzandlar orasidagi munosabatlarni tartibga solishda axloqiy xizmat qiladi. Bir farzandni ota-onasiga nisbatan munosabatini, bayonini, sifatini, axloq doirasini muomala san'atini ko'rsatib bergan.
20	Kitob al-ashribati	Ushbu asar haqidagi qisman ma'lumotlar	

	(Ichimliklar (sharbatlar) haqida kitob)	ad-Doruqutniyning “al-Mu’talaf va al-Muhtalaf” nomli kitobida keltirilgan. Asar bizgacha yetib kelmagan bo’lsa kerak.	
21	Qazoyo as-sahoba vat-tob’yeiyn (Sahobalar va tobe’iynlar hukumlari)	Nomli asarini Imom al-Buxoriy 827/212 hijriy sanada “at-Tarix al-kabir” (“Katta tarix”) asaridan ham oldin tasnif qilgan. Sahobalar va tabe’iynlar haqidagi qimmatli ma’lumotlarni, ular to’g’risidagi amaliy munosabatlarni o’zida mujassam qilgan ushbu asar, ming afsuski, bizgacha yetib kelmagan.	
22	Kitob ar-Riqoq (Nafosat haqida kitob)	Imom al-Buxoriyning ushbu asari haqida juda oz ma’lumotga egamiz. Olim Hoji Xalifa bu asar haqida qisqagina “Al-Buxoriyning “Kitob ar-Riqoq” asari hadis kitoblaridan biri” -degan iboradan boshqa hech qanaqa ma’lumot keltirmagan. Aftidan, allomaning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan.	
23	“Al-Jomi’ as-sag’ir fil-hadis” (Hadis haqida kichik to’plam)	Imom al-Buxoriyning ushbu asari haqida Hoji Xalifa: “Bu asarni imom al-Buxoriydan Abdulloh ibn Muhammad al-Ashqar rivoyat qilgan”, -deb yozgan. Shayx Al-Muborakfuriyning yozishicha, al-Hofiz ibn Hajar: “bu imom al-Buxoriyning mavjud asarlaridandir, -deb ta’kidlagan. Ikkinchi jahon urushidan oldin bu asarning bir qo’lyozmasi Olmoniyada bo’lganligi taxmin qilinadi.	
24	Al-Qiroatu xalf al-imom (Imom orqasida turib o’qish)	Imom al-Buxoriyning qalamiga mansub bu mashhur risolada hadislar va boshqa manbalarga tayanilgan holda imomning orqasida turib qiroat qilish mumkinligi isbot qilingan. Ushbu asarida Imom al-Buxoriy o’zi qo’llagan nafis uslub orqali o’zi bilan munozara qilganlarga o’rinli javob qilganligi ham tahsinga sazovor. Imom al-Buxoriyning bu asari bir necha yil ilgari Qohirada, undan keyin Hindistonda chop etilgan.	

Ko’pgina manbalar va tarix kitoblarida Imom al-Buxoriyning aql-zakovati va quvvai-hofizasini sinash maqsadida qilingan imtihon (sinov) xususida aniq ma’lumotlar zikr qilingan. Darhaqiqat, bunday jiddiy bir imtihon Bag’dodda Dor ul-xilofat (Xalifalik uyi)da Bag’dod ulamolari tomonidan uyushtirilgan. Bag’dodlik olim Abu Bakr al-Kaluzoniy (vafoti 249 hijriy yil) “Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyga o’xshash hech bir olimni ko’rmadim. Biror ilmga oid har

qanday kitobni olib sinchiklab mutolaa qilardi-da, unda keltirilgan barcha hadislarni bir martaning o'zidayoq yodlab olardi" [20], - deb, yozgan.

Qachonki, Imom al-Buxoriy hadis ilmi bo'yicha mukammal ilmga ega bo'lib ilmiy majlislar uyushtirib, saboq bera boshlagach va uning bu tarzda majlislarining dovrug'i har tarafga tarqab, el orasida yoyilgach, ilm toliblari-yu, ahli donish uning saboqlariga shunchalik ko'p yog'ilib kela boshladiki, hatto majlislariga odamlar sig'may ketardi. Bu tartibdagi ilmiy majlislar bir qancha-Basra, Bag'dod, Hijoz, Balx kabi shaharlarda uyushtirilib, alloma umrining oxirlarida o'z vatani Buxoroda ham hadislardan dars bergandi.

Imom al-Buxoriy Islom olami va muhaddislar orasida "Imom ul-Muhaddisiyn" (Barcha muhaddislarning peshvosi) deb hurmat bilan tilga olinadi. Imom al-Buxoriyning "Al-Jomi' as-Sahih" (Ishonarli to'plam) asari haqida so'z ketganda shuni aytish mumkinki, mazkur manba Islom dini ta'limotida Qur'oni karimdan keyin asosiy manba sifatida foydalaniladi. Imom al-Buxoriy yashagan davrdan oldin ta'lif etilgan hadis kitoblarida sahih va g'ayri sahih hadislar aralash holda berilgan bo'lib, o'quvchi ulardagi biror hadisni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini, hadis rivoyat qiluvchining ahvolini tekshirmay va aniqlamay turib, bilolmasdi. Buning uchun o'quvchi o'sha hadisga aniqlik kiritish maqsadida ulamolardan so'rashga majbur bo'lardi.

Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" kitobiga mashhur olimlar tomonidan yuzdan ziyod sharh va xoshiyalar bitilgan. Jumladan, "Fathul-Boriy", "Al-Kavkab ad-Daroriy", "Irshodus-Sariy", "Umdat al-Qoriy", "Fayzul Boriy" va boshqa ko'plab sharhlarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan tashqari, Imom al-Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad" (Odob durdonalari), "Birr ul-Volidayn" (Ota-onani hurmat qilish), "At-Tarix al-Kabir" (Katta tarix), "At-Tarix al-Avsat" (O'rtacha tarix), "At-Tarix as-Sag'iy" (Kichik tarix), "Al-Jome' al-Kabir" (Katta hadislar to'plami), "Kitab al-Ilal" (Nuqsonli hadislar kitobi), "Kitab al-Kunya" (Hadis roviylarining taxalluslari) kabi yigirmadan ortiq asarlarlari mavjud. Imom Buxoriyning ijodiy merosi o'zining hajmi, zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to'la-to'kis qamrab olganligi bilan kishini hayratga soladi [17].

Ma'lumki, tarixan g'oyatda qisqa muddatda nozil bo'lgan Qur'oni karim oyatlari ba'zi hollarda umumlashtirilgan, murakkab holda keltirilgan bo'lganligidan Payg'ambarimiz hadislari ushbu oyati shariflarni kengroq talqin etadi, ularni oddiylashtirib bayon qilib, unda keltirilgan voqea va hodisalarni ko'pchilikka tushunarli qilib mufassal holatda sharhlaydi.

Payg'ambar alayhissalom hadislari u zoti sharif yashagan davr uchun haqiqiy bir ko'zgu vazifasini ham o'taydi. Chunki, ular sarvari olamning hayotlari, husni axloqlari, adolatli jamiyat qurish yo'lida ko'rsatgan beqiyos sa'iy-harakatlari, yaxshiligu-xayr barakatga asoslangan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Mana shularga binoan, oldin o'tgan hech bir Payg'ambarlar va ulug'larga ko'rsatilmagan alohida bir e'tibor bilan ilm ahllari hadislarni to'plashga kirishdilar. Hadis ilmi bilan shug'ullanish eng aziz va sevimli mashg'ulot hisoblanib, ularni to'plash uchun olimu ulamolar butun aql-zakovati-yu, qalb qo'ri bilan kirishganlarini alohida ta'kidlash zarur.

Payg'ambar hayot vaqtlarida hadislarni yozib olish odat bo'lmagan. Ayrim sahobalarning fikricha, Payg'ambarning o'zlari hadislarini yozma qayd etishni ma'n qilganlar. **“Mendan Qur'ondan boshqa hech narsa yozmanglar, agar kimki biror narsa yozgan bo'lsa, o'chirib tashlanglar. Mendan faqat hadis aytinglar, xolos. Buni hech zarari yo'q”** [18], - deb uqdirganlar avvaliga Payg'ambar alayhissalomning o'zlari. So'ngra Payg'ambarning o'zlari Abdulloh ibn Amr ibn al-Ossga izn qilganlaridan keyin hadislar zarur hollarda yozma ravishda ham qayd etila boshlagan. Payg'ambar vafot etganlaridan keyin ma'lum darajada tortishuv va munozaralardan keyin har xil mavzularga doir hadislar kitobat holiga keltirila boshlandi. Masalan sahobalardan Jobir ibn Abdulloh haj ziyoratining yo'l-yo'riqlari (Manosik al-haj) xususidagi hadislardan bir kichik kitob bitgan bo'lsa, Samara ibn Jundab esa Rasulullohdan eshitgan hadislari asosida o'z o'g'illariga bir vasiyatnoma yozib qoldiradi. Tobe'inlar davrida esa hadislarni kitobat etishga qarshilik qiluvchilar ozchillikni tashkil etib, uni kitobatini qo'llab-quvvatlagan tobe'iynlar esa aksariyatni tashkil etardi. Ushbu

davrda, ya'ni sahobalar va tobe'iyinlar davrida ikki xil fikr qaror topib, hadislarini ham yozma, ham og'zaki tarzda rivoyat qilish odat tusiga kirgan edi.

Hadis ilmi yosh avlodni tarbiyalashning muhim vositalaridan biri hisoblanib, ularda ma'naviy yetuklikni, milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Imom al-Buxoriy tomonidan yozilgan "Al-Jomi' as-Sahih" kitobida berilgan hadislar sahih hadislar hisoblanib, bu hadislar orqali Payg'ambarimiz (s.a.v) ning ibratli hayotlari, fikr-mulohazalari, insonlar bilan to'g'ri munosabatni tashkil etishga oid tushunchalarga ega bo'lishlarini ta'minlanadi.

Quyida Imom al-Buxoriyning "Al-Jome as-Sahih" kitobidan talabarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, ularda ilm olishga, ma'rifatli bo'lishga, o'zaro munosabatlarda suhbatdoshining qadr-qimmatini hurmat qilishga, yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etuvchi hadislardan namunalar va ularni ta'lim jarayoniga samarali tadbiiq etishning pedagogik xususiyatlarini tasnifladik.

Bir ishni qilishdan ham, so'zlashdan ham avval ilm darkorligi to'g'risida. Olloh taolo oyati karimasida: "Bilgil, Olloh yakka-yu yagonadir", - degan so'zini ham "bil" degan so'z bilan boshlagan. Olimlar – payg'ambarlarning merosho'rlari, ilmi payg'ambarlardan o'rganishadi. "Kimki ilm olgan bo'lsa, payg'ambar alayhissalomdan to'liq meros olibdir", - degan hadisda ham ilm olish kerakligi uqtirilgandir. "Kimki ilm istab qadam qo'ysa, Olloh taolo unga jannat yo'lini oson qilg'aydir", - deyiladi boshqa hadisda. Olloh taolo oyati karimasida: "Ollohdan uning olim bandalari haqiqatdan ham qo'rqqaydirlar", - deyilgan. Ikkinchi bir oyatda: "Bu so'zlarni faqat olimlar tushingaydir", - deyilgan bo'lsa, boshqalarida "Do'zaxiylar: "Agar tinglab, fikr yuritganimizda erdi, do'zax ahlidan bo'lmagan bo'lur erdik", -deyishadi", "Bilganlar birlan bilmaganlar tengmi?"- deyilgan. Rasululloh sallolohu alayhi va sallam: "Kimgaki Olloh taolo yaxshilikni ravo ko'rgaydir, uni din ilmidan bahramand qilg'aydir, ilmga ilm olmoq yo'li birlan erishilg'aydir", - deganlar. Sahoba Abu Zarr: "Agar qilichni mana bunga (bo'yinga) qo'ysangiz-u bo'ynimni uzib yubormasingizdan avval men

Rasulullohdan eshitgan so'zlarimdan birortasini aytib ulgurmog'imni bilsam, aytib olar erdim", - degan ekanlar. Ibn Abbos: "Kunu rabboniyna!", ya'ni "Rabboniy bo'lingiz!", - degan Oллоh buyrug'ini "Halim va faqih bo'lingiz!", - deb tarjima qildilar. Imom Buxoriy: "Rabboniy degani odamlarni katta ilmlardan avval kichik ilmlar birlan tarbiyalagan kishidir" [17], - deganlar.

Hadisdan ko'rishimiz mumkinki, ilm o'rganishda ham avval kichik ilmlardan boshlab, so'ngra katta ilmlarni o'rganishga uqtirilgan. Bugungi kunda ham pedagogika fanida, o'quvchilarga ilm o'rgatish strategiyasi xuddi hadisda aytilganidek, soddadan boshlab murakkablikka qarab o'rgatilishi o'quvchilarning yaxshi o'zlashtirilishi, o'qishga bo'lgan qiziqishining pasayishini oldini oladi.

"Imom Buxoriy hadislaridan: Insonlarga yomonlik qilishdan uzoqroq tur. Zero bu o'zinga sadaqadir. Ya'ni boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi odamdir. Islom insonning manman, xudbin bo'lib, faqat o'z manfaatini o'ylab ish tutishni ma'qul ko'rmaydi. Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiy va hojatbaror bandalarni qadrlaydi" [17].

Alloma "Al-Adab al-mufrad" asarida ham inson axloqi odobi, ma'naviy kamolotiga doir hadislarni turli mavzular bo'yicha tasnif qilgan va izohlar bergan. Asarning ilk boblarida ota-ona oldida farzandlik burchlari, ota-onani rozi qilish, ularning haqqini ado qilish, ota-ona amriga itoat qilish, ularga yaxshilik qilish, ularni dilini og'ritmaslik, qarindosh-urug'larga mehr-shavqat, rahmdillik, yosh bolalarga, ayollarga mehr-muruvvatli bo'lish, bolalar va kattalar arazlashib, urishib qolganda yarashtirib qo'yish, imorat qurishda va boshqa ishlarda kamtarlik bilan ish tutish, takabburlik va so'kinishning yomonligi, jabr-zulmning yomonligi, rostgo'ylik va yolg'onlik, halol va harom, savob va gunoh ishlar kabi inson ma'naviy hayotiga doir muhim muammolar to'g'risida fikr yuritilgan.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

1. Milliy iftixor tuyg'usi modernizatsiyalashgan jamiyatimizning taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biri bo'lib, milliy qadriyatlarimizni to'g'ri anglash, ularni to'g'ri talqin qilish orqali bo'lajak o'qituvchilarning

dunyoqarashi va ruhiyatida ijobiy yetuklikni tarkib toptirishga va bu orqali bo'lg'usi tarix fani o'qituvchilikdan hayot tarzini, kundalik turmushni ma'naviy isloh qilishga erishiladi.

2. Milliy iftixor tuyg'usi o'z ichiga ajdodlarimizning boy merosini qamrab olib, o'tmishda yashab o'tgan allomalar va qomusiy olimlarimizning keng ma'naviy asarlarining ajralmas bo'lagiga aylanadi, u qanchalik teran, mazmunli bo'lsa, insonda o'tmishdan iftixor tuyg'usini vujudga keltiradi, xalqni birlashtiradi, ajdodlar o'gitidan saboq olib, ulkan, bunyodkor ishlarni bajarishga chaqiradi. Bu esa bo'lajak tarix fani o'qituvchilarni tayyorlashda Imom al-Buxoriy asarlaridan keng foydalanib, ularda milliy iftixor tuyg'usini tarkib toptirish hamda kelgusi kasbiy faoliyatlarida bolalar ta'lim va tarbiyasida ushbu manbalardan ibratlanish, undan o'rganish va kelajak uchun xulosa chiqarish layoqatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarda Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda psixologik hamda pedagogik omillarning yetakchi xususiyatlarini o'rganib, bu omillar jamiyatda amalga oshirilayotgan milliy-ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy omillarni o'zida jamlagan holda ifoda etishi bilan ham xarakterlidir. Imom al-Buxoriy asarlari vositasida bo'lajak o'qituvchilarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda hadislarning tarbiya, insonning komillikka eltuvchi yo'l, shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish uchun nechog'lik zarurligini ko'rsatadi.

4. Milliy iftixor tuyg'usi avvalo aqliy faoliyat, tafakkur yo'nalishini tartibga solidi, insonni o'zligini, ajdodlarini, milliy qadriyatlarini bilish orqali boshqalar bilan munosabatga kirishadi va bu munosabatlarning mazmun va mohiyatini belgilaydi. Bu o'z navbatida vatanga sadoqat, o'z millatidan faxrlanish, o'z millati uchun jonini fido qilish jabi tuyg'ular bilan chambarchas bog'liq voqelik ekanini ko'rsatadi.

5. Oliy ta'lim tizimida joriy etilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar dasturi doirasida professor-o'qituvchilar, tyutorlar, ma'naviy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosarlari hamda Yoshlar ittifoqi tashkilotining vazifalarida namoyon bo'lib,

ta'lim-tarbiya jarayonida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda ular ko'zlangan samaraga erishish sharti sifatida xizmat qiladi.

II-BOB. IMOM AL-BUXORIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALAR MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

§ 2.1. Imom Al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish modeli

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etishda talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish nafaqat didaktik maqsad, pedagogik vazifa, shu bilan birgalikda zamonaviy jamiyat tomonidan qo'yilayotgan talablardan biridir. Chunki milliy iftixor tuyg'usiga ega yosh avlod millatning bugungi holatini idrok qilish, unga baho berish va o'zligidan faxrlanish asosida ota-bobolarimiz tomonidan qoldirilgan boy meroslaridan samarali foydalanish asosida o'z milliy o'zligini anglab yetadi. Shu bois ham mamlakatimiz Prezidenti yoshlar bilan o'tkazadigan uchrashuvlarida doimo o'z nutqida avvalo o'sha joylardan yetishib chiqqan tarixiy siymolarga e'tibor qaratgani, ularning millat taraqqiyotida tutgan o'rni va yosh avlod uchun ibratiga urg'u berganiga guvoh bo'lamiz [13].

Prezidentimizning 2018-yilda Oliy Majlisga Murojaatnomasida bildirilgan quyidagi fikr ham pedagoglar faoliyati uchun dasturulamal vazifasini o'taydi: "Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak" [14]. Ta'kid bilan aytilgan bu fikrda yosh avlodda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga ochiq ishora bor.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarining Tarix yo'nalishida o'qitib kelinayotgan "Umumiy pedagogika", "Falsafa" va "Dinshunoslik" fanlari dasturi va darsliklarida Hadis ilmi, Imom al-Buxoriy asarlari va ilmiy merosiga oid materiallar keltirilgan. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun ham ko'plab didaktik materiallar, to'garak mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim mavzulariga singdirish orqali qo'shimcha metodik materiallar tayyorlash mumkin.


Tadqiqotda Imom al-Buxoriyning asarlari vositasida milliy iftixor

tuyg'usini rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu model talabalarning auditoriya, auditoriyadan tashqari va mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonlarini kompleks tarzda qamrab oluvchi yaxlit tizimni tashkil etadi. Modelning tarkibiy komponentlari o'zaro bir-biri bilan mustahkam aloqadorlikni ta'minlash asosida tadqiqot ishida belgilangan maqsadga muvofiq bosqichlar ketma-ketligida tizimlashtirilgan (2.1.1-rasmga qarang).

Bizning tadqiqotimizda modellashtirish ob'yekti sifatida Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayonlari, predmetini esa, ularda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishni tashkil etishning mazmuni va metodik tizimi tashkil etdi.

Modelning tarkibiy komponentlarining o'zaro mustahkam aloqadorligini ta'minlash orqali talabalar bilan tashkil etiladigan pedagogik-tashkiliy jarayonni tizimli ravishda amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining bir qancha mas'ullari, jamoat tashkilotlarining faollari hamda ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarni o'zaro integratsiyalash asosida har bir talaba bilan individual, guruhli va jamoada ishlash jarayonlari tashkil etildi.

Olib borilgan tadbirlarda, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda mavzuning xususiyatidan kelib chiqib Imom al-Buxoriy asarlarini tanlash, Hadislarning mazmunidan kelib chiqib to'garak mashg'ulotlarda qo'llash, talabalarning hissiy-emotsional sohasiga ta'sir etishda Payg'ambarimiz (s.a.v) hayotlari va ular tomonidan keltirilgan fikrlarga tayanish milliy o'zlikni anglash, Vatanga sadoqatlilik, halollik, vijdonlilik, bag'rikenglik kabi fazilatlarining rivojlanishiga erishildi. Natijada, talabalarda millatga nisbatan faxrlanish, o'zligidan g'ururlanish, boshqalarga adolatli munosabatda bo'lish kabi sifatlar asosida ularda milliy iftixor tuyg'usining rivojlanganligi kuzatildi.



2.1.1-rasm. Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning strukturaviy modeli

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish. Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish jarayonida quyidagi metodologik tamoyillarga asoslanildi:

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayoni tashkil etishda pedagogik muhitni yaratish, ta'lim-tarbiya mazmuniga hadis ilmini singdirish, talabalar milliy ongiga ta'sir etuvchi hadislar asosida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish lozimligi belgilandi.

Modelning asosiy tarkibiy komponenti hisoblangan tamoyillarga quyidagilar belgilab olindi. Ushbu tamoyillarni qo'llashda talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda mikro (talabalar guruhi) va makro (oliy ta'lim jamoasi) muhitning ta'sir kuchlari o'zaro uyg'unlik tamoyillari asosida talabalarda erkin-izlanuvchanlik faoliyatlari muvofiqlashtirildi.

Insonparvarlik tamoyili: Insonparvarlik - bu insonga bo'lgan mehr-oqibat, sadoqat, samimiy xatti-harakatlardir. Insonparvarlik tushunchasida juda ko'plab tushunchalar o'z ifodasini topadi. Bu tushunchalarga misol qilib insoflilik, iymon-e'tiqod, ishonch, mehmondo'stlik, hurmat-izzat, odillik, adolatparvarlik, saxiylik, sabr-toqatlilik, o'zi va o'zgalarni tushunish, sadoqatlilik, mehnatsevarlik, sidqidillik kabilarni olish mumkin. Insonparvarlik insoniyat tarixida hayot tajribasiga ega bo'lgan buyuk shaxslar, sarkardalar, allomalar tomonidan o'rta qo'yilgan va targ'ib qilingan. Ayniqsa, diniy kitoblarda insonparvarlikka katta e'tibor qaratilgan. Insonparvarlik g'oyalarini mukammal o'rta qo'ygan dinlardan biri Islom dinidir. "Qur'oni Karim" va Hadislarda aytib o'tilgan ko'plab hikmatlar ushbu fikrlarimizning tasdig'idir. Insonparvarlik insonlarning o'zaro hurmatida, birbirini qadrlashida, mehr-oqibatli bo'lishida, ko'maklashishida, hamdardligida, qayg'uga sherik bo'lishida ko'rinadi.

Shu o'rinda insonparvarlikka chorlovchi Hadisdan namuna keltiramiz: **Birodarlaringizga – xoh u zolim bo'lsin, xoh mazlum, yordam bering.** So'radilar: "Mazlumga-ku yordam beramiz, zolimga yordam berishlik qanday bo'ladi?" Javob berdilarki: "Uni zulm qilishdan to'xtatib qolsangiz, shu unga

qilgan yordamingiz bo'ladi" [25. 15-b].

Hadisning mazmuniga to'xtalsak, insoniylik shunday bebaho ne'matki, uni hamma ham o'zida aks ettirmaydi, lekin u insonni har qanday holatda, vaziyatda o'zgalarni qadr-qimmatini hurmat qilish va yomonlikdan qaytarish kabilarni ifodalaydi. Talabalarda insonparvarlik xususiyatini rivojlantirishda ular bilan turli ijtimoiy loyihalar tashkil etilgan: volontyorlik harakati, mehr-saxovat klublari shular jumlasidandir. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda talabalarning bunday tadbirlarga ijobiy munosabatda ekanliklari aniqlandi, bu esa ularda insonparvarlik tuyg'usining yorqin namunasi ekanligini anglatadi.

Madaniyat bilan uyg'unlik tamoyili: inson biologik , mavjudot sifatida tug'iladi, shaxs bo'lib esa bir avloddan ikkinchi avlodga shaxs tarbiyasi va rivojlanishi jarayonida o'tadigan o'zini tutish ijtimoiy tajribani o'zlashtirib yetishadi. Madaniyat yuqori axloqiy insonni shakllantirishning zaruriy va eng muhim omilidir. Inson har bir xalq va har bir avlod madaniyat rivojlanishining ma'lum bir pog'onasida turadi. Agar bola o'z me'yorida rivojlangan bo'lsa, u o'sha jamiyat madaniyatini o'zlashtiradi, ya'ni jamiyat bilan erkin faoliyatga kirishadi.

Talabalarda xalqimizga xos bo'lgan madaniyatni to'g'ri o'zlashtirishlarida ularning tarixiy madaniyatimizga bo'lgan munosabati, allomalarimiz merosi, jumladan Imom al-Buxoriy tomonidan xalqimizning madaniyatini ifodalovchi asarlari shular jumlasidandir. Allomaning "Kitob ar-Riqoq" (Nafosat haqida kitob) asari buning yorqin namunasidir.

Amaliy yo'nalganlik tamoyili: tadqiqot ishida ishlab chiqilgan to'garak mashg'uloti dasturini ishlab chiqishda Imom al-Buxoriyning ilm o'rganishga bo'lgan munosabati, mamlakatning eng uzoq yerlariga borib ham ilm o'rganliklari, ustozlariga bo'lgan hurmat-ehtiromlari aks ettirilgan. Ushbu dasturni amaliyotga tadbiq etishda Hadislarni talabalar uchun tushunarli bo'lishida o'qituvchilar tomonidan izohlab berilishi hamda talabalarning hadislarni hayotlariga bo'g'lashlari uchun keyslar sifatida taqdim etishlari taklif etildi.

Har bir talaba to'garak mashg'ulotlarida hadislarning mazmunidan kelib

chiqib ularning hayotda tasvirvirlab berishlari lozim bo'лади. Bunda bir nechta hayotiy vaziyatlar va hadislar to'plami taqdim etiladi, talabalar har bir hayotiy vaziyatga mos keladigan hadislarini to'g'ri tanlashlari lozim bo'лади. Bunday mashg'ulotlarda "Vitagen ta'lim texnologiyalar" idan foydalanish maqsadga muvofiq.

O'tmish va hozirgi zamonni integratsiya qilish tamoyili: o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarimizning avloddan-avlodga o'tishi jarayonidagi o'zgarishlar, urf-odat va an'analarimizni modernizatsiya qilish talabalarga yanayam tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. O'tmishda bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni bugungi tilda tushuntirilishi prezentizm deyiladi. Prezentizm yondashuviga asosan Imom al-Buxoriyning hayot yo'li, yashab ijod qilgan muhitlarini bugungi zamonaviy jamiyat hayotiga bog'lashda foydalanildi.

"Gaplarning yomoni – bu yolg'onchilikdir, yolg'onni hazil bilan ham, jiddiy ham gapirib bo'lmaydi. Ota o'z bolalariga biron narsani va'da qilib, keyin uni bajarmay qo'ymasin! Rostgo'ylik ezgulikka boshlaydi, ezgulik esa jannatga. Yolg'onchilik yovuzlikka boshlaydi, yovuzlik esa jahannamga. Rostgo'y odamga yaxshi baho, yolg'onchi odamga yomon baho beradilar. Rostgo'y odam chin so'zi bilan borib-borib Tangri huzurida siddiq (so'zida sodiq) deb yozib qo'yiladi. Yolg'onchi ham borib-borib uning huzurida kazzob (yolg'onchi) deb yozib qo'yiladi. Chaqimchilik ham yomon illatdir, chunki u tufayli odamlar o'rtasi buziladi" [25. 15-b].

Ushbu hadisda bugungi kunda ona tilimizda keng foydalanilmaydigan so'zlar: "siddiq", "kazzob" kabi so'zlarni ko'rishimiz mumkin. Ya'ni hadisda keltirilgan ma'nolar garchi umumiy tarzda aytilgan bo'lsada uni hozirgi zamonga to'g'ri talqin etish muhimdir. Garchi bugungi kundagi internet tarmoqlaridagi firibgarliklar, odamlarni aldov yo'li bilan ishontirib ularga zarar yetkazish, ijtimoiy tarmoqlarda insonlarning qadr-qimmatini behurmat qilish kabi salbiy ishlar ham aynan hadisda aytilganlarga mos ekanligini ifodalab o'tish talabalarning ushbu salbiy odatlarni takrorlamasliklariga xizmat qiladi.

Tizimli-tahlil qilish tamoyili: ob'yekt va hodisalarni o'rganishga yondoshuv

bo'lib, bunda ularga tarkibini (elementlar tarkibi va aloqalarni), hamda yagona tizim sifatida o'zgartirish va rivojlanish qonuniyatlarini e'tiborga olgan holda rivojlanuvchi tizim deb qaraydi. Tizimli tahlil asosida Imom al-Buxoriy asarlari va u tomonidan keltirilgan hadislarining tasnifidan kelib chiqib quyidagi tahlil qildik:

1. Ilmiy-adabiy; 2. Diniy-falsafiy; 3. Milliy-ma'naviy mavzular haqida.

“Yer yuzidagi ulamolar bamisoli osmondagi yulduzlar kabidir. Yerda ham, suvda ham ularga qarab yo'l topiladi. Yulduzlar botsa, yo'lboshchi ekanliklari, ularni hurmat qilish, ular bilan maslahat asosida ish tutish lozimligi ta'kidlangan. Talabalarda olimlarning nafaqat qoldirgan asarlari shu bilan birgalikda, ularning hayot yo'llarini ham chuqur o'rganish asosida ibrat olishda tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanganligi mahim ahamiyat kasb etadi. Imom al-Buxoriy hayot yo'lini tizimli tahlil qilish asosida shunga amin bo'ldikki, olim ilm olish yo'lida nafaqat vaqtini, molini ham masofani aham darig' tutmagan. Bu esa talabalarda ilm o'rganishning qanchalar muhim ekanligini tushuntirib beradi.

Modelning navbatdagi muhim jarayoni amalga oshirish bosqichlari hisoblanib, unda talabalarda axloqiy ustanovkalarni barqarorlashtiruvchi didaktik birliklarni ma'naviy tarbiya jarayoni sub'yektlari funksiyalari bilan integrativlik muhitini yaratish maqsadi ko'zlangan. Bu jarayon quyidagi bosqichlarning qat'iy ketma-ketligi asosida amalga oshiriladi: motivatsion, amalga oshirish (faoliyat-jarayonli), yakunlovchi.

Motivatsion bosqich: talabalarga ta'lim va tarbiya uzviy bog'langan holda berilishi, bilim egallash jarayonida tarbiyalanib borishi, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish texnologiyalaridan foydalanish, tarbiyaviy ta'sir etilayotganda bilimlarning boyishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi quyi sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanilganda bu darajaga erishish yengil amalga oshadi. O'rta umumiy ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim egallashga bo'lgan qiziqishlari, havasi asosida aqliy qobiliyatlari shakllantiriladi. Aqliy kamolotga uyg'un tarzda o'quvchilarning

ma'naviy dunyosi boyitiladi. Axloqiy fazilatlar takomillashtiriladi. Talabalarda mehnatsevarlik, yuksak did, fahm-farosat, nafis his-tuyg'ular rivojlanib boradi. Talabalarda iqtisodiy va ekologik tushuncha, ko'nikma va malakalar tarkib topa boshlaydi. Ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quvchi-yoshlarning har tomonlama kamol topishiga e'tibor qaratiladi. Jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga mazkur jamiyatning ehtiyojini to'la qondirishga qodir bo'lgan kadrlarni tayyorlab berish talabi qo'yiladi.

Talabalar bilan milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayonini tashkil etishda xalq og'zaki ijodiyoti bilan Hadis ilmini qo'shib borish ularning kognitiv sohasiga ta'sir etishini tezlashtiradi. Imom Ismoil al-Buxoriyning asarlarida odob-axloq masalalarini yorituvchi hadislar jamlangan bo'lib, ijtimoiy turmushda hamda insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tashkil etish chog'ida amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalarini borasida ma'lumotlar berilgan. Ushbu ma'lumotlar talabalarning jamiyatda, insonlar bilan munosabatlarida to'g'ri xulq-atvor qoidalarini tanlash imkoniyatini beradi. Talabalarning milliy iftixor tuyg'usi borasidagi bilimlarini boyitishga xizmat qiladi.

Kognitiv bosqich: bu bosqichda talabalarga hadislarining tushunarli bo'lishi, ularda keltirilgan fikrlarning mazmun mohiyatini to'liq anglab yetishlari uchun turli pedagogik metod, vosita va shakllardan foydalaniladi. Imom al-Buxoriyning asarlarida aks ettirilgan vatanparparlik, sodiqlik, insoniylik, tinchlikni qadrlash kabi sifatlarni ochib berishda misollar yordamida amalga oshiriladi. Hadislar tez va oson tushunib olishda ularni mavzular bo'yicha guruhlariga ajratish, mohiyat yaqin bo'lgan hadislarini alohida mavzular shaklida keltirish talabalarning oson tushunib olishlariga yordam beradi. Ya'ni soddadan murakkabga qarab joylashtirish maqsadga muvofiq.

Masalan: milliy-mana'viy mavzulardagi hadislarda insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlarning muhim ekanligi, ushbu sifatlarni aks ettirishning ko'rinishlari va yo'llari haqida batafsil to'xtalgan. Jumladan mutafakkirning "Al-Jome' as Sahih" asarining 4-jilddida keltirilgan hadislar shular jumlasidan.

Chunonchi, **Ozchilikning ko'pchilikka salom bermog'i haqida.** Abu

Hurayra rivoyat qiladilar: “Nabiy sallallohu alayhi va salam: “Kichik kattaga o’tkinchi o’ltirgang’a ozchilik ko’pchilikka salom berg’aydir”, – dedilar”.

Suvoriyning piyodaga salom bermog’i haqida. Abu Hurayra rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Suvoriy piyodaga, piyoda (o’tkinchi) o’ltirganga va ozchilik ko’pchilikka salom berg’aydir”, — dedilar”.

O’tkinchining o’ltirgang’a salom bermog’i haqida. Abu Hurayra rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Suvoriy piyodaga, piyoda (o’tkinchi) o’ltirganga va ozchilik ko’pchilikka salom berg’aydir”, — dedilar”.

Salom-alikni ommaviylashtirmoq xususida. Barro ibn Ozib rivoyat qiladilar: «Rasululloh sallallohu alayhi va sallam bizga yetta narsani buyurib, yetti narsani man’ qildilar: kasalni borib ko’rmoqni, janozada qatnashmoqni, aksa urgan odamning hamdiga javob qaytarmoqni, kuchsizga madad bermoqni, mazlumba yordam bermoqni, salom-alikni ommalashtirmoqni va qasamga vafo qilmoqni buyurdilar hamda kumush idishdan ichmoqni, oltin uzuk taqmoqni, ulovga duxoba to’qim yopib minmoqni, harir, deboj, qissiy va istabrak kiymoqni man’ qildilar».


Qo’l berib so’rashmoq haqida. Ibn Mas’ud: “Nabiy sallallohu alayhi va sallam kaftimni ikki kaftlari orasiga olib turib menga tashahhudni o’rgatdilar”, — deydilar. Ka’b ibn Molik: “Masjidga kirsam, Rasululloh sallallohu alayhi va sallam o’sha yerda erkanlar. Birdan Talha ibn Ubaydulloh o’rnidan turib oldinga yugurib keldida, qo’l berib so’rashib, meni tabrikladi”, — deydilar. Qatoda bunday deydilar: “Men Anasdan: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning sahobalari o’rtasmda qo’l berib so’rashmoq odati bor erdimi?” — deb so’radim. U: “Ha” — deb javob berdi”. Abdulloh ibn Hoshim: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam birlan birga erdik. SHunda Janob Rasululloh Umar ibn al-Xattobning qo’lini ushlab turgan erdilar”, — deydilar.

Erinchoqlik haqida 823. Abdulloh ibn Muso aytdilar: Oyisha (r.a.): “Tungi namozni hech ham tashlab qo’ymang, chunki Payg’ambar (s.a.v.) uni hech vaqt qo’ldan chiqarmasdilar. Agar bemor yoki kamquvvat bo’lsalar o’tirib o’qir edilar”, dedilar.

Dangasalikdan panoh so’ramoq haqida. Anas ibn Molik (r.a.) aytdilar:

Rasululloh (s.a.v.) ushbu duoni ko'p takror qildilar: “Parvardigoro! Sendan g'am-tashvishdan, ojizlikdan, baxtsizlikdan, dangasalikdan, qo'rqqoqlikdan, qarzning og'irligidan va kishilarning g'olib bo'lib ketishidan panoh berishingni so'rayman”.

Navbatdagi komponent jarayonni amalga oshirish ishtirokchilari bo'lib, bunda talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda kompleks yondashuvdan foydalanildi.



2.1.2-rasm. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayoni ishtirokchilari

O'qish, o'qitish – inson faoliyatining boshqa sohalariga singari ijtimoiy foydali faoliyatdir. Iqtisodiy tuzumlar nima ishlab chiqarayotgani bilangina emas, balki qanday va qanaqa mehnat qurollari bilan ishlab chiqarayotganligi bilan biri ikkinchisidan farq qiladi, degan g'oya o'qish-o'qitish faoliyatiga ham taaluqlidir.

Insoniyatning rivojlanish davrlari almashganda pedagogik texnologiyalar butunlay yo'q bo'lib ketmaydi, balki pedagogik texnologiyalar keyingi davrlarga assotsiatsiya orqali fikran bog'lanadi, yangi sifatlar, xususiyatlarga ega bo'lib, kuchayadi va boyiydi. Ushbu jarayon borgan sari tezlashib boradi.

O'quv adabiyotlarini joriy etish qarama-qarshiliklar kurashi natijasida sodir bo'lgan. Keyingi davrlarda ham ta'lim sohasidagi jiddiy o'zgarishlar oson kechmagan. Bugungi kunda ham birinchi bosqich texnologiyasi ruhida shakllangan ayrim pedagoglarda keyingi davrlarda vujudga kelgan o'quv vositalarini o'zlashtirib olishga, ta'lim-tarbiya jarayonini shu asosda tashkil etishga intilish sust darajada.

Bu pedagogik bosqichlarning har birida ta'lim metodlari takomillashtirila borganligi tufayli o'qituvchi mehnatining samarasi ortib, zamonaviy texnologiyani qo'llaydiganlar safi kengaya borgan. Bugungi kunda "respublikamizni rivojlangan davlatlar darajasiga chiqarish maqsadida bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Ta'lim O'zbekiston davlati siyosatining ustuvor sohasiga aylandi" [111].

Qayd etib o'tilganidek, ta'lim metodlari tizimida talabalarga Imom al-Buxoriy asarlarini yetkazib berishda og'zaki bayon qilish metodlari muhim o'rin tutadi. Og'zaki mashqlardan ta'lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular ta'lim oluvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog'liqdir. Shuningdek, og'zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya – o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi. Metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, talabalarining yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois, hikoya mazmuni talabalarining mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning hadislar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Hikoya qisqa (5-10 daqiqa), shu bilan birga talabalarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak. Bu holat hikoyani boshqa ta'lim metodlari (xususan, namoyish

yoki muammoli bayon etish va hokazolar) bilan birga solishtirganda ro'y berishi mumkin.

Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda, nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza– yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, uning o'zigaxos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliliigi. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakkab tizimlar, hodisalar, ob'ektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqida talabalarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Suhbat – faoliyatni endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga toshadi. “Deduktiv suhbat o'quvchilargaoldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi” [38. 186-b]. Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash,

nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat tarzida tashkil etiladi.

“Tasvir (illyustrasiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi. Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o'quvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustrasiyaga murojaat qilinadi. Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatini to'laqonli yoritish bilan belgilanadi. Aslida, illyustrasiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rinlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o'quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob'yektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi” [49. 190-b].

Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda samaradorlikka erishish uchun quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- ko'rgazmalilikning o'quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi;
- namoyish etilayotgan ob'ektlar barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rinib turishi;
- namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi;
- tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko'rsatish asosida tashkil etilishi;

- namoyish va illyustrasiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim.

Talabalarga Imom al-Buxoriy asarlari va hadislarini o'qitishda metodlar bilan birgalikda samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalanildi. Bunda pedagogik texnologiyalar tarixiy manbalardan foydalanishga yo'naltirilgan turli shakllarga mo'ljallangan ta'limiy mashqlarni raqamli ta'lim muhitida samarali qo'llashning mazmuni va qo'llash sohasini o'zaro muvofiqlashtirish tadqiqot ishida belgilab olingan milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda samarali kechadi. Chunki, bugungi modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida talabalarga ta'sir etishning murakkabligi buning yorqin dalilidir.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ketma-ketligi [36]:

1. Pedagogik muloqot texnologiyasida o'qituvchi (pedagog)ning o'quvchi-talabalar bilan muloqoti. Muloqotning vazifalari:

- shaxsni tanish, axborot almashish;
- kelgusi pedagogik muloqotni modellashtirish va tahlil etish;
- muloqotdan olgan tasavvurlari;
- muloqot yuzasidan fikrlashi;
- pedagogik muloqotni tashkil etish texnikasi;
- ishga ijodiy yondashishi.

2. Pedagogik talab texnologiyasi.

- «pedagogik talab» tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari;
- xulq-atvor va ijtimoiy madaniy qoidalarining namoyon bo'lishi;
- o'quvchi-talabaga bo'lgan hurmat va talab;
- pedagogik talabning psixologik tamoyillari va mezonlari.

3. Baholash texnologiyasi, pedagogik baho va belgilash.

- xatti-harakatlardan olgan taassurot, voqelikni, obyekt va subyektni qabul qilish;

- baho berish usullarini tanlash o'qituvchi (pedagog) o'z imkoniyatini tahlil etishi, ta'sir samaradorligini oshirishi);

- pedagogik baholash texnologiyasi.

4. Axborotning ta'sir ko'rsatish texnologiyasi.

- nutqiy-axborot berish, «ratsional axborot berish» tushunchalari, namoyishli va ko'rgazmali axborot olish vositalaridan biri sifatida;
- nutqiy ta'sir etish, suhbat, hamkorlik, tezis, argument, ko'rgazma obrazi;
- nutqiy ta'sir etish texnologiyasi;
- namoyish va ko'rgazmali vosita, iqtisodiy, etik, estetik, gigiyenik materiallar;
- qabul qilishning fiziologik va psixologik xususiyatlarini namoyyish qilish texnologiyasi.

5. Pedagogik materiallarni yaratish va uni yechish texnologiyasi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyatimiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ham mavjud bo'lib, hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, axborot texnologiyalari barcha mavjud texnologiyalar, xususan yangi texnologiyalar orasida yetakchi o'rin egallamoqda.

Shundan kelib chiqib, talabalar uchun ishlab chiqilgan to'garak mashg'uloti dasturida AKT vositalari va texnologiyalaridan ham keng foydalanildi. Jumladan dasturda hadislarni nafaqat o'qish, shuningdek, ularni tinglash va video roliklarda ko'rish ham mumkin. Buning uchun har bir hadis uchun maxsus QR kodlar yaratilgan bo'lib, talabalar hadislarni o'zlariga qulay vaqtlarda hamma joyda tinglashlari mumkin.

§ 2.2. “Al-Jome’ as-sahih” asari asosida talabalarda milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirish mazmuni va uning tarkibiy komponentlari

“Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirish” dasturida talabalarda Hadis ilmiga qiziqishini shakllantirishga imkon beruvchi didaktik o'yinlar va mashqlar tizimi taklif etilgan. “Al-Jome’ as-sahih” asari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirishga doir mazkur

dastur quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga asoslanadi: o'qituvchilarni talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga tayyorlash; milliy qadriyatlarga ijobiy munosabat muhitini yaratish; talabalarni faoliyat sub'yekti sifatida qabul qilish.

Dasturda ta'limni tashkil etish shakli sifatida integratsiyalashgan mashg'ulot belgilangan. Mazkur mashg'ulotning o'ziga xosligi "Umumiy pedagogika", "Dinshunoslik" va "Falsafa" fanlarini Imom al-Buxoriy asarlari va hadislar vositasida o'rganish, o'qituvchi va talabalarning jamoaviy ijodiy ishi, ijodiy faoliyatning turli shakllarini amalga oshirishga doir o'zaro bog'liqlikdagi harakat.

Dasturda talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish pedagogikaning maxsus metod va texnologiyalari orqali amalga oshiriladi: tizimli-tahlil metodi, "Keys-stady" metodi, muammoli ta'lim metodi, evristik ta'lim metodi, qiyosiy tahlil metodi. Imom al-Buxoriy asarlari vositalari sifatida asarlardan namunalar, proyeksion (filmlar va videolar), audio materiallar, Hadislardan namunalar, mutaffar to'g'risidagi asarlar tanlab olindi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning milliy g'urur tuyg'usining ifodalanishi, vatanparvarlik tuyg'usining ifodalanishi, milliy o'zlikdan faxrlanish tuyg'usining ifodalanish komponentlari har biri bo'yicha baholash mezonlari ishlab chiqildi.

2.2.1-jadval

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning mezonlari

T/R	Mezonlar	Darajalari	Ko'rsatkichlari
1	<i>Milliy g'urur tuyg'usi</i>	yuqori	– o'z millati, madaniyati va tarixi bilan chuqur faxrlanish; – milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlar; millatning yutuqlari va muvaffaqiyatlarini keng jamoatchilikka yetkazish.
		o'rta	– o'z millati haqida ma'lumotlarga ega bo'lish va u bilan qiziqish; – milliy bayramlar va tadbirlarda ishtirok etish; - o'z millatini boshqalarga tanishtirish va uning tarixi haqida gapirish.

		past	– millatga nisbatan qiziqishning kamligi; – madaniy va tarixiy merosdan befarqlik; - milliy qiyofaning yoki qadriyatlarning ahamiyatini kamaytirish.
2	Vatanparvarlik tuyg'usi	yuqori	– Vatan uchun fidoyilik va xizmat ko'rsatishga tayyorlik; – Vatan tarixi, madaniyati va an'alarini chuqur o'rganish va ularga hurmat; - Vatanni himoya qilish, uning mustaqilligini saqlash va rivojlantirishga intilish.
		o'rta	– Vatan haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish va uning madaniyatini qadrlash; – Vatan bayramlari va tadbirlarida ishtirok etish; - Yurt rivoji uchun kichik hissa qo'shish, masalan, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish.
		past	– Vatan haqida qiziqishning kamligi yoki befarqlik; – Vatan madaniyati va tarixi haqida ma'lumotning yetishmasligi; - Vatan oldidagi mas'uliyatni his qilmaslik yoki unchalik ahamiyat bermaslik.
3	Milliy o'zlikdan faxrlanish tuyg'usi	yuqori	– o'z millati va madaniyatining boy merosini bilish va ulardan foydalanish; – milliy qadriyatlarni saqlash va ularni yangi avlodlarga yetkazish; - millatning yutuqlari va tarixiy qahramonlari bilan faxrlanish.
		o'rta	– milliy bayramlarda, tadbirlarda ishtirok etish va ularda faol qatnashish; – o'z millatining madaniy merosi haqida ma'lumotga ega bo'lish va qiziqish bildirish; - o'zligini boshqa millatlar bilan taqqoslashda ijobiy nuqtai nazarga ega bo'lish.
		past	– millatga nisbatan qiziqishning kamligi yoki befarqlik; – milliy meros va madaniyat haqida ma'lumotning yetishmasligi; - o'zligini boshqalarga tanishtirishda

			passivlik.
--	--	--	------------

Tarix yo'nalishi dasturlari, o'qitilayotgan o'quv fanlarining tahliliy natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantiruvchi faoliyatni tashkil etishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish jarayoniga yo'naltirilgan o'quv materiallari to'g'ridan to'g'ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo'lsa-da, mahoratli o'qituvchi o'z faoliyatini talabalarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin.


Tarix yo'nalishida o'tiladigan Umumiy pedagogika, Dinshunoslik, Falsafa fanlari dasturlarida ikki-uch mavzularga e'tiborga olmaganda Imom al-Buxoriy asarlaridan ma'lumotlar deyarli berilmagan, lekin yuqorida dasturdagi mavzularda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyati mavjudligi ko'rinadi.

“Umumiy pedagogika” fan dasturini ko'zdan kechirganda “Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha bo'lgan davrlarda pedagogik fikrlar taraqqiyoti” mavzusi ostida Imom al-Buxoriy haqidagi ma'lumotlar yoki hadislaridan namunalar berilganiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, Islom ta'limoti va hadisshunoslik ilmiga oid materiallar keltirilgan.

Keltirilgan tahlillardan ko'rish mumkinki, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy asarlaridan keng foydalanish imkonini beruvchi to'garak mashg'uloti dasturi asosiy material berishi aniqlashtirildi va yuqoridagi fanlar esa dastur bilan integratsiyani yo'lga qo'ygan holda talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish maqsadini amalga oshirishda yordamchi, mustahkamlashga xizmat qiluvchi vosita vazifasini bajaradi deyish mumkin.

Hadislar bilan ishlashda o'qituvchi yo'naltiruvchanlik missiyasini ado etishi kerak. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishni maqsad qilib qo'yar ekan, hadislarini tizimli, muayyan bosqichlarni amalga oshirgan holda talabalarda shaxsiy xulosalarni tarkib toptirish muhitini yaratishi lozim bo'ladi. Biz o'zimiz tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida qo'llagan va ko'zlagan

natijaga olib kelgan quyidagi asarlar va hadislar bilan ishlash bosqichlarini o'z ichiga qamrab olgan pedagogik tuzilma ishlab chiqildi (2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. Milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirish tuzilmasi va uning tarkibiy komponentlari

Dinshunoslik fanining dasturlarida “Islom dini”, “Islom dinining aqidaviy yo’nalishlari va maktablari”, “Dunyoviy bilimlar va diniy e’tiqod birligiga erishishning ahamiyati” mavzulari ostida Imom al-Buxoriy va uning Hadis ilmi borasida ishlari bayoni hamda hadislardan namunalar berilganiga guvoh bo’lamiz (Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi, 2-bosqich).

Uchala o’quv fani ichida “Umumiy pedagogika” asosiy material berishi oydinlashdi va qolgan ikki o’quv fani esa u fan bilan integratsiyani yo’lga qo’ygan holda talabalarda milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirish maqsadini amalga

oshirishda yordamchi, mustahkamlashga xizmat qiluvchi vosita vazifasini bajaradi deyish mumkin.

Ishlab chiqilgan pedagogik tuzilmani amalga oshirish to'garak mashg'uloti jarayoniga tadbqiq etish maqsadga muvofiqdir. Chunki dasturga materiallarning hajmi kamroq kiritilganligi uchun, to'garak mashg'uloti topshiriqlarini ishlab chiqishda Imom al-Buxoriy asarlari va Hadislarga ko'proq to'xtalib o'tilgan.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish tuzilmasining birinchi bosqichi – qisqacha kirish qismida talabalardan Imom al-Buxoriy hayoti va asarlari so'raladi, javoblar eshitilgach, o'qituvchi talabalarning umumiy bilish darajalarini umumlashtiradi. Shundan so'ng, talabalarga alloma va uning asarlari, hadis ilmi to'g'risida manbalardan qanday foydalanish, o'z faoliyatlariga tadbqiq etish, milliy o'zligimizni anglashda qo'llash chora-tadbirlari haqida tushuntirish, ko'rsatmalar beradi. Bunda, talabalar alloma haqidagi ma'lumotlarni davrlashtirishlari, asarlarini mavzular va mazmunidan kelib chiqib tartiblashlari, hadislarni idrok etish hamda hayotlariga tadbqiq etish orqali xalqimizning naqadar boy madaniyatga, ilm o'rganishga nisbatan katta e'tibor qaratganliklariga guvoh bo'lishadi. Bu esa, talabalardan xalqimizning ilmga tashnaliklari, madaniyat yo'lidagi sa'yi-harakatlaridan faxrlanish tuyg'usini shakllanishiga zamin yaratadi.

Ikkinchi – jarayonni amalga oshirish bosqichida, o'qituvchi manbalardan olingan materiallarni talabalarga tushunarli, ta'sirchan yetkazib berishda metod, vosita va shakllarni tanlaydi. **Metod** – o'qituvchi va talabalarning harakatlarini belgilab berib, u orqali axborot uzatiladi va qabul qilinadi. Ta'sir etish doirasi belgilanadi. **Vosita** – tanlangan metodlarning samarali qo'llanilishini ta'minlaydi, axborotlarning ta'sirchanligini oshiradi. **Shakl** – pedagogik jarayon to'liqliligini ta'minlaydi, talabalar xatti-harakatlarini boshqarishga yordam beradi.

O'qitishning interfaol metodlaridan foydalanilganda ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilish va kommunikativ faoliyati rivojlanadi. Talabalar biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol metodlardan to'garak mashg'ulotlarida foydalanilganda o'qituvchining vazifasi talabalarning faoliyatini mashg'ulot maqsadlariga

erishishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi. Interfaol o'qitish metodi asosida o'tiladigan ma'shg'ulotni tashkil etishda birorta ham talaba chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan, o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Interfaol metodlardan biri "Case" texnologiyasi metodidir. "Case" texnologiyasidan o'quv mashg'ulotlarida foydalanishga oid misol keltiramiz. Talabalar ijtimoiy-badiiy keys topshiriqlarini bajarishda quyidagi jadvaldan foydalanib, pedagogik jarayonda tahliliy munosabatlarni qo'lga qo'yadilar. (2.2.1-jadval):

2.2.1-jadval

Keys texnologiyasiga oid topshiriqning bajarilishi

	Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sababi	Muammoni bartaraf etish chora-tadbirlar va hadis ilmining ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari
<i>O'qituvchi</i>	Sharq mamlakatlari madaniyat o'chog'i bo'lganligi hammaga ayon, biroq bugungi kunda yoshlar o'rtasida sub'madaniyatning ommalashib borishi kuzatilmoqda, buning sababi nimada?	Inson aqliy qobiliyatini ilm olishga sarflamas ekan, odamiylik fazilatlarini yo'qotib boradi. Bugungi kunda ba'zi yoshlar o'rtasida ilm olishga rag'batlanmaslik va kitob o'qishga qiziqmaslik va "internet huruji" kabi ko'plab misollarni keltirish mumkin.	Sharq uyg'onish davrlari, 1-2-renesans davrida yashab o'tgan allomalarimiz o'zlarining ilmiy meroslari bilan milliy madaniyatimiz va dunyo sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Xalqimiz va butun bashariyatning faxru iftixoriga aylandilar. Bu o'rinda hadis ilmi sultoni Imom Al-Buxoriyning ilmiy merosini o'rganish insonni har tamonlama barkamol bo'lib yetishishida muhim manba hisoblanadi.
<i>Talaba</i>	Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar o'rtasida ommalashib borayotganligi yoshlarda tariximizni, ota-bobolarimizning boy merosini o'rganishga ehtiyoji pasayib bormoqda, natijada yoshlar o'rtasida milliy o'zligimizdan xabardor emasligi,	Media davri paytida tarqalayotgan ma'lumotlar oqimiga, tezligiga o'rganmoqchi bo'lgan yoshlar tezlikdagi ma'lumotlarni miyasiga singdiib qabul qilmoqchi bo'lgan yoshlar o'zlarining atrofiga befarq bo'lib qolishgan. O'sha atrofga befarqlik tufayli	Axborot boshqaruvchilari tomonidan kontentga cheklovlar qo'yish va yangi organizatsiya yaratish (Organizatsiya nomi: III renesans-buyuk bobokalonlarimizni o'rganamiz). O'sha mediada tariximiz haqidagi ma'lumotlarni tarqatish. Hadis ilmidan tarbiya va ilmga oid ma'lumotlarni berish. Yoshlar intilayotgan

	milliy g'urur tuyg'usining ifodalanmasligi holatlari ko'paymoqda.	o'tmishga ham befarqlik kelib chiqqan. Atrof-muhitni qayerdan kelib chiqqanligi haqida tushuncha yo`q. Faqat hozirda trendda bo'lishga intilishadi.	ma'lumotlarni cheklash orqali biz bermoqchi bo'lgan ma'lumotlar oqimini qo'shish.
--	---	---	---

Uchinchi bosqich – tanishtirilgan ma'lumotlarni qay darajada tushunganligini tekshirish uchun alloma hayoti va asarlari haqidagi savollar berish, hadislardan misollar keltirib mazmunini izohlashlarini so'rash mumkin. Talabalar bilimni baholashda quyidagi jadvallardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda talabalar nafaqat ma'lumotni o'zlashtirganliklari, axborotlarning mazmunini tushunib ularni qo'llash imkoniyatlariga egaliklari ham baholanadi (2.2.2-jadval).

2.2.2-jadval

“Al Jome’ as Sahih” asarini o'zlashtirish va talabalarining o'z faoliyatida qo'llash imkoniyatlarini baholash tizimi

№	“Al Jome’ as Sahih” asari hadislaridan namunalar	Hadis mazmuni	Milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda metodik imkoniyati
1	“Ilmning ofati - esdan chiqarmoqlik va ilmga rag'bat bo'lmagan kishilarga o'rgatib, uni zoye ketkazmoqlikdir”.	Ilmning eng katta ofatlaridan biri uni unitishdir. Kishi olgan ilmidan, avvalo o'zi foydalanishi va unga amal qilishi lozim. Ilmi tolibning olgan ilmiga amal qilmasligi yoki uni ilmga e'tiborsiz kishiga o'rgatishi uni unutilishiga sababdir.	Talabalarda unutishning muolajasi takrorlash, odamlarga ta'lim berib borish, gunohlardan yiroqda bo'lish ishlar bilan amalga oshishi haqida ma'lumotlar berish.
2	“Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo'minga farzdir”.	Bundan ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni talab qilish farzligi ma'lum bo'ladi. E'tibor bersangiz bu davrda Xitoyda islom diniga e'tiqod qilinmagan. Ya'ni bundan dunyoviy ilmlarni o'rganishga ishora qilinganligini tushunish mumkin.	Hozirgi globalashuv sharoitida kuchli komil inson deyilganda nafaqat mushaklar bilan, balki, ilm-ma'rifat, zamonaviy fan-texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish orqali uni jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladigan inson tushuniladi.
3	“Ilm o'rganish har bir mo'min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma	Ilm olish eng ulug' ibodatlardan biridir. Shunday ekan, biz uning	Ilm-eng fazilatli amaldir, chunki u ikki dunyo saodatining kalitidir. Islom dini insonga ilm

	narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so'rab istig'for aytadi".	tahsili bilan shug'ullansak, dunyoviy ishlarimiz ham o'z-o'zidan izga tushib ketadi.	o'rganishni, manfaatli bilimlar sohibi bo'lishni, jaholatni yo'q qilishni buyuradi. Demak, ilm hayot va turmushda orttirilgan tajribalarning amaliy va umumiy-nazariy natijasidir.
4	"Ilm ikki xildir: biri qalbdagi ilm bo'lib, u foydalidir. Ikkinchisi tildagi ilm bo'lib, u Tangri huzurida banda zarariga dalil bo'ladi".	Birinchi ilm, ya'ni qalbdagi ilmga amal qilish inson uchun ikki dunyoda foydalidir. Tildagi ilm esa, insonlar ko'rib maqtashi, obro'-e'tabor toppish uchun o'rganadi. Bunday niyatda bo'lgan kishi ilmdan manfaat topa olmaydi.	Kishi ilmini Alloh roziligi, xalq xizmati va yurt ravnaqini maqsad qilib qo'yadi
5	"Ilmga nisbatan go'yo cho'pon kabi posbon bo'linglar, lekin ilmni faqat rivoyat qiluvchi bo'lmanglar".	Ilm egalladikmi, endi u bilan boshqalarga manfaat yetkazishimiz kerak.kimki, ilmdan boshqalarga foyda yetishini istamasa, bundan birinchi galda o'zi zarar ko'radi. Negaki, foydalanilmagan bilim asta-sekin zehndan o'chadi va unut bo'lib ketadi.	Bu o'rinda qanchalik miqdorda bilimga ega bo'lmaylik, uni munosib orinlarda sarflashga majburmiz. Ushbu hadis orqali talabalarda ilmni egallash bilan bir qatorda unga amal qilish kerakligini haqida tushunchalar paydo qiladi.

To'garak mashg'uloti dasturida Imom al-Buxoriy haqidagi ma'lumotlar va hadislar audio hamda video shaklida maxsus QR kodlar yordamida taqdim etilgan. Talabalar mustaqil ravishda o'zlarining mobil qurilmalari yordamida skanerlash orqali materiallardan foydalanishlari va o'qituvchidan ko'rsatma olishlari mumkin.

To'garak mashg'ulotlari bilan birgalikda mustaqil ta'limni tashkil etishda talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzularni tanlash, topshiriqlarni ishlab chiqish va talabalarni mustaqil ravishda o'qishga qaratilgan dasturga ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ham kiritilgan. Ushbu tadbirlarning maqsadi talabalarni o'zaro hamjihatlik asosida ish tashkil etishlari, Din vakillari bilan davra suhbatlarini o'tkazish yordamida talabalarda diniy bilimlarini oshirishga xizmat qilishi nazarda tutilgan. Zero, Islom dinida, Hadislarda insonlarni yaxshilikka, odob-axloqqa, yurt tinchligini saqlashga, ilm o'rganishga buyirilgan.

To'garak dasturini ishlab chiqishda mashg'ulot mavzulari talabalarning Imom al-Buxoriy, uning "Al Jome' as Sahih" asari va Hadislardan xabardorligi oshirib borish asosida ularda tahlil qilish, o'z faoliyatlarida qo'llash ko'nikmasini shakllantirilib borilishi nazarda tutilgan (2.2.3-jadval).

2.2.3-jadval

To'garak mashg'uloti dasturining tematik rejasi

№	Mavzularning nomlanishi	Soat	Muddatlari	
			Rejaga muvofiq	Bajarildi
1	Hadis va muhaddislar haqida.	1		
2	Hadisshunoslikning ruhiy-ma'naviy asosi.	1		
3	Imom Ismoil al-Buxoriy hayot yo'li.	1		
4	Imom Ismoil al-Buxoriy asarlardagi g'oyalari haqida tushuncha.	1		
5	"Al-jome' as-sahih" asari haqida umumiy ma'lumot.	1		
6	"Al-jome' as-sahih" asaridagi "Ilm fazilati to'g'risida" bobi haqida.	1		
7	"Al-jome' as-sahih" asaridan 40 hadis.	1		
8	"Al-jome' as-sahih" asaridagi "Qur'on fazilatlari haqida" kitobidan.	1		
9	Amaliy dars. Andijon tarixi va madaniyati davlat muzeyiga tashrif.	1		
10	Islom arkonlari.	1		
11	Olimlarning g'animat ekanligi.	1		
12	Halol kasb qilish.	1		
13	Milliy iftixor tuyg'usi va milliy qadriyatlar mavzusida suhbat.	1		
14	"Imom al-Buxoriy-buyuk hadisshunos olim" mavzusida esselar tanlovini o'tkazish.	1		
15	Keys-stadi texnologiyasi orqali hadislarni hayotga tadqiq etish	1		

Imom al-Buxoriy asarlari va hadislarda tasvirlangan voqea-hodisalarning mazmun-mohiyatini singdirish orqali talabalarda milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash va milliy iftixor tuyg'usi tarkib topib boradi. Bu auditoriyadan tashqari to'garaklar uchun umumiy bo'lgan mashg'ulot tuzilmasi quyidagicha bo'ladi:

6. Talabalarni o'qishlari lozim bo'lgan asar va hadislarni qabul qilishlariga tayyorlash uchun suhbat o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi hadislardan namuna keltirib talabalarni mashg'ulotga jalb qilishi kerak. O'qituvchi: "Hikmatli

soʻz moʻmin kishining yoʻqotgan narsasidir. Uni qayerdan topsa, oʻzlashtirib olishga haqli”. Ushbu hadisning mazmunini mustaqil oʻz shaxsiy qarashlaringiz asosida izohlab koʻrishingiz mumkin. Har bir talaba oʻzining mustaqil fikrlarini bildirganidan soʻng, oʻqituvchi hadisga umumiy sharh berib oʻtadi hamda talabalarda hadislarga nisbatan qiziqish uygʻotish maqsadida har bir talabaning bildirilgan fikrlarining hadisga mosligini taʼkidlab oʻtadi. Shuningdek, oʻqituvchi talabalarga Imom al-Buxoriy aynan talabalarining yoshida qanday ilmlarni oʻzlashtirganligi, qayerlarda tahsil olganligi, qanday asarlar yozganligini tushuntirib berishi orqali, ularda faollikni oshirish imkoniyatiga ega boʻladi.

7. Oʻqituvchi talabalarining butun diqqatini jamlab olishi uchun “Aqliy hujum”, “Fikrlarning shiddatli harakati”, “Qor boʻroni” kabi interfaol metodlardan foydalanadi. Bunday metodlar talabalarining butun vujudi bilan mashgʻulotni tushunib oʻtirishlariga yordam beradi. Imom al-Buxoriy asarlarida vatanparvarlik, sadoqatlilik, vafodorlik, oʻzgalarga toʻgʻri munosabatda boʻlish kabi jihatlar aks ettirilgan parchalardan keltirishlarini soʻraydi. Shu bilan birga, milliy anʼanalарimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizning inson kamolotidagi ahamiyatini ochib berishga yoʻnaltirilgan misollar bilan talabalarda milliy iftixor tuygʻusini rivojlanishining didaktik imkoniyatlariga ega boʻladi.

Talabalarda milliy iftixor tuygʻusini rivojlantirish odatda koʻp qirrali jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu bois, dasturning ustuvor yoʻnalishlari sifatida talabalarining jismoniy va axloqiy rivojlanishi belgilab olindi;

- intellektual shakllanishi;
- shaxsiy madaniyati va maʼnaviy qadriyatlarni shakllantirish;
- huquqiy va vatanparvarlikni yuksaltirish;
- estetik va mehnat tarbiyasini amalga oshirish;
- oʻquvchilarning mustaqil hayotiy rejalarini shakllantirish, oilaviy hayotga tayyorgarlikni olib borish zaruriyatidir.

Ushbu bosqichni amalga oshirishda oʻqituvchi belgilab olingan yoʻnalishlar asosida toʻgarak va auditoriya mashgʻulotlarini tashkil etadi.

8. Tinglangan hadislarni takrorlash, hadis haqidagi fikrlarni bildirish. O'qituvchining murojaati shunday bo'lishi mumkin: "Mana, alloma haqida ma'lumotlar bilan tanishdingiz. Hadislardan namunalarni eshitdingiz, u kim yoki nima haqida ekan? "Tushunganingizni izohlab bering". Hadisning qaysi jihati sizga ma'qul keldi? Nimaga?"

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning Madinada turgan holda o'z vatanlari Makkani sog'inishlarining o'zi vatanga bo'lgan muhabbatlarini ifodalashga kifoya qiladi. Bundan tashqari musulmonning bir yurtga tegishli bo'lishi va uni yaxshi ko'rishi musulmonning musulmonchiligiga h,alaqit qilmaydi. Ba'zida insonda vatanga bo'lgan muhabbat yo'qoladi va buning natijasida undan vatani, xalqi va oilasi yuz o'giradi. Ba'zida esa vatanga bo'lgan muhabbat oshib ketib millatchi bo'lib qolishi mumkin. Musulmon inson esa bu ikki chegaralardan uzoq yurmog'i darkor [48].

Buxoriyning "Al Jome' as Sahih" asarining ikkinchi jildiga kiritilgan 135-bobdan o'rin olgan Hadisi sharifda esa butparast qavmlardan bo'lgan Sumoma otlig' kishining Rasululloh (s.a.v) tomonidan ozod qilinishi va uning musulmon bo'lganligi haqida quyidagicha rivoyat qilinadi: "...Ey , Muhammad, Alloh taolo haqi, Yer yuzida mening uchun Sizning yuzingizdan yoqimsizroq yuz yo'q erdi, mana endi sizning yuzingiz men uchun eng mahbub yuz bo'lib qoldi. Alloh taolo haqqi, mening uchun sizning yurtingizdan ortiqroq yoqimsizroq yurt yo'q erdi, mana endi sizning yurtingiz men uchun eng mahbub yurt bo'lib qoldi" [18. 373-b].

Boshqa bir hadisi sharifda esa, kofir bo'lganlar va iymonsizlar uchun bu dunyoda beriladigan eng og'ir jazo vatanlaridan surgun qilinmoq ekanligi aytiladi. Xususan, Urva ibn az-Zubayrning rivoyat qilishicha, bu voqea Badr voqeasidan olti oy burun, Uhud jangidan avval sodir bo'ldi. Alloh taolo bu haqda oyat nozil qildi. Uning ma'nosi: "Ahli kitoblardan bo'lgan kofirlarni vatanidan haydab chiqargan zot Alloh taolodir.

Uzoq muddat ilohim gurkiratsin,

Kuyib atrof, qolmasin hatto tikan!

Omon qolgay qaysi yer, so'ng bilursen,

Kim zarar ko‘rmay qolur, kim bewatan!” [19. 16-b].

Ushbu bosqichda talabalarning keltirilgan ma‘lumotlar va hadislardagi Vatanga bo‘lgan ijobiy munosabatning ma‘qullanganligini anglab yetishishlari uchun o‘qituvchi qo‘shimcha hayotiy misollardan foydalanadi. Bu talabalarda keltirilgan axborotlarni bugungi kunga bog‘lay olish (prezentizm) ko‘nikmalarini rivojlanishiga olib keladi.

9. Keltirilgan axborot va hadislarini sharhlab bo‘lgandan keyin o‘qituvchi talabalarga ma‘lumotlarni va hadislarini eng ta‘sirli jihatlarini kichik guruhlariga bo‘linib toppish. Anu shu bosqich talabalarni ma‘lumot izlashga, kitoblarni varaqlashga, allomalarimiz ma‘naviyatiga yaqinlashtiradi – ular kitoblarni varaqlash zavqi bilan birga ajdodlardan faxrni tuyadilar.

10. Mustaqil ishlash uchun tavsiya beriladi: tinglangan mavzudagi asarlarni yoki tarixiy zot (voqea) tasvirlangan asarlarni toppish. Mustaqil o‘rganish uchun “Flipped classroom” texnologiyasidan foydalaniladi. Bunda o‘qituvchi talabalarga milliy iftixor tuyg‘usi shakllari aks ettirilgan asar va hadislardan namunalar keltirishni tavsiya qiladi.

Auditoriyadan tashqari ishlarning birlashtiruvchi ish shakllariga olimlar, jamoat arboblari, din vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etish kiradi. Talabalar bilan tarixiy obidalarga ekskursiyalar tashkil etish, ularni xalqimizning boy ma‘naviy-moddiy merosi bilan tanishtirish, milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish shular jumlasidandir.

Talabalar bilan darsdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etishga oid namuna keltiramiz:

Mavzu. Hadis va muhaddislar haqida

Mashg‘ulotning maqsadi: Imom al-Buxoriy asarlari vositasida hadis va muhaddislar haqidagi ma‘lumotlarni o‘zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini belgilash.

Mashg‘ulotda belgilangan vazifalar:

1) Imom al-Buxoriyning “Al-jome‘ as-sahih” asarida ilgari surilgan asosiy g‘oyalar mazmunini aniqlash;

- 2) Hadissunoslikning asosiy manbalarini tahlil qilish;
- 3) Hadis ilmining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish shakllarini aniqlash;
- 4) Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda aksiologik yondashuvning o'rnini izohlash.

1-topshiriq: Tahliliy mushohada:

1. Talabalarda milliy iftixor tuyg'ularini shakllanishida hadis ilmining o'rnini baholash.
2. Mutafakkirlarning milliy iftixor tuyg'ularini shakllanishiga oid pedagogik qarashlarini tahlil qilish.
3. Talabalarda milliy iftixor tuyg'ulari tizimi asosida shakllanishi lozim bo'lgan muhim jihatlarni sanab o'ting va har biriga ta'rif bering.

2- topshiriq: Intellektual "aerobika"

1. Oliy pedagogik ta'lim tizimida ma'naviy qadriyatlarni va hadislarni o'rganishga qanday e'tibor qaratiladi?
2. Aksiologiya ya'ni qadriyatlar deganda nimalarni tushunasiz?
3. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayoni uchun muhim bo'lgan qadriyatlar va tarixiy tajribalar haqida nimalarni bilasiz?
4. Hadis va muhaddislar va uning manbalari haqida nimalarni bilasiz?
5. Siz qaysi manbalarni hadis va muhaddislar haqidagi ma'lumolarni shakllantirishda ko'proq ahamiyatli, deb hisoblaysiz?
6. Ayting--chi, hadislarimizda o'qituvchining qaysi fazilatiga ko'proq e'tibor qaratilgan?
7. Hadis ilmining ta'lim-tarbiyadagi o'rnini qanday baholaysiz?
8. O'qituvchilar tayyorlashda o'qitiladigan tegishli fanlarda Imom al-Buxoriy haqidagi ma'lumotlarning ilmiy-pedagogik merosi haqidagi bilimlar yetarli deb o'ylaysizmi?

3-topshiriq: Taqdimot tayyorlash. "Kasbim faoliyatimda hadislarning o'рни" mavzusida taqdimot tayyorlash. Hadislarni o'rganish va uni pedagogik jarayonda qo'llash mohiyatini baholang.

4-topshiriq: Grafik-organayzerlar bilan ishlash. Ma'lumki, "hadis" va "sunnat" so'zlari muhaddislar o'rtasida bir ma'noda qo'llanilib, Janob payg'ambarimizning aytgan so'zlari, fe'l-atvorlari, axloqlari, taqirlari va payg'ambarlikka qadar bo'lgan hamda payg'ambarlik yillaridagi siyratlarini, ya'ni hayot yo'llarini anglatadi. Rasululloh sallallohu alayhi va sallamning turli sharoitlarda shari'at ahkomlariga oid aytgan so'zlari ham hadis bo'lib, fe'l-atvorlari esa, ul zot qilgan va sahobalar tomonidan naql etilgan amallardir. Uning manbalari qaysilar? Fikrlaringizni jadval asosida to'ldiring.

5-topshiriq: Test topshiriqlari:

1. Milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish bo'lajak o'qituvchilarda qanday xususiyatlarni shakllantiradi?

- a) talabalarda o'zlikni anglashga ko'maklashadi;
- b) talabalarga jismoniy, fiziologik, ruhiy sog'lom bo'lishlariga doir bilimlar beradi;
- c) talabalarda diniy-ma'rifiy bilimlari rivojlanadi;
- d) donishmandlar o'gitlaridan bahramand bo'lish, an'ana, marosim, udumlarni yaxshi bilish va ularga nisbatan sodiqlik, millat tomonidan ma'qullangan axloq me'yorlaridan chetga chiqmaslik, har qanday nomaqbul ishdan tiyila bilishlik kabi insoniylik xususiyatlarini tarbiyalaydi.

2. Hadis ilmi uchun oltin davrni belgilang?

- a) hijriy 3-asr. b) hijriy 5-asr. c) hijriy 7-asr. d) hijriy 9-asr.

3. Movarounnahrda birinchi bo'lib hadis to'plami ta'lif etgan muhaddis kim?

- a) Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy
- b) Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy
- c) Imom at-Termiziy
- d) Abdulloh ibn Amr ibn Anas.

4. "Muhaddis" so'zining ma'nosi nima?

- a) xalq va donishmandlarning yoshlarni davr talablariga muvofiq kishilar qilib etishishlarida ahamiyatli bo'lgan g'oyalarni to'plovchi shaxs;

b) ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llangan usul, vosita va tajribalar yig'indisini so'zlab beruvchi shaxs;

c) "Muhaddis (arabcha — الراوي — rivoyat qiluvchi, hikoya qiluvchi) — sanad zanjirida turib, o'zidan oldingi kishidan hadis eshitib, rivoyatning barcha shartlariga rioya qilgan holda o'sha hadisni keyingilarga aytgan kishi. Roviyning rivoyatiga uning talab darajasida bajarishi va adolatiga qarab baho beriladi" [112].

d) Muhaddis (arab. - hadis rivoyat qiluvchi) - hadislarni to'plash, saralash va sharhlash bilan shug'ullangan ilohiyotchi. Muhammad (S.A.V) vafotidan keyin hadislarni to'plash keng a'nanaga aylana boshlanishi natijasida ilohiyotchilarning bir qismi bu sohada uxtisoslashgan va ular muhaddislar deb nom olgan.

5. Hadis ilmi manbalari yordamida qanday muhim jihatlar tarbiyalanadi?

a) xalqning milliy g'ururi yuksakligi, tarixiy an'analar va urf-odatlarga bo'lgan ijobiy munosabati;

b) tarixiy, ma'naviy meroslarga tayangan holda xalqchil fazilatlar va mustahkam e'tiqod shakllantiriladi;

c) insonlarda sha'riatga muvofiq yashash odob-ahloq va ta'lim-tarbiya shakllanadi;

d) milliy qadriyatlarga muhabbat hissi, millat vakili ekanligidan g'ururlanish, milliy iftixor tuyg'usi, o'zlikni anglash, ona Vatanga munosib farzand bo'lishlik tarbiyalanadi.

6-topshiriq: Jadval bilan ishlash:

Milliy iftixor tuyg'usi sifatlari va shaxsiy sifatlarni o'xshash va farqli tomonlariga e'tibor bergan holda jadvalga yozing.

7-topshiriq: Tushirib qoldirilgan so'zlarni yozib, fikrni to'ldiring:

1. Qadriyatshunoslik ... ong, qadrlash tuyg'usi, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to'plangan ... meroslari to'g'ricidagi bilimlar jamlanmasi hisoblanadi.

2. Bo'lajak o'qituvchilarni to'g'ri tarbiyalash, ularda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda, aksiologik ... muhim omillardan biri hisoblanadi.

3. Aksiologiya qadriyatlar tizimi bo'lib, tadqiqotlarda ularni ikki guruhga ajratib talqin qilingan. Ya'ni ... qadriyatlar, ... qadriyatlar.

4. Aksiologik yondashuv o'zida ta'limning insonparvarligi maqsadini namoyon etgani bois, unda shaxs oliy ... sifatida e'tirof etiladi.

5. Aksiologik ... o'z ichiga insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ma'naviy, moddiy, ilmiy, diniy, badiiy boyliklarni qamrab oladi va erishilgan millat taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutgan tajribalarni jamlaydi.

Mustaqil ishlash uchun vazifa: Lug'at bilan ishlash.

Har bir so'z va birikmaning mazmun va mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi matn tuzing:

- hadis;	- ma'naviy qadriyatlar;
- hadisshunoslik;	- tarixiy qadriyatlar;
- milliy iftixor;	- diniy qadriyatlar;
- aksiologiya;	- kasbiy madaniyat;
- muhaddis;	- kasbiy qadriyat.
- milliy qadriyatlar;	-inson ma'naviyati

Keltirilgan to'garak mashg'ulotlari auditoriya mashg'ulotlari bilan uzviy aloqadorlikni saqlab qolgan holda tashkil etildi. Talabalar dars davomida egallagan bilimlarini mustahkamlashda ushbu to'garak mashg'uloti salmoqli hissa qo'shdi. Buni tajriba-sinov ishlari davomida ham kuzatdik.

Demak, oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalarda milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirishda Imom al-Buxoriy asarlaridan foydalanish orqali ularning millat vakili sifatida aksiologik bilimlarni yaxshi o'zlashtirib, kelajakda muallimlik faoliyatiga tatbiq etishga oid bilimlarni egallashlariga erishishlari bilan birga millat oldidagi o'z zimmasidagi mas'uliyatni ham yuqori darajada tuyishlariga erishamiz.

Shuningdek, ommaviy tadbirlarning tashkil qilinishi, talabalar o'rtasida Imom al-Buxoriy hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar, ko'rgazmalar bayram ruhida o'tkaziladi. Aynan shu bayramlarni o'tkazish asnosida Mustaqillikka, Vatan

ozodligi va uning tarixiga, ajdodlarning ulug' ishlariga bag'ichlangan she'rlar yod oldiriladi, ijro etiladi, alloma asarlaridan foydalanilgan holda ayrim epizodlar sahnalashtiriladi, turli viktorina, bellashuvlar o'tkaziladi. Aynan Imom al-Buxoriyning "Al Jome' as Sahih" asari asosida "Zakovat" intellektual o'yinlari tashkil etiladi. Natijada talabalarda milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash, tinchlikni qadrlash, Vatanni sevish, milliy iftixor tuyg'usi rivojlanadi, eng asosiysi, talabalarining bir-birlariga ijodiy ta'siri tufayli jamoaviy tarzda milliy iftixor tuyg'usining tarkib topishiga turtki beradi.

§2.3. Imom Al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalari

Davlatimiz rahbarining 2019-yil yakunida Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasi tom ma'noda tarixiy voqelik bo'ldi. Uning tarixiyligi shundaki, Yurtboshimiz davlat va jamiyat hayotiga oid barcha jabhalarda tub burilish islohotlarini yangi bosqichga ko'tarish yuzasidan o'z mulohazalarini bildirdi va jamiyat tuzilishida ma'rifat, insoniylik, adolat, eng asosiysi, halollik me'zonlari hal qiluvchi ahamiyat kasb etishiga urg'u berildi. Ushbu murojaatnomada "...jamiyatning barcha a'zolari "Halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Lekin o'sha vaktsinani qayerdan olamiz? degan savolni o'rtaga tashladi Prezident [110]. Ko'ndalang qo'yilgan bu savolga jamiyatdagi turli soha, tabaqa vakillari turlicha, lekin mohiyatan bir-birini to'ldiradigan mulohazalar, takliflar bildirishdi. Biz ularning barchasini ma'qullagan holda aytilgan bu xitob bevosita bizning mavzuimizga ham daxldor deb bilamiz. Chunki milliy iftixor tuyg'usi o'tmishda bu millat qanday bo'lgani, bugun qanday ma'naviy darajada turgani va kelajakda bu borada nimani ko'zlayotgani va, ta'bir joiz bo'lsa, qanday bo'lishi kerakligini belgilab beradi. Demakki, milliy iftixor millatning, butun mamlakat xalqining vijdoniga bevosita murojaat qiladigan, uni uyg'otadigan, o'tmish ibratini va hikmatini bilan jamiyat a'zolarini, eng avvalo, yosh avlodni aytilgan "halollik vaksinasi bilan

emlash”ga qodir omildir. Bu avvalo ta’limga bevosita aloqadorligini hamma bilib, tushunib turgani istisnosiz jamiyat oldida o’zini mas’ul deb bilgan har bir yurtdoshimizga kundek ayon haqiqat. Maqsad va intilayotgan marralar qanchalik yuksak bo’lsa, unga yetishish usul, vosita va qurollari ham shunga yarasha bo’lishi, muvofiq kelishi kerak.

Talabalarda milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirishda ularni mustaqil fikrlash, o’tmish va bugungi voqelikka o’z qarash va munosabatini shakllantirishda talabalarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bu jarayonda pedagogik qo’llab-quvvatlash asosan talabalarga yo’naltiriladi. Bunda talabalarning Imom al-Buxoriy hayoti va ijodi, Al-Jome’ as Sahih asari, ularning bugungi kundagi ma’naviyatimizga bo’lgan munosabatini o’rganish muhim o’rin egallaydi.

Pedagogika fanlari doktori, professor B.Xodjayev ta’kidlaganidek, “O’quvchilarning rivojlanish jarayonini pedagogik jihatdan qo’llab-quvvatlashda ularning munosabatlarini sinchiklab o’rganish, tuzatish, tiklash va rivojlantirish nihoyatda zarur. O’quv-tarbiya jarayonida o’quvchilarni qo’llab-quvvatlashning asosiy maqsadi, ularning intellektual, jismoniy, ma’naviy-madaniy va ijtimoiy jihatdan bir maromda rivojlanishlarini ta’minlashdan iborat” [95. 177-182-b]. Shuningdek, talabalarda milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirishda ularni pedagogik qo’llab-quvvatlash uchun keng miqyosda ishlarni amalga oshirishlari lozim bo’ladi. Bunday ishlar sirasiga “...pedagogik muhitni sog’lomlashtirish; o’quvchilarning rivojlanishlarini yakka va guruhli tarzda tashxislash; o’quvchilarga yakka tartibda va guruhli tarzda maslahatlar berish; o’quvchilarni yakka va guruhli tarzda rivojlantiruvchi ishlarni tashkil qilish; o’quvchilar bilan yakka va guruhli tarzda ular faoliyatini yaxshilash, tuzatish bilan bog’liq ishlarni amalga oshirish; ota-onalar, o’qituvchilar, o’quvchilar va o’quv yurti ma’muriyati bilan ularning pedagogik-psixologik bilimdonliklarini oshirish maqsadida ma’rifiy tadbirlar o’tkazish” [85] kabilar kiradi.

Olimning ushbu fikrlari garchan o’quvchilarga qaratilgan bo’lsa-da, biz uni talabalarning o’quv va tarbiya faoliyatida ham samarali ekanligini kuzatdik.

Talabalarni pedagogik qo'llab-quvvatlashda olim tomonidan sanab o'tilgan omillar, pedagogik tizim, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, darsdan tashqari tadbirlarni rejalashtirish o'zaro mustahkam aloqadorlikni ta'minlaydi hamda belgilangan maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Professor B. Xodjayev o'zining doktorlik dissertatsiyasida "o'quvchilarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini rag'batlantirishga yo'naltirilgan pedagogik fasilitatsiya asosida mustaqil ishlarni tashkil etish texnologiyasi ishlab chiqqan" [95. 182-b]. Olimning ushbu texnologiyasi uchta – *motivatsion, kognitiv-operatsion, faoliyatga doir* bosqichlarda hamda to'rtta – *tanishuv, tushunish, analiz, sintez* darajalarida ifoda etilgan. Ishlab chiqilgan ushbu texnologiya o'quvchilar bilan mustaqil ta'limni tashkil etish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, undan auditoriya mashg'ulotlari va auditoriyadan tashqari to'garak mashg'ulotlarda ham foydalanish mumkin. Tadqiqot ishimizning tajriba-sinov qismida dissertatsiyada belgilab olingan maqsadni amalga oshirishda olim tomonidan ishlab chiqilgan texnologiyaning samarali ekanligi va milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda didak ta'minot vazifasini bajarishi kuzatildi.

O'z tadqiqot ishimizda ushbu texnologiyadan talabalar bilan dars va to'garak mashg'ulotlari jarayonida foydalandik. Texnologiyaning afzalligi tanlangan mavzuga oid materiallarning murakkabligi, talabalar tushunishidagi qiyinchiliklar, ularning ma'lumotlarni tushunib yetishlari uchun materiallar texnologiyada belgilangan bosqichlar ketma-ketligi asosida foydalandik (2.2.2-jadval).

2.3.1-jadval

Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyasi

Bosqich lari	Darajalari			
	Tanishuv	Tushunish	Analiz	Sintez

Motivatsion	O'qituvchi	Imom al-Buxoriy, uning asarlari, Hadislardan xabardorligini aniqlash maqsadida blits-savollar tayyorlaydi.	Imom al-Buxoriy asarlari va Hadislari mazmunini milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltiriladi	Imom al-Buxoriy hayoti, "Al Jome' as-Sahih" asarini to'la namoyon etishga yo'naltirilgan keyslar banki ishlab chiqiladi	Berilgan keys, muammoli, hayotiy vaziyat, hadislar sharhiga oid qo'shimcha fikr-mulohazalar yuritishning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqiladi
	Talaba	O'qituvchi tomonidan tayyorlangan savollar asosida talabalarning Imom al-Buxoriy hayoti va ijodi, uning asarlari va Hadislardan xabardorlik darajasi aniqlanadi.	Imom al-Buxoriyning hayoti, yozgan asarlari va Hadislarning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishdagi ahamiyati rag'batlantiriladi	O'qituvchi tomonidan berilgan keyslarni talabalar kichik guruhlarda tahlil qilishadi va uning mazmunini milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga bog'laydilar	Talabalar tomonidan berilgan vaziyatlar va hadislar qo'shimcha fikr-mulohazalar keltiriladi va kichik guruhlarda ifodalanadi
Kognitiv-operatsion	O'qituvchi	Imom al-Buxoriy, uning asarlariga oid asosiy tushunchalar va materiallarni umumiy tarzda taqdim etiladi	Vatanparvarlik, insonparvarlik, sadoqatilik, yaxshilik qilish mavzulariga doir hadislar keltiriladi	Berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishga sharoit yaratib beriladi	Material va topshiriqlarni tahlil qilishga oid ko'rsatma beriladi
	Talaba	Talabalar Imom al-Buxoriy asarlari mazmun mohiyati bilan bog'liq manbalar va materiallar tizimlashtiriladi	Berilgan hadislar sharhlanadi va mavzulari bo'yicha kategoriyalashtiriladi	Talaba topshiriqlarni mustaqil bajaradi va fikr-mulohazalarini guruhda o'zaro tahlil qilishadi	Berilgan material va topshiriqlarga mustaqil fikr (yechim) lari taqdim etiladi
Faoliyatga doir	O'qituvchi	Keltirilgan fikr-mulohazalarni bayon qilish tartibi tushuntiriladi	Tushunilgan bilimlarni namoyon qilish shakllari (og'zaki, yozma, chizma, jadval) taqdim etiladi	Imom al-Buxoriy asarlarini bugungi kun sharoitiga moslashtirish yo'llari tushuntiriladi	Imom al-Buxoriy asarlarining milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishdagi yakuniy fikrlar so'raladi
	Talaba	Dastlabki fikr-mulohazalar bayon etiladi	Talabalar tomonidan egallangan tushunchalar turli shakllarda aks ettiriladi	Talabalar tanishga asar va hadislarini o'zlarining shaxsiy hayotlariga bog'lagan tarzda ifoda etishadi	Talabalar o'zlarini ta'sirlantirgan, motivatsiya bergan va ma'qullangan materiallar borasida umumiy xulosalarini keltiradilar

Texnologiyani amaliyotga tadbiiq etishda Imom al-Buxoriyning "Al- Jome' as-Sahih" asarida keltirilgan Hadislar asosida ko'rib chiqamiz. Al-Buxoriy merosida qo'shniichilik munosabatlariga alohida to'xtalib o'tiladi. Yaxshi qo'shniichilik munosabatlari ulug'lanadi va uni rivojlantirish yoqlab chiqiladi.

Hadisdan: Hazrati Oisha onamiz hikoya qiladilar: "Alloh Rasulidan bir kuni: "Yo

Rasululloh! Mening ikki qo'shnim bor. Bulardan qaysisiga hadya beray?" deb so'radim. Allohning Rasuli: "Qaysi birining eshigi yaqinroq bo'lsa, o'shanga", deb javob berdilar"" (Buxoriy, "Adab", 78) [16]. Bu hadisda qo'shnining haqqi bilan bog'liq qimmatli tavsiya berilgan. Insonning bir emas, bir nechta qo'shnisi bo'lishi aniq. Bularning barchasiga birdek e'tibor berib, sovg'a ulashish juda qiyin. Shunday vaziyatda qanday yo'l tutish kerakligi hadisda ko'rsatilgan. Eng yaqin qo'shniga yaxshilik qilish oqilona tadbirdir. Demak, allomaning inson bu dunyodagi har bir xatti-harakati, o'zida namoyon etgan axloqiy jihatlari uchun oxir-oqibat mukofotlanishi yoki aksincha jazolanishi mumkinligini e'tirof etishi, insonlar o'rtasidagi muruvvat, yaxshilik, mehr-oqibat, ezgulik ravnaqi yo'lidagi da'vatdir.

Hadisni sharhlashda talabalar uni keng doirada tahlil qilishlari, nafaqat qo'shnichilik munosabatlarini mahalla, ovul, tuman, viloyat, respublika miqyosida, shuningdek, davlatlararo qo'shnichilik munosabatlariga ham bog'lash ko'nikmasi belgilanadi. Ya'ni, qo'shnichilik munosabatlarida o'zga xalq va millat vakillarining milliy qadriyatlari, an'analari va madaniyatini hurmat qilish, shu bilan birgalikda o'zining milliy madaniyatini, an'alarini dunyo miqyosida keng ommalashtirishda ham qo'shnichilik munosabatlariga rioya etish muhim ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni, vatanga bo'lgan muhabbat, milliy g'uru, milliy o'zlikni anglash va milliy iftixor tuyg'usini egallashda bag'rikenglik asosida yo'l tutishni unutmaslik lozim.

Shuningdek, hadislar bilan ishlashda, ularning mazmunini to'laligicha ochib berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi belgilandi:

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonida o'zaro muloqotchanlik imkonini beruvchi, shuningdek, talabalarni tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantiruvchi texnologiyalar tanlab olindi. Bunday texnologiyalarga: "SWOT" tahlili, "SCAMPER", "Konseptual jadval", "Teach+ok", "Assisment", "Baliq skeleti", "Blum taksonomiyasi", "FSMU" va boshqalar.

“SWOT” tahlili texnologiyasi yordamida Imom al-Buxoriy asarlarida keltirilgan hadislarini izohlash va shu asosida talabalar milliy iftixor tuygʻusini rivojlantirishdagi oʻrnini belgilash (2.3.1-rasm).

Oʻqituvchi tomonidan masala taqdim etiladi va talabalar ushbu masalani texnologiyaning ketma-ketligi asosida talqin etishadi: Masala: talabalarning maʼnaviy-axloqiy tarbiyasida hadislarining ahamiyati (Hadisdan namuna keltiriladi). *Hadisdan*: 1) Vatan obodligi uchun moddiy va maʼnaviy hissa qoʻshish. Bu haqda Alloh taolo Qurʼoni karimda shunday marhamat qildi: **هُوَ أَنشَأَكُم مِّنَ الْأَرْضِ وَاسْتَعْمَرَكُمْ فِيهَا** yaʼni: “U (Alloh) **sizlarni yerdan paydo qilib, sizlarni uni obod etuvchi etdi**” (Hud surasi 61-oyat) [108].

2) Vatanda fasod va buzgʻunchilik ishlari bilan mashgʻul boʻlmaslik. Bu haqda Qurʼoni karimda shunday marhamat qilinadi: **وَلَا تُفْسِدُوا فِي الْأَرْضِ بَعْدَ إِصْلَاحِهَا** yaʼni: “**Yerni (Alloh xayrli ishlarga) yaroqli qilib qoʻygandan keyin (unda) buzgʻunchilik qilmangiz! Unga (Allohga) ham qoʻrqinch va ham umid bilan duo qilingiz! Allohning rahmati ezgu ish qiluvchilarga yaqindir**” (Aʼrof surasi 56-oyat) [109].

2.3.1-rasm

S (kuchli tomonlar)	
W (zaif tomonlar)	
O (imkoniyatlar)	
T (toʻsiqlar)	

Berilgan hadislarining mazmuni umumiy tushuntirilib oʻtiladi va talabalarga ushbu hadislarining yosh avlodni vatanparvarlik, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid imkoniyatlari hamda bugungi kundagi ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatini SWOT jadvalida ifodalash topshirigʻi beriladi.


“Klaster” texnologiyasi puxta oʻylangan strategiya boʻlib, uni talabalar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlarda qoʻllash

mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni toppish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot mavzusidan kelib chiqib biz klaster texnologiyasidan Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asarini talabalarga tarmoqlarga ajratib o'rganish maqsadida foydalandik.

Texnologiyadan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish so'raladi:

- nimani o'ylagan bo'lsangiz uni qog'ozga yozing! Fikringizni to'liq yoki to'liq emasligini o'ylab o'tirmang;
- yozuvingizni orfografiya yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang;
- belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha yozishdan to'xtamang! Agar ma'lum muddat o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga rasmini chizing, bu harakatni yangi fikr paydo bo'lguncha davom ettiring;
- muayyan tushuncha doirasida imkon qadar yangi g'oyalarni ilgari surish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'liklikni ko'rsating!


Talabalar bilan Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asarini klaster texnologiyasi yordamida o'rganishda unda keltirilgan hadislarni tizimli tushunish uchun mavzularga bo'lib olindi, va talabalar hadislarni o'z faoliyatlariga bog'lashda ushbu mavzulashtirilgan hadislarda foydalanishlari oson bo'lishi kuzatildi (2.3.2-rasm).



2.3.2-rasm. “Al-Jome’ as-Sahih” asarini klaster texnologiyasi yordamida talqin qilinishi

Mana shunday qilib, Imom al-Buxoriyning “Al Jome’ as-Sahih” asari talabalar tomonidan individual yoki guruhlarda o’rganiladi. Bunda talabalar, asar mazmunidan kelib chiqib uni qismlarga va har bir qismlarga tegishli bo’lgan materiallar (Hadis)ni joylashtiradilar. Bu talabalarni asarni chuqurroq o’rganishga zamin yaratadi.

Navbatdagi “FSMU” texnologiyasi talabalarda mustaqil fikrlash, muammo, voqea-hodisa yoki vaziyatlarga nisbatan shaxsiy fikrlarini ifoda etishi, ularda vaziyatni keltirib chiqaruvchi sabablarni o’rganishi va umumlashtirish ko’nikmasini rivojlantirish yordam beradi. Mazkur texnologiya talabalardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o’zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ushbu texnologiyadan hadislarni sharhlash, qiyoslash va talabalarning o’z faoliyatlariga tadbiiq etish imkoniyatlarini oshirish maqsadida foydalanildi. Talabalar tomonidan hadislar qanchalik puxta tahlil qilinsa, mazmuni o’rganilsa, asarlarning inson ma’naviy kamolotida o’rnini anglab yetsalar, ularda o’zligidan faxrlanish, g’ururlanish va milliy iftixor tuyg’usini tuyish hissi rivojlanib boradi (2.3.3-rasm).



FSMU texnologiyasidan dars va darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida foydalanishning didaktik imkoniyati:

Maqsad: Ushbu texnologiya talabalarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

Texnologiya bir necha bosqichda o'tkazildi.

1-bosqich.

- o'qituvchi talabalar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

- o'qituvchi to'garak mashg'ulotida avval har bir talaba yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlalishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi;

- mashg'ulot davomida har bir talaba o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2-bosqich.

Har bir talabaga FSMU texnologiyasining 4-bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatilgan:

F- fikringizni bayon eting.

S- fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M- ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

Har bir talaba yakka tartibda qog'ozdagi FSMU-ning 4-bosqichini o'z fikrlarini yozma bayon etgan holda to'ldiradi.

3-bosqich.

Har bir talaba o'z qog'ozlarini to'ldirib bo'lgach, o'qituvchi ularni kichik guruhlariga bo'linishlarini iltimos qiladi yoki o'zi turli guruhlariga bo'lish usullaridan foydalangan holda talabalarni kichik guruhlariga bo'lib yuboradi;

o'qituvchi har bir guruhga FSMU texnologiyasining 4-bosqich yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

o'qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda 4-bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi.

4-bosqich.

kichik guruhlarda avval xar bir tinglovchi o'zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a'zolarini tanishtirib o'tadi. Guruh a'zolarining barcha fikrlari o'rganilgach, kichik guruh a'zolari ularni umumlashtirishga kirishadi;

guruh a'zolari FSMU ning 4-bosqichini har biri bo'yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko'radilar;

Fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir talaba o'z fikrlarini himoya etishi, isbotlanishi mumkin.

5-bosqich.

kichik guruhlar umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: guruh vakili har bir bosqichni alohida o'qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba'zi bo'limlarni isbotlashi, ya'ni guruhlarning aynan nima uchun, shu fikrga kelganini aytib o'tishi mumkin.

6-bosqich.

o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o'z munosabatini bildiradi;

quyidagi savollar bilan talabalarga murojat qiladi:

ushbu trening yordamida Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asaridan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o'rgandingiz?

ushbu texnologiyani o'quv jarayonida qo'llanilishi hadis ilmini o'rganishda qanday samara berdi?

ushbu texnologiyani qo'llanilishi talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanishiga qanday hissa qo'shadi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi asosida talabalarga alloma asarlari va hadislarini to'g'risida nimani o'rgatadi?

ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin.

Talabalar tomonidan oson qabul qilinadigan, qo'llash samarali bo'lgan texnologiyalardan "Skarabey" texnologiyasidir, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U talabalarning ta'lim va hayotiy tajribalaridan foydalanishni ko'zda tutadi, refleksiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Imom al-Buxoriyning "Al-Jome' as-Sahih" asarida keltirilgan hadislarini tushunib yetishlari, o'z faoliyatlariga tadbqiq etishlari, talabalarda vatanparvarlik, shijoatlilik, sodiqlik, iftixor tuyg'usini tuyish kabi sifatlarini rivojlantirishda "Skarabey" texnologiyasidan foydalanildi:

mashg'ulot boshida – o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida ("Aqliy hujum" dan foydalanish, ya'ni talabalardan Imom al-Buxoriy haqida va uning asarlarida keltirilgan hadislardan namunalar so'raladi);

materialni o'rganish jarayonida – hadislarining mohiyati, mazmuni, hadislar orasidagi bog'liqlik, vatanparlik xarakteriga ega jihatlarini aniqlash, hadislarini bugun zamonaviy jamiyat hayotiga moslashtirish ko'nikmalari tarkib toptiriladi;

yakunida – olingan ma'lumotlarni mustahkamlash va umumiy xulosalash.

Texnologiyani turli shakllarda qo'llash mumkin bo'lib, biz tadqiqotimizda belgilangan maqsadlaridan kelib chiqib quyidagicha ifodaladik:

Assotsatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, bunda talabalar hadis ilmini o'rganish, mazmunini idrok qilish, g'oyalar va boshqa hadislar orasidagi mantiqiy aloqani bog'lanadi.

Zanjirlash – talabalarda milliy iftixor tuygʻusini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asarlar, hadislarining ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblashni amalga oshiradilar.

Shuningdek, talabalar bilan toʻgʻarak mashgʻulotlari bilan birgalikda ularda milliy iftixor tuygʻusini rivojlantirishda maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarni tashkil etish orqali ham erishiladi. Tajriba-sinov jarayonida talabalar bilan tashkil etilgan xuddi shunday tadbirlardan birining loyihasini keltiramiz (2.3.4-rasm):

2.3.2-jadval

“Imom Al-Buxoriy-hadis ilmining sultoni”

mavzusidagi esselar tanlovi tadbir loyihasi xaritasi.

Mavzu:	“Imom Al-Buxoriy-hadis ilmining sultoni”	
Maqsadi	Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuygʻusini rivojlantirish texnologiyalarini oʻrgatish.	
Kutiladigan natijalar:	- “Taʼrifdan taʼrif” usuli yordamida hadisga berilgan taʼriflardan shaxsiy taʼrifini shakllantiradilar; - talabalar Pedagogika modulida egallagan maʼlumotlariga tayangan holda “Tushuncha va izoh” shaklida aks ettiradi; - Guruhda ishlash. “Qadam-baqadam” texnologiyasi asosida muhaddis Imom al-Buxoriy haqidagi bilimlarini tizimlashtiradilar; - Raviy va muhaddislar haqidagi bilimlarini mustahkamlaydilar; - “Bugun men mashgʻulotda...” refleksiya vositasida oʻzlashtirganlarini mustahkamlaydilar. - Talabalarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash jarayoni rivojlanadi. - shaxsga oid subyektiv fikrlarini bildiriladi. - individual taassurot va mulohazalaridan yoritadi.	
Mashgʻulotning borishi		
Bosiqchlari	Qoʻllaniladigan texnologiya (usul, mashq)	Sarflanadigan vaqt
1-bosqich: Motivatsion	“Taʼrifdan taʼrif” usuli asosida toʻgʻarak mashgʻulotlarida oʻzlashtirgan maʼlumotlari asosida hadis tushunchasiga taʼrif beradilar. Har bir taʼrif qisqa muddatda eshtilishiga erishiladi. 5-6 ta taʼrifdan soʻng “Kimning taʼrifi boshqacha”- degan savol asosida boshqa taʼrif elementlari tahlil etiladi.	10 daqiqa
2-bosqich: Refleksiv bosqich	Muhaddis Imom al-Buxoriy haqidagi “Tushuncha va izoh” kabi ustunlarga bilganlarini yozadilar. Talabalarga internetdan foydalangan holda topshiriqni bajarishlariga ruxsat beriladi. Soʻngra har bir juftlik ixtiyoriy juftlik yoniga	20 daqiqa

	borib, yozganlarini o‘zaro tahlil qiladi va esseni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Shu tarzda parallel ravishda har bir juftlik boshqa juftlik bilan o‘zaro fikr almashadilar.	
3-bosqich: Yangi mavzuni o‘zlashtirish	Talabalar ishchi matnlarda berilgan ma’lumotlarni o‘qiydi, tushunganlarini yozadilar. Falsafiy, tarixiy-biografik mavzuni o‘zlashtiradi.	35 daqiqa
4-bosqich: Refleksiv.	Doskadagi “Venn diagrammasi”ga talabalar ixtiyoriy ravishda chiqib, bilganlarini yozadilar.	10 daqiqa
5-bosqich: Yakuniy xulosa.	“Men bugun mashg‘ulotda...” tugallanmagan jumlani bir-birini takrorlamagan holda fikrlar aytish orqali har bir talaba to‘garak mashg‘ulotida o‘zlashtirganlarini 1 ta so‘z bilan aytgan holda o‘z xulosalarini bildiradilar.	5 daqiqa

Xullas, talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishga qaratilgan dars va darsdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlari, metodlar, texnologiyalar, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning mantiqiy uzviy aloqadorligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etishi kuzatildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim jarayonida talabalarning milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy asarlaridan turli didaktik shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun Imom al-Buxoriy asarlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va shu imkoniyatlar asosida uning ustuvor yo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va o‘quv mashg‘ulotlariga aksiologik yondashuv asosida tashkil etilishi talabalar milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirish texnologiyalari samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

1. Bo‘lajak o‘qituvchilarda Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishda alloma asarlari va hayot yo‘li mavzulariga aloqador asarlarining tasnifidagi namunalar haqidagi matnlar, vatanparvarlik, sadoqatlilik, halollik, o‘zgalarga yordam ko‘rsatish kabi jihatlarni tarbiyalashga qaratilgan hadislar aks etgan manbalarni tizimli tahlil asosida o‘rganish orqali

ta'lim jarayonida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda tizimlilikka erishiladi va bu maqsadga erishishning metodik omili bo'lib xizmat qiladi.

2. Imom al-Buxoriyning milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish mavzusiga yaqin bo'lmagan boshqa asarlari va hadislarini o'rganish orqali har qanday mavzudagi materiallar mantiqiy bog'lanish bilan mazmunan bir-biriga bog'lanadi va ko'zlangan maqsadga yo'naltiriladi. Bunda ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hamda iqtisodiy voqelikning ayni paytdagi holati bilan uning tarixiy ildizlari o'rtasidagi aloqadorlik tiklanadi, o'qituvchilarning alloma va uning hadislarini to'g'risidagi xabardorligi pedagogik tadbirlar maqsadiga erishishda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish samaradorligini ta'minlaydi.

3. Auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni tashkil etishda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish bevosita auditoriya mashg'ulotlaridagi bu borada olib borilgan ishlarning uzviy davomi, mustahkamlovchi omili bo'lib, pedagogik amaliyotda yakka tartibdagi, to'garaklar, birlashtiruvchi va ommaviy tadbirlar kabi eng keng tarqalgan shakllarda yo'lga qo'yiladi hamda dars mashg'ulotlarida bo'lgani kabi o'ziga xos bosqichlarda tizimli tarzda amalga oshiriladi.

4. Imom al-Buxoriy asarlarini mustaqil o'rganish va tushunishda reflektiv ko'nikmalar yetakchi indikator sifatida namoyon bo'ladi va u milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda o'tmish – bugun – kelajak tizimida bo'lajak o'qituvchini o'zligini angalagan ijtimoiy sub'yekt sifatida kamol topishiga turtki beradi.

5. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy asarlaridan keng foydalanish imkonini beruvchi to'garak mashg'uloti dasturi asosiy material berishi aniqlashtirildi va yuqoridagi fanlar esa dastur bilan integratsiyani yo'lga qo'ygan holda talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish maqsadini amalga oshirishda yordamchi, mustahkamlashga xizmat qiluvchi vosita vazifasini bajardi.

III-BOB. AL-BUXORIY ASARLARI VOSITASIDA TALABALAR MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI RIVOJLANISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI

§ 3.1. Al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlanganlik mezonlari, ularni baholash ko'rsatkichlari va darajalari

Oliy ta'lim muassasalari oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy talablar talabalarni xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalashni taqozo qiladi. Chunki, "Biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasini bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki, qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz"¹. Prezidentimiz tomonidan bildirilgan bunday fikrlar bizning tadqiqot ishimizning bugungi kunda ta'lim oldidagi dolzarb muammolardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Oliy ta'lim jarayonida Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishi samaradorligini aniqlash, uning dolzarbligini amaliy isbotlash, olingan ilmiy xulosalarning to'g'riligini dalillash, tadqiqot ishidan ko'zlangan maqsad va vazifalarning ahamiyatini amaliyotda kuzatish uchun tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish ularning mamlakat taraqqiyotida o'z mas'uliyatlarini his etishlari, moddiy va ma'naviy merosimizdan o'rinli foydalanish, vatanparvarlik, sadoqatlilik kabi sifatlarini rivojlanishini belgilaydi. Tadqiqot davomida talabalarda milliy iftixor tuyg'usining rivojlanganligining yuqori darajasini ularni Imom al-Buxoriy asarlarini o'rganish, hadis ilmi bilan shug'ullanish, dars va darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda bunda sharoit yaratish orqali rivojlantiriladi. Bu talabalar tomonidan to'garak mashg'ulotlari topshiriqlari

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги боскичга кутарамиз. Тошкент - "Ўзбекистон" нашриёти, 2017 йил, 530-бет.

– alloma asarlari, shu jumladan hadislar, hayoti va ijodi, materiallarning audio va video shakllarini tushunish natijasida amalga oshadi.

Tadqiqot ishining birinchi va ikkinchi boblarida Tarix va boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalarining nazariy-metodologik jihatlari, tarixiy-falsafiy tajribalar, pedagog-psixologlarning ilmiy qarashlarini yoritishga harakat qilindi. Shu bilan birgalikda tadqiq qilinayotgan muammo doirasida interfaol metodlar tavsifi, talabalarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari, hozirgi paytda Imom al-Buxoriy asarlarining ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning tahliliy natijalari hamda ularning amaliyotdagi holati, ilg'or pedagogik tajribalarning o'rganilishi masalalari ko'rib chiqildi. Bu esa talabalarda Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda maxsus pedagogik tizim yaratilishini ilmiy metodik jihatdan asoslashga imkoniyat berdi.

Mazkur bobda biz Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish tizimini bayon qilamiz. Ushbu bobda dastlab eksperimental ta'limiy-tarbiyaviy dastur mazmunining tashkiliy masalalari o'z aksini topgan. Tajriba-sinov natijalari ishlarning aynan Imom al-Buxoriy asarlari asosida tashkil etilganligi, talabalar o'rtasida o'zaro faol muloqotni ta'minlanganligi, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etilganligi, to'g'arak mashg'ulotlarining fan mavzulariga bevosita mantiqiy ulanganligi bilan belgilanadi.

Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlanganlik darajasini diagnostika qilish vazifalari belgilab olindi. Bular:

- 1) ta'lim sub'yekti qatnashadigan diagnostic mashg'ulotlar uchun shart-sharoit yaratish;
- 2) talabalarining ma'naviy qiyofasidagi o'zgarishlarni aniqlash;
- 3) qo'yilgan maqsadlarning rejalashtirilgan davrlarda olingan natijalar bilan o'zaro nisbatini aniqlash.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi:

1. Tayyorgarlik bosqichi. Ushbu bosqichda tadqiqot mavzusini ilmiy metodologik o'rganish, asosiy tushuncha bo'lgan milliy iftixor tuyg'usi hamda talabalarda uni rivojlantirishga doir adabiyotlar, tadqiqot ishlari, internet manbalarida keltirilgan materiallar o'rganilib tahlil qilindi. Jumladan, A. Zunnunova, O'. Tolipovning "Milliy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini shakllantirish"², U.I. Mahkamovning "Yuqori sinf o'quvchilarida axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari"³, N. Ortiqovning "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish", B. Xodjayevning "Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashtirish didaktik ta'minot asosida rivojlantirish"⁴ va yana boshqa psixolog, pedagog va tarixshunos olimlarning tadqiqot ishlarida, o'quv qo'llanma va maqolalarida yoritib berilgan ilmiy-pedagogik asoslarga tayaniladi.

Shuningdek, tadqiqot mavzusiga doir bir qator xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham tahlil etilib, har bir millat vakillarining o'z millatiga, yashab turgan vataniga nisbatan o'zlikni saqlab qolish, milliy an'analarga sodiqlik, vatanparvarlik kabi tushunchalar ochiq berilgan.

Tajriba-tadqiqot ishlarida (2022-2023-2024 yillar) Andijon, Namangan va Qo'qon Pedagogika institutining talabalaridan 330 nafari qatnashdi. 2022-2023- yillar umumlashtirish bosqichida talabalarda ilmiy meros na'munalari asosida milliy iftixor tuygularini shakllantirish shakl va metodlari hozirgi kun nuqtai nazaridan ishlab chiqildi. Yoshlarda milliy iftixor tuyg'ularini o'stirishda turli pedagogik metodlardan, jumladan:

- ijtimoiy ongni shakllantiruvchi uslublar;
- faoliyat jarayonida ijtimoiy ongni va tajribalarni shakllantirish uslublari;
- o'zini-o'zi tarbiyalash uslublari;
- rag'batlantirish uslublaridan foydalanildi.

² Зуннунов А., Толипов У. Миллий кадриятлар асосида укувчи шахсини шакллантириш. - Т.: Шарк нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти, 2006. - 94 б.

³ Махкамов У.И. Юкори синф укувчиларида ахлокий маданиятни шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед. фанл. докт. ... дисс. -Т.: 1998. -286 б.

⁴ Ходжаев Б. Умумтаълим мактаби ўкувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириш: пед. фанлари. доктори. ... дисс. –Т.: 2016.

Tajriba-sinov ishlari Andijon davlat pedagogika instituti, Namangan davlat pedagogika instituti hamda Qo`qon davlat pedagogika institutining Tarix yo`nalishi va boshlang`ich ta`lim yo`nalishlari 2-bosqich talabalari respondent sifatida tanlab olindi hamda ushbu yo`nalishga darsga kiruvchi professor-o`qituvchilari bilan birgalikda olib borildi.

Tajriba-sinov ishlarining birinchi bosqichida oliy ta`lim muassasalarining Tarix yo`nalishi va boshlang`ich ta`lim 2-bosqich talabalari uchun ishlab chiqilgan o`quv reja, fan dasturlari va sillabuslari tahlil qilindi, ularda talabalarda Imom al-Buxoriyning asarlari, hadisshunoslik ilmi hamda milliy iftixor tuyg`usini rivojlantirishga oid materiallar va mavzularning yetarli ekanligi o`rganildi. O`rganish jarayonida Imom al-buxoriy, uning asarlari va hadislarga oid ma`lumotlar umumiy tarzda berib o`tilganligi, umumiy pedagogika fanining II modulida (4-semestr) alloma va uning hayoti, ijodi, hadislari to`g`risida mavzuning rejasi sifatida keltirilgan. Dinshunoslik, Falsafa fanlarida asosan Islom dini mavzusida hadislarga to`xtalib o`tilgan bo`lib, Imom al-Buxoriy haqida deyarli materiallar keltirilmaganligi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishining dastlabki davrlarida talabalar bilan ularning Imom al-Buxoriy, asarlari va hadislar borasidagi bilimlarini aniqlash maqsadida savolnoma ishlab chiqildi va talabalar bilan ushbu savolnoma o`tkazildi:

1. Hadis ilmi haqida nimalarni bilasiz?
2. Imom Buxoriy ilmiy merosi orqali qanday ijobiy sifatlarni uyg`otish mumkin?
3. Darslar jarayonida hadislar va ularning tahlili haqida bilimlar beriladimi?
4. Imom Buxoriy kim va u haqida nimalarni bilasiz?
5. O`qituvchilar tayyorlashda o`qitiladigan tegishli ma`lumotlarda Imom al-Buxoriy haqidagi ma`lumotlarning ilmiy-pedagogik merosi haqidagi bilimlar etarli deb o`ylaysizmi?
6. Imom Buxoriy vatandoshingiz sifatida o`zingizda qanday g`urur tuya olasiz?

7. Xorijiy mamlakatlarda imom Buxoriy merosini o`rganishga qay darajada e`tibor berilgan?

8. Imom Buxoriy nomini abadiylashtirish uchun xorijda nimalar qilingan?

9. Hadis ilmining ta`lim-tarbiyadagi o`rnini qanday baholaysiz?

10. O`zingiz qancha hadis bilasiz?

Savollarga javob berishda talabalar umumta`lim maktabda olgan bilimlari, kitoblardan, ijtimoiy tarmoqlardan, turli ma`naviy-ma`rifiy tadbirlarda eshitgan ma`lumotlariga tayanib javob berishdi. Shuningdek, ulardan: milliy g`urur nima? Milliy o`zlikni anglash nima? Vatanparvarlik nima? Milliy iftixor nima? Kabi savollar ham berildi. Talabalar tomonidan milliy iftixor tushunchasiga quyidagicha javob berildi: milliy iftixor – bu, har bir insonning milliy odatlarimizdan qoniqish hissining mavjudligi, an`analarimizga sodiqlik, vatanni sevish, millatga xos sifatlarni o`zida mujassam etish, deb izohlandi. Milliy qadriyatlar: adolatparvarlik, fidoiylilik, sabr-qanoat, vatanparvarlik kabilardir.

Tajriba-sinov davrida, shuningdek, barcha oliy ta`lim muassasalarida ham xuddi shunga o`xshash natijalar qayd etildi. Oliy ta`lim professor-o`qituvchilarida dars loyihasini yoki ma`naviy tadbirlarni ishlab chiqishda aynan talabalarning milliy iftixor tuyg`usining rivojlanishi bo`yicha alohida maqsad bilan ishlar tashkil etilmaganligi bois talabalarning javoblari va natijalari bir-biriga o`xshash bo`ldi.

2. Shakllantiruvchi bosqichi. Mazkur bosqichda Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg`usini rivojlantirishning mualliklik modelini tadbiq etish, milliy iftixor tuyg`usini rivojlantiruvchi metodik shart-sharoitlarni yaratish, milliy iftixor tuyg`usini rivojlantirish texnologiyalarini jarayonga yo`naltirish, ishlab chiqilgan to`garak mashg`ulotlarini o`tkazish, tajriba-sinov ishlarining shakllantiruvchi bosqichidagi oraliq natijalari tahlili hamda milliy iftixor tuyg`usini rivojlantirishda Imom al-Buxoriy asarlarining metodik imkoniyatlarini amaliyotda qo`llash shartlarini aniqlashtirib olish.

Tajriba-tadqiqot mobaynida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasidan unumli foydalanishni ham talab etildi. Ilmiy meros deganda Imom Al-Buxoriyning

barcha yo'nalishlarda aks ettirilgan tarbiya borasidagi qarashlar, g'oya, iroda hamda an'analar yig'indisi tushuniladi.

Imom Al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllanganlik mezonlari, ularni baholash usullari va vositalarining bosh maqsadi va vazifasi har jihatdan to'la kamolotga erishgan, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratiladi. Barkamollik esa yoshlarni aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat hamda nafosat jihatdan yetuklikni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchi va yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllanganlik mezonlari, ularni baholash usullari va vositalarining qamrovi nihoyatda keng, bog'oyat serqirra va serjilodir.

Imom Buxoriy asarlari namunalarida komil inson g'oyasi, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk entsiklopedist-olimlar : Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, Navoiy kabi mutafakkirlarning komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlari ham ilgari surilgan g'oyalar asosida vujudga kelgan va jamiyat taraqqiyotiga yangi ma'naviy imkoniyatlar izlash maqsadlari bilan bog'langan. Buxoriy fozil shahar aholisi haqidagi g'oyalarini ilgari surar ekan, shaxsning ma'anviy kamolotini adolatli jamiyat qurishning asosiy sharti deb hisoblagan.

Komil inson bu- ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi, o'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o'z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir. «Komillik — mehr muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko'plab asl insoniy hislat va fazilatlarining majmuidir». Komil inson — qullik, mutelik, boqimondalikdan batomom xolos bo'lgan shaxsdir.

Imom Buxoriy asarlarda ulug'lanadigan fazilatlar: fidoiylilik, matonat, sabr-qanoat va boshqa axloqiy kategoriyalar o'quvchi – yoshlar tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Adabiyotlardagi tavsiflarni umumlashtirib, biz ushbu fazilatlariga quyidagicha tavsif yasaymiz:

Fidoiylilik- axloqiy kategoriya bo'lib, fors tilidagi «fido» o'zagi asosida tashkil qilingan so'zdir. «Fidoiylilik»- baxshida etmoq, fido aylamoq, o'zgalar

uchun jonini baxshida qilish, jonini ayamalik kabi ma'noni bildiradi. Bugungi kunda «fidoiylilik»-keng ma'noda o'z kuch-quvvatini xalq manfaatlari yo'lida ayamay mehnat qilish, o'zgalar g'aminini yeyish, kerak bo'lsa Vatani, eli uchun jonini fido qilish kabi xislatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Rus tilidagi «altruizm» so'ziga sinonim tariqasida qaralishi mumkin. Lekin nazarimizda, fidoiylilik yanada teranroq, yanada kengroq ma'noga ega.

Sabr-qanoat-axloqiy kategoriya sifatida qaraladi. Arab tilidan olingan bo'lib, «sabr»-«chidam», qanoat etmoq, ya'ni bor narsaga, mavjud realikka bardosh bermoq ma'nosini anglatadi.

Matonat-mardlik, javonmardlik namunasi sifatida tan olingan axloqiy kategoriya. Har bir zamonda va har bir makonda mardlik, matonat, javonmardlik insonga xos bo'lgan go'zal fazilat sifatida qaralgan. Jahon adabiyoti sahifalarida yorqin yulduz bo'lib porlagan va porlayotgan har bir yozuvchi albatta bu mavzuni kuylagan va ta'rifini berishga harakat qilib kelishmoqda.

Imom al-Buxoriyning ilmiy merosi vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllanganlik mezonlari, ularni baholash usullari va vositalaridan foydalanish orqali talabalarga milliy qadriyatlarni singdirish va milliy g'ururni tarbiyalash tizimi

– Imom Al-Buxoriyning asarlari vositasida talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllanganlik mezonlari, ularni baholash usullari va vositalari asosida talabalarga milliy qadriyatlarni shakllantirish tarbiyalanuvchi ruxiyatiga muayyan suratda ta'sir qilish jarayoni tushuniladi.

– o'quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda ularning yosh xususiyatlarini inobatga olish zarur.

– o'quvchilarining axloqiylik darajasiga, ularning kelgusi hayotdagi yo'riqnomalariga xalq og'zaki ijodida tarannum etilgan fazilatlar katta ta'sir o'tkazadi.

Sinfдан tashqari tarbiyaviy tadbirlarda xalq og'zaki ijodidan foydalanish printsiplari, uslub va vositalari.

Imom Al-Buxoriyning ilmiy merosi vositasida o'quvchi va yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllanganlik mezonlari, ularni baholash usullari va vositalari asosida o'quvchilarga milliy qadriyatlarni shakllantirishda:

- tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya qoidasi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi qoidasi;
- tarbiyada milliy-madaniy va milliy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi;
- tarbiyada o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish qoidasi; izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi muhim ahaiyat kasb etadi.

Imom Al-Buxoriyning ilmiy merosi vositasida yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllanganlik mezonlari, ularni baholash usullari va vositalari orqali o'quvchilarda fidoiylilik, sabr-qanoat, matonat kabi fazilatlarni shakllantirishda turli tarbiyaviy metodlardan foydalanish joiz. Tarbiya metodlari - tarbiya usullari deb ham yuritiladi. Tarbiya metodi — tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etish shakllari majmuasidir.

Pedagogikada qo'llanilgan usullar:

- tushuntirish;
- namuna;
- nasihat,
- o'git berish;
- qoralash va jazo.

Pedagogikada tarbiya metodlari quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar;
- faoliyat jarayonida ijtimoiy xulq va tajribalarni shakllantirish usullari;
- o'z-o'zini tarbiyalash usullari;

– rag’batlantirish va jazolash usullari.

Shunday qilib, tadqiqot dasturi asosida tajribalarni rejalashtirish, tashkil etish, uning mazmuni, metodikasi ishlab chiqildi. Bosqichma-bosqich ishlab chiqilgan pedagogik asoslarda aniq materiallarda emperik tadqiqotlarda belgilangan natijalarga erishildi.

Tajriba davomida Andijon pedagogika instituti talabalari o’rtasida “Imom Buxoriy-muhaddislar sultoni” kabi tadbirlar o’tkazildi. Tadbirlar natijalaridan shu narsa aniqlandiki, tizimli tarbiyaviy ishlar olib borilganda, talabalarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg’ulari oshadi. Ularda matonat, fidoiylilik, sabr-qanoat kabi fazilatlar shakllanadi.

3. **Umumlashtiruvchi bosqich.** Tarix yo’nalishi talabalarida Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirish texnologiyalari yuzasidan olib borilgan ishlarning kamchiliklari aniqlandi va tuzatildi. Tajriba-sinov ishlarining natijalari matematik-statistika metodlari yordamida tahlil qilindi.

Ilmiy-tadqiqotni amalga oshirishda qo’yilgan vazifaga binoan Imom al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo’yicha talabalardagi bilim, ko’nikma va malakalarni shakllanganlik darajasining statistik tavsifini tuzish nazarda tutilgan edi. Bu o’z navbatida, Tarix yo’nalishi talabalarida Imom al-Buxoriy asarlari vositasida milliy iftixor tuyg’usini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish metodikasi va texnologiyasi bo’yicha biz yaratgan to’garak mashg’uloti dasturi, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar loyihasi, audio va video materiallarning samarali ekanligini isbotlash imkonini berdi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini matematik-statistika usuli bilan qayta ishlash asosida talabalarning tajriba materiallarini o’zlashtirishdagi samaradorligi haqida xulosalar chiqariladi. Mavjud guruhlardagi talabalarning bilimi, ish-harakat usullarining shakllanganlik darajasidagi farqini aniqlash uchun biz o’quv materialini o’zlashtirish darajasi natijalarining statistik tavsifini tuzub chiqdik. Shunday qilib, bu guruhlardagi talabalarning bilim va ko’nikmalarini past, o’rtacha va yuqori kabi baholarni uch mezonli shaklda tanladik.

3.1.1-jadval

T/R	Mezonlar	Darajalari	Ko'rsatkichlari
1	<i>Milliy g'urur tuyg'usi</i>	yuqori	
		o'rta	
		past	
2	<i>Vatanparvarlik tuyg'usi</i>	yuqori	
		o'rta	
		past	
3	<i>Milliy o'zlikdan faxrlanish tuyg'usi</i>	yuqori	
		o'rta	
		past	

Bilim va ko'nikmalarni baholash mezonlari jadvali

Shunday qilib, talabalarni ilmiy meros namunalari asosida tarbiyalash ularda fidoiylilik, sabr, matonat kabi fazilatlar ruhida tarbiyalash avvalambor, tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish hamda tarbiya jarayonining metodlarini oqilona tanlay olish bilan belgilanadi. Bu o'rinda oila, maktab, mahalla, keng jamoatchilik ahlining faoliyati o'yg'unlashgan holda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchilarda fidoiylilik, sabr-qanoatu matonat kabi fazilatlarni shakllantirishda optimal pedagogik-psixologik vaziyatlarni tashkil qilish, fanlararo integratsiyalashuv jarayonini ta'minlash jarayonida taqdim qilinayotgan materiallarning sifat ko'rsatkichini oshirish lozim.

Talabalarda ilmiy meros orqali fidoiylilik, matonat, sabr-qanoat kabi fazilatlarni shakllantirishda darsdan tashhari tarbiyaviy tadbirlarning va guruh rahbrining o'rni ham o'ziga xosdir. «Ilmiy meroslar mening hayotimda», «ajdodlar o'g'itlari yaxshilikka undaydi», «Yaxshi so'z-jon ozig'i» va shunga o'xshash boshqa ko'plab mavzularda bellashuvlar, tarbiyaviy soatlar, ko'rik-tanlovlar o'tkazish orqali ilmiy asarlarni chuqur o'rganishga undaldi.

O'tkazilgan tajriba ishlarida o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishni baholash bir qator olimlarning matematik-statistik ma'lumotlarni qayta ishlab chiqishga oid usullaridan foydalanish orqali o'rganib chiqildi va tajriba-sinov natijalariga tadbiriq qilindi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini tahlil qilar ekanmiz, Andijon, Namangan va Qo`qon pedagogika institutlarida katta guruhda asarlardan parchalar asosida oldimizga qo`ygan maqsad va kutilgan natijaga erishdik. Har bir mashg`ulotni kuzatib, tahlil qildik. Talabalar o`zlari bajargan ishlarning qo`llanishini ko`rishlari yaxshi natija beradi. Masalan, ular dekorativ gazetalar yasashgan, har bir talaba uni o`zicha<sup>5</sup> tayyorlagan va angoblar bilan bo`yagan bo`lsa, asarlar ko`chirib yozilgach, ulardan stendda yoki devorda chiroyli ornament tuziladi va devorlarga ilindi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini ko`chirib yozilgan devoriy gazetalarning tarbiyaviy ahamiyati rang-barang va ko`p qirralidir.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini ilmiy aarlar bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o`rganishga yordam beradi. Ilmiy asarlarlar o`quvchiga kattalarning qiziqarli bo`lgan dunyosini o`zlashtirishga, olamning xususiyatlari va sifatlari, milliy iftixor tuyg`usi turmushda va kishilarning mehnat faoliyatidagi o`rni bilan tanishishiga yordam beradi. O`qituvchi asarlar orqali talabalarda qiziqishni shakllantirishi, topqirlik va ijodiylikni rivojlantirishi mumkin. Bundan tashqari yod olingan asarlar talabalarning aqliy rivojlanishiga, sensor qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi, tahlil qilish, bir butun holga keltirish va umumlashtirishda mashqlantiradi. Ulardan taqqoslash, tavsiflashda ham foydalanish mumkin. Bunday ilmiy asarlar talabalarda nutqiy faollikni uyg`otadi, lug`at boyligini oshiradi, diqqatning jamlanishi va barqarorlikning rivojlanishiga yordam beradi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalariga ko`ra, ilmiy asarlar bilan tanishish talabalarda avaylashni, e`tiborlilikni, milliy iftixorni, mehribonlik va nafosatni uyg`otadi, ijobiy axloqiy kechinmalar tajribasini to`plashga yordam beradi.

Xilma-xil asarlardan na`munalar talabalarni tengdoshlari, birmuncha kichik va katta yoshli do`stlari bilan muhokama qilishga undaydi va olijanob hislarning mustahkamlanishiga yordam beradi.

⁵ Davron A. Ma`naviyat dahosini tavof etaylik. G`G`Millat va taraqqiyot, 1999yil, 1-8-iyun.

Imom Buxoriyning eng tushunarli ilmiy me'rosi bo'lmish asarlar talabalarda estetik hislar va kechinmalar uyg'otadi, estetik tajribaning to'planishiga yordam beradi, milliy iftixor tuyg'usini yuksaltiradi va badiiy didni shakllantiradi.

Tajriba-sinov ishlarining natijalarini Imom Buxoriy ilmiy meroslaridan hozirgi zamon yoshlar ta'limida foydalanish davom etmoqda. To'g'ri, ilmiy meroslardan foydalanish birmuncha kam qo'llaniladi, biroq ular talabalar hayotida estetik idrokini shakllantiruvchi, milliy iftixor tuyg'usini yuksaltiruvchi, uning tasviriyl faoliyatini rivojlantiruvchi material sifatida o'z o'rnini topgan.

Tajriba-sinov quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

Tajriba-sinov ishlari ilmiy asarlarni aytib berish talabalardagi milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish 2022-2023 o'quv yilida uch bosqichga ajratilgan holda amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishi 2022-2023 o'quv yili davomida Andijon,

Namangan va Qo'qon pedagogika institutlari darajasida o'tkazildi.

Dastlab tajriba-sinov ishlarining dasturi ishlab chiqildi, unda tajriba-sinovga oid tadbirlar rejasi, kutilayotgan natijalar, unga erishilganlik darajasini belgilash usullari aks ettirildi.

Tajriba-sinov ishining 2022 -2023 o'quv yili 1-2-chorak - birinchi izlanish va bashorat qilish bosqichi (sentabr, oktabr, noyabr va dekabr oylari)da Andijon Namangan va Qo'qon pedagogika institutlarida o'tkazildi.

Muammoga oid adabiyotlar o'rganildi, tadqiqot mavzusi tanlandi, tadqiqot ob'ekti va predmeti aniqlandi. Bunda talabalarni milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish usullari, shakllari va mazmuni o'rganildi.

Bu bosqichda ta'limiy muammolarni o'rganishga oid qarashlar qat'iylashib, aniqlandi, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga yordam beradigan vosita ekanligiga ishonch shakllandi. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o'tkazish uchun nazariy va amaliy asoslar tayyorlandi. Bunda ishlab chiqilgan usullarning tashkil etish shakllari va mazmuni bevosita talabalarning o'quv jarayonida sinab ko'rildi.

Yaratilgan dasturlar hamda o'tkaziladigan darslar va davlat ta'lim standartlari talabalaridan kelib chiqqan holda ilmiy asarlar bo'yicha tadqiqotlar

rejasi ishlab chiqildi. Buning uchun institut talabalari orasida anketa so'rovlari o'tkazildi. So'rovnomada 330 respondent ishtirok etdi. Anketa so'rovnomalari Imom Buxoriy ilmiy asarlarining amaliyotdagi holatini o'rganish uchun alohida tuzilgan savolnomalar asosida o'tkazildi. Anketa so'rovnomalari tajriba boshlanishidan oldin (1-bosqich) va tajriba natijalarini tahlil qilish davomida (2-bosqich) o'tkazildi. Bular ilmiy asarlar talabalarga individual yondashuvni o'tkazish imkoniyatini oshirdi. Oliygozlarning eksperiment va nazorat guruhlari aniqlab olindi va pedagogik eksperiment jarayonida biz taqdim etgan tamoyillar, o'qitish metodi va metodik ishlanmalari tajribadan o'tkazildi. O'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda institut o'qituvchilari uchun ilmiy asarda metodik yo'riqnoma va mashg'ulotlar dasturini yaratilishi bo'yicha xulosalar qilindi. O'tkazilgan izlanishlarda, ilmiy asarlar orqali talabalardagi milliy iftixor tuyg'ularini shakllantirish jarayonida talabalarning bilim olish saviyasi oshishi pedagogik muammo sifatida asoslandi. Bunda talabalarning Imom Buxoriy ilmiy asarlarini o'zlashtirishlari hamda samaradorlik darajasi tahlil qilindi.

Tajriba-sinovga metodologik va ilmiy-pedagogik yondashildi:

- tadqiqot vazifalari asosiy maqsad mohiyatiga ko'ra belgilanganligi;
- tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilar sonining talab darajasida ekanligi;
- to'plangan materiallarning tadqiqot mazmunnini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi;
- tadqiqotda ilgari surilgan nazariy g'oyalar amaliy faoliyatda xizmat qilishi tajriba-sinov ishlarining samarali yakunlanganligida o'z aksini topgan.

Pedagogik tadqiqot ishlarini amaliyotga tadbiiq etish va ularning samaradorligini aniqlash tajriba sinov ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini sinovdan o'tkazish va ularni natijalarini tahlil qilish bo'yicha bir qator ilmiy ishlar o'rganildi va amaliyotga tadbiiq etildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi ijtimoiy institutlarning hamkorligini kuchaytirish orqali o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni

samaradorligini tajriba sinovdan o'tkazishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish va tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda kuzatish, anketa-so'rovlar, suhbatlar, nazorat (test), pedagogik tajriba usullaridan foydalanildi.

Pedagogik kuzatuv usulidan institutda tashkil etiladigan o'quv tarbiya ishlari jarayonini o'rganish, jumladan, ilmiy asarlarni o'rganish jarayonida ommaviy axborot vositalarida bayon qilingan materiallarni o'quvchilar ma'naviyatiga ta'sir holatlarini o'rganish, umumlashtirishda va tajriba sinov ishlarini boshidagi va yakunidagi ko'rsatgichlar orasidagi farqlarni solishtirishda foydalanildi.

Anketa-so'rovlar, suhbatlar-o'tkazish usulidan esa talabalarni mashg'ulotlar jarayonida ma'naviy bilim va ko'nikmalari darajasini aniqlash uchun foydalaniladi. Nazorat (test) usulidan talabalarning bilim saviyasini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Pedagogik tajriba usuli ta'lim muassasalari faoliyatini integrasiyalash asosida talabalar ma'naviyatini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish, tanlab olingan maqsad uchun mavjud shart-sharoitlarning talabaga javob berish darajasini aniqlash va mazkur soha bo'yicha ishlab chiqilgan ishlanmalarni amaliyotdagi samaradorligini aniqlash maqsadida qo'llanildi.

3.2. Tajriba-sinov ishlari natijalari va ko'rsatkichlari

Imom Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov jarayonida darslikdagi har bir mavzuning DTSGa mosligi, o'quv materialining o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishidagi sifat ko'rsatkichlar, mavzularining tadrijiyligi, mavzularni bayon etishda uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanish va boshqa fanlar bilan aloqadorlik darajasi tajribali-o'qituvchilar tomonidan kuzatildi.

Tajriba sinov ishlari 3 bosqichda amalga oshirildi. Shakllantiruvchi va ta'kidlovchi tajribalar Imom Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha samarali yo'llarini oshganlik darajasi yuqorida ko'rsatilgan mezonlar bo'yicha aniqlandi.

Tajribaning yakuniy qismida statistik ko'rsatkichlar tahlilini amalga oshirish davomida oldindan belgilangan mezonlardan tashqari Imom Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha o'qitish samaradorligi darajasini aniqlashga qaratilgan test va savolnomalar natijalari hisobga olindi. Imom Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalarining samaradorlik nisbatini aniq ko'rsatish uchun tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida dasturning boshida va oxirida guruhlar bo'yicha natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Tajriba -sinov ishlarida Andijon viloyatidan respondentlar soni 155 nafar, Namangan viloyatidan respondentlar soni 125 nafar va Farg'ona viloyatidan respondentlar soni 50 nafar, jami 330 nafar tinglovchilar respondent sifatida qatnashdi. Tadqiqotning samaradorligini ob'yektiv baholash maqsadida nazorat guruhi uchun ham respondentlar tasodifiy tanlash yo'li bilan jalb etildi.

Imom Al-Buxoriy asarlari vositasida talabalar milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirish texnologiyalari bo'yicha tajribadan avvalgi (T.a.) va tajriba so'ngidagi (T.s.) ma'lumotlarni umumiy jadvalini keltiramiz (3.2.1-jadval).

3.2.1-jadval

